



# “YER SAYYORASI – UMUMIY UYIMIZ”

Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha  
maktabgacha ta'lim tashkilotlari  
uchun parsial dastur

# **“Yer sayyorasi – umumiy uyimiz”**

Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha maktabgacha  
ta'lim tashkilotlari uchun parsial dastur

**Birinchi nashr**

**Mualliflardan:** “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berish sohasidagi nazariy hamda amaliy tadqiqotlarga asoslanib, shuningdek, ilg’or xalqaro tajriba hisobga olingan holda ishlab chiqildi. Ushbu dastur pedagog va ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyalash muammosiga yangicha qarashga yordam beradi va o’z ishida zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Dastur mualliflari YXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori ofisiga hamda ushbu dasturni ishlab chiqishda yordam ko‘rsatgan, o‘z taklif va tavsiyalarini bildirgan barchaga samimiy tashakkur va chuqur minnatdorligini bildiradilar.

**Mualliflar:** Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Rizayeva X.U., Kuryayeva I.V., Nekrasova Y.A., Shivaldova N.S., Xaziyeva L.Z.

**Retsenzentlar:**

Abdunazarova N.F	pedagogika fanlari nomzodi, MTT direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti prorektori
Bikova Y.A.	biologiya fanlari nomzodi, O‘zFA Zoologiya instituti Kamyob hayvon turlari hisobi va kadastri laboratoriyasi mudiri, katta ilmiy xodim
Galiyeva D.X.	Toshkent shahridagi 369-sonli qo‘shma tipdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining II toifali tarbiyachisi

**Javobgarlikni cheklash**

Mazkur dasturda bayon qilingan fikr va mulohazalar faqat uning mualliflariga tegishli bo‘lib, YXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori ofisi, unga bog‘liq tashkilotlar yoki uning boshqaruv a‘zolari, ular vakili bo‘lgan mamlakatlarga aloqador hisoblanishi mumkin emas.

Dastur Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik kengashi (“\_\_\_” \_\_\_\_\_2022-yil №\_\_\_-sonli bayonnoma),

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan tasdiqlangan va nashr etishga tavsiya qilingan (“\_\_\_” \_\_\_\_\_2022-yil №\_\_\_-sonli bayonnoma).

# MUNDARIJA

Qisqartmalar ro'yxati	5
Tushuntirish yozuvi	6
Dasturning dolzarbligi	7
I BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish bo'yicha xalqaro tajriba	9
II BOB. Dasturning maqsad, vazifa va tamoyillari	11
2.1. Dastur maqsadlari	11
2.2. Dastur vazifalari	11
2.3. Dastur tamoyillari	12
III BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashdagi umumpedagogik tamoyillar	12
IV BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashda pedagogik yondashuvlar	16
4.1. Prezentativ yondashuv	17
4.2. Munosabatga oid yondashuv	17
4.3. Xulq-atvorga ko'ra yondashuv	17
V BOB. MTTda ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarining rejalashtirilishi va mazmuni	18
5.1. Bolalar bilan ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish	18
5.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashning mazmuni	19
5.3. Ekologiya qonunlari	20
5.4. Mavzuviy bo'limlar mazmuni	21
VI BOB. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish tuzilmasida ekologik xavfsizlik va sog'lom turmush tarzi madaniyati	33
VII BOB. Rivojlanish sohalari kompetensiyalari	33
VIII BOB. MTTda rivojlantiruvchi ekologik muhitni tashkil etish	35
IX BOB. MTTda ekologik ta'lim va tarbiya berishda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	40
9.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim	



va tarbiyalash bo'yicha ta'lim-tarbiya faoliyatida o'yinlarning ahamiyati	40
9.2. Ekologik ta'lim va tarbiya shakllari	41
9.3. Ekologik ta'lim va tarbiya berish usullari	43
X BOB. Ekologik yo'naltirilgan rivojlanish sohalari bo'yicha bolaning yutuqlari	49
XI BOB. Bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda oilalar va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik	54
11.1. Oilalar bilan hamkorlik	54
11.2. Ijtimoiy hamkorlik	55
XII BOB. Dasturni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar	56
Lug'at	56
Ilovalar	59
1-ilova. MTT uchun tavsiya etiladigan va etilmaydigan xonaki o'simliklarning namunaviy katalogi	59
2-ilova. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun favqulodda vaziyatlarda o'zini tutishning namunaviy qoidalari	76
3-ilova. Tabiatda xavfsiz harakatlanishning namunaviy qoidalari	77
4-ilova. STTning namunaviy qoidalari	78
5-ilova. MTT guruhlaridagi "Fan va tabiat" markazi uchun namunaviy materiallar ro'yxati	80
6-ilova. Ekologik sanalarning namunaviy kalendari	82
7-ilova. 6-7 yoshli bolalar bilan ertalabki sayming namunaviy rejasi	87
8-ilova. 6-7 yoshli bolalar uchun "Suv" mavzusidagi loyihani amalga oshirishning namunaviy rejasi	88
9-ilova. Oilada ekologik xabardorlik darajasini oshirishning namuna yo'nalishlari	90
10-ilova. Ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlikning namunaviy yo'nalishlari	90
Adabiyotlar	93



# Qisqartmalar ro‘yxati

**Davlat o‘quv dasturi** – maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi

**MTT** – maktabgacha ta’lim tashkiloti

**STT** – sog‘lom turmush tarzi

**YXHT** – Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti

**Dastur** – “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” parsial dasturi

**SanQvaM** – O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalarining ish tartibini tashkillashtirish va qurilmalarni saqlashning sanitariya-gigiyena talablari

# Tushuntirish yozuvi

Dastur ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga doir Davlat talablariga<sup>1</sup>, O'zbekiston Respublikasi "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga<sup>2</sup> muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tarbiyalanuvchilarning ota-onalari uchun mo'ljallangan va ekologiya asoslari prizmasida tabiatshunoslik fanlari asoslari bo'yicha bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy dunyoning global ekologik muammolari O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Ushbu davrda mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim vazifalarini hal qilmoqda, bu o'rinda ekologik muammolar jamiyatda ekologik madaniyatning yetishmasligi tufayli yanada og'irlashishi mumkin. Ekologik ta'lim sifatini o'zgartirmasdan ekologik muammolarga yechim topish mumkin emas. Ilmiy tadqiqotlar shuni isbotladiki, bolaning eng jadal rivojlanishi maktabgacha yoshdan boshlanadi, rivojlanishning ushbu bosqichida ekologik ta'lim va tarbiyani o'z ichiga olgan umumiy madaniyatga mustahkam poydevor yaratish juda muhim. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarurati yuzaga keldi.

## **Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha parsial dasturni ishlab chiqishga quyidagi omillar asos bo'ldi:**

- 2030-yilgacha bo'lgan davrga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 27-mayda 434-sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi, unda ekologik tarbiyani rivojlantirishning muhim yo'nalishlari belgilangan;
- ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha to'plangan tajriba va uning tahlili;
- MTTning davlat, nodavlat va muqobil shakllarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, o'qituvchilar, metodistlarning 2021-yilda respublikaning barcha hududlaridagi MTT o'rtasida o'tkazilgan manzilli so'rov natijasida aniqlangan keng fikrlari hisobga olinishi;
- ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha maktabgacha ta'lim dasturlarini yaratishdagi xalqaro tajriba.

Dasturning asosiy jihatlari uning turfaligi, moslashuvchanligi, individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

Dasturda ataylab ekologik ta'lim va tarbiyaning vazifalari va mazmunini ma'lum bir yoshga qattiq bog'lash xususiyati mavjud emas, bu esa uni MTTning har qanday yosh guruhida amalga oshirish imkonini beradi.

Dastur mundariyasi maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik ta'limining boshlang'ich maktab bilan uzluksizligini ta'minlaydi. Dasturda tabiat va insonning undagi o'rni haqida yaxlit nuqtai nazarni shakllantirish, bolalarda tabiatdagi mavjud munosabatlar haqidagi ilk tushunchalarni va shu asosda ekologik madaniyat, tabiatda va favqulodda vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakat, atrof-muhitga, o'z sog'lig'iga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish kabilarni hosil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dastur uch qismdan tashkil topgan: jonsiz tabiat; jonli tabiat; insonning tabiat bilan o'zaro munosabati va ekologik xavfsizlik.

Dastur o'qituvchilarni bolalarda tirik mavjudotlarga nisbatan insoniy munosabatni, tabiiy muhitga sezgir qarashlarni rivojlantirishga qaratilgan, shuningdek, u o'qituvchilar tomonidan MTTda ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirishda foydalanilishi mumkin.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, ro'yxat № 3032, 03.07.2018-y.

<sup>2</sup>Grosheva I., Yevstafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M., maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashri, Toshkent-2021.

# Dasturning dolzarbligi

Maktabgacha yoshda shaxsning umumiy madaniyatiga poydevor qo'yiladi, Davlat talablari va Davlat o'quv dasturiga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik asoslarni shakllantirish nazarda tutilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'simliklar, hayvonlar, insonni tirik mavjudotlar, tabiat olamidagi, inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik va aloqalar haqida; sog'lomlashtiruvchi, kognitiv, axloqiy, estetik, amaliy singari tabiat qadriyatlarining xilma-xilligi; tabiat insonning yashash manzili ekanligi haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar.

Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish – hozirgi zamonning o'ta muhim muammosi hisoblanadi: insonlarning ekologik tafakkuri va ekologik madaniyatigina sayyoramizni va insoniyatni bugungi inqirozdan olib chiqishga yordam beradi.

## **Davlat darajasida ekologik ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat, deb belgilangan:**

- bolalarda va ularning ota-onalarida (qonuniy vakillarida) ekologik madaniyatni, o'z ona zaminiga, O'zbekiston va jahonning tabiiy boyliklariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni rivojlantirish;
- tabiiy resurslarning holati uchun mas'uliyat tuyg'usini, atrof-muhitdan oqilona foydalanish ko'nikma va malakasini, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni tarbiyalash.

Ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotining roli juda katta bo'lib, uning asosiy vazifasi to'g'ri o'quv jarayoni va bilim sifatini ta'minlashdir.

Shu munosabat bilan ekologik ta'lim va tarbiya sifatini boshqarishning samarali vositalari va usullarini izlab topish hamda amaliyotga tatbiq etish zarurati paydo bo'lib, ulardan biri maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkiliy-metodik ta'minlashdir.

Ushbu Dasturning **dolzarbligi** shundaki, u pedagoglarga bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda, ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishda uni Davlat o'quv dasturida nazarda tutilgan, bola rivojlanishining barcha yo'nalishlari orqali birlashtirishni taklif qiladi.

## **Ushbu Dasturning yangiligi quyidagicha:**

- maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashning turli jihatlarini qamrab oladi;
- ekologiyaning ilmiy asoslangan to'rtta qonuni keltirilgan;
- Dastur nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalash, balki bolalarning atrof-muhitga har tomonlama yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi;
- 3 yo'nalish bo'yicha tematik bloklar taqdim etilgan: jonsiz va jonli tabiat, insonning tabiat bilan o'zaro munosabati va ekologik xavfsizlik;
- tabiatda va favqulodda vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakatlar qoidalari jamlangan;
- ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan ishlash bo'limi taqdim etilgan, chunki bolaning hayotiy pozitsiyasi, xarakterining asoslari oilada shakllanadi.

Ota-onalar bilan ishlashda bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatiga katta ahamiyat beriladi, zero aynan faoliyat orqali inson uni o'rab turgan olamga ta'sir ko'rsatadi, bu yondashuv ota-onalar va bolalar o'rtasidagi hamkorlikka, hissiy, psixologik yaqinlashuvga yordam beradi.



# Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish bo'yicha xalqaro tajriba

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha parsial dasturni ishlab chiqishda Germaniya, Rossiya, Yaponiya, AQSh kabi mamlakatlarning ilg'or xalqaro tajribalari hisobga olindi.

**Germaniyada** ekologik ta'lim loyihalar, loyiha kunlari va haftaliklari, shuningdek, guruh ekskursiyalari kabi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Germaniyada yagona davlat dasturi (ta'lim konsepsiyasi) mavjud emas. Bular: ekologik MTT bo'lishi mumkin, bu yerda bolalar ko'p vaqtlarini ochiq havoda o'tkazadilar va tabiat bilan muloqot qiladilar. Bunday MTTda ijodkorlik, syujetli-rolli o'yinlar, eksperimentlar, tabiatga yoki shahar korxonalariga ekskursiyalar qilishga katta e'tibor beriladi.

Germaniyadagi MTTda ekologik tarbiyaning birlamchi vazifasi - yaqinlashib kelayotgan global ofatlar haqidagi bilimlarni berish emas, balki bolalarning ongiga ular o'rab turgan yaqin atrof-muhitdagi muammolarni yetkazishdir. Olingan bilimlar butun hayot davomida tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lish uchun poydevor qo'yadigan aniq amaliy harakatlarga aylantirilishi kerak.

**Rossiyada** ekologik ta'lim uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Qonunchilik bazasi va bir qator hukumat me'yoriy hujjatlari ishonchli asosga aylandi. Maktabgacha ta'limning Davlat standarti MTTda tarbiya va ta'limning psixologik-pedagogik shartlariga qo'yiladigan davlat talabi sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, unda shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishga e'tibor qaratilgan.

Butun ta'lim-tarbiya jarayonini integratsiyalashuvi va ekologizatsiyasi tamoyillariga asoslangan pedagogik modellar, rivojlanayotgan fan muhitini ekologizatsiyalash, ota-onalarning ekologik savodxonligini oshirish usullari, MTT xodimlarining ekologik ta'lim dasturlari, MTT faoliyatini nodavlat va jamoat tashkilotlari bilan muvofiqlashtirish tizimi – yo'nalishlarni amalga oshirish vositasi sifatida belgilangan.

**Yaponiyada** maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashga alohida yondashuv mavjud. Mamlakatda "dastlabki vaziyat" boshqacha edi, bu azaldan dengiz olamidani tashqari barcha tabiiy resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq edi (orol hududi, o'z foydali qazilmalarining minimal miqdordaligi, yovvoyi tabiatdagi biologik xilma-xillikning qashshoqligi, shahar o'sishi/urbanizatsiya shiddatining yuqoriligi va boshqalar).

Yaponiyada atrof-muhitga e'tibor va hurmat bilan munosabatda bo'lish bolalar, maktab o'quvchilari, talabalar, tadbirkorlar, uy bekalari, kompaniya prezidentlari, shahar merlari va gubernatorlari, ya'ni hamma-hammaga o'rgatiladi. Ekologik ta'lim va tarbiya, birinchi navbatda, fuqarolik ta'lim va tarbiya darajasida bo'lishi kerak, ya'ni ekologik ta'limning maqsadi barcha fuqarolarda faol, ekologik axloqiy hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat.

Ekologik tarbiya maktabgacha yoshdan, bola o'zini va uni o'rab turgan dunyoni anglay boshlagan paytdan boshlanadi.

### **Yaponiyada ekologik ta'limning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish, inson tabiatning xo'jayini emas, balki uning bir qismi ekanligini anglatish;
- ekologik qadriyatlar tizimini, tabiatga va uning bir bo'lgan insonga nisbatan hissiy, mas'uliyatli, ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;
- tabiatni muhofaza qilish, qo'riqlash va tiklashga amaliy yondashuvni hosil qilish.

**AQShda** ekologik ta'lim – yondashuv shakllari, yo'nalishlari va uslublarining g'ayrioddiy xilma-xilligi, ekologik axloq g'oyalarining deyarli barcha o'quv fanlari mazmuniga chuqur kirib borishi, ot-onalar va keng jamoatchilikni, ayniqsa, nodavlat jamoatchilik tashkilotlarini bolalarda tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish me'yorlarini shakllantirish jarayoniga jalb qilish bilan ajralib turadi.

Ta'lim va rivojlanishga yo'nalgan dasturlarda tabiatni asrash masalalari bo'yicha qat'iy bo'lim mavjud emas. Ta'lim pedagoglarning shaxsiy, mualliflik dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida tabiatni muhofaza qilishni o'rgatish bo'yicha maslahatchi lavozimlari mavjud. Amaliy dala mashg'ulotlari, turli muzeylar, tabiat markazlari va ilmiy-tadqiqot institutlariga o'quv ekskursiyalarini uyushtirish keng qo'llaniladi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashdagi xorij tajribasi asosan ikki yo'nalish – sog'lomlashtirish va iqtisodiy sohalar asosiga quriladi. Chet eldagi umumiy maktabgacha ta'lim tizimi ko'pincha maktab bilan bog'liq bo'lgan va ta'lim bo'g'inlarining umumiy zanjirida maktabgacha ta'lim bo'g'ini funksiyalarini bajaradigan turli shakl va ko'rinishlarga ega.

Mavjud amaliyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yosh avlodni ekologik tarbiyalash masalalarini hal etishga jalb qilish yo'lidan bormoqda. Bu mamlakatlarda maxsus turdagi muassasalar yaratilmoqda: ekologik bolalar bog'chasi, o'rmon bolalar bog'chasi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologiyaga yo'naltirilgan xalqaro ta'lim dasturlarining umumiy o'xshashligi shundaki, ular amaliy natijalarga qaratilgan: ular bolalarda ijtimoiy va tabiiy muhitda ekologik jihatdan to'g'ri xatti-harakatlar, Yer resurslariga tejamkor munosabatda bo'lish ko'nikmalarini singdiradi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda atrof-muhit sohasida ta'lim tizimi allaqachon ishlab chiqilgan va takomillashishda davom etmoqda, odamlarning sayyoramiz va uning inqirozli holati haqidagi tasavvurlari kengaytirilmoqda.

# Dasturning maqsad, vazifa va tamoyillari

---

## 2.1. Dasturning maqsadlari

### Dasturdan koʻzlangan maqsadlar quyidagilardan iborat:

- bolada ekologik madaniyat asoslarini, tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish uchun sharoit yaratish;
- atrof-muhitga boʻlgan munosabatining oqibatlarini anglay oladigan va tabiat bilan uygʻunlikda yashay oladigan insonparvar, ijtimoiy faol, jismonan rivojlangan, ijodiy shaxsni tarbiyalash.

## 2.2. Dasturning vazifalari

### Vazifalar quyidagicha:

- maktabgacha yoshdagi bolaning tushunishi mumkin boʻlgan birlamchi ilmiy ekologik bilimlarni shakllantirish;
- tabiat olamiga nisbatan kognitiv qiziqishni rivojlantirish;
- tabiat va bolaning oʻzi uchun ekologik jihatdan barkamol va xavfsiz xulq-atvorning dastlabki koʻnikmalari va malakalarini shakllantirish;
- tabiat va atrof-muhitga nisbatan insonparvarlik, hissiy-ijobiy, ehtiyotkorona, jonkuyar munosabatda boʻlishni tarbiyalash;
- tabiat obyektlariga hissiy sezgirlikni rivojlantirish;
- tabiat obyektlari va hodisalarini kuzatish borasida koʻnikma va malakalarni shakllantirish;
- salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun zarur boʻlgan koʻnikma va malakalarni shakllantirish;
- qadriyatlarning boshlangʻich tizimini shakllantirish (oʻzini tabiatning bir qismi sifatida idrok etish, inson va tabiat oʻrtasidagi munosabat, tabiat bilan muloqot qilish qiymati);
- kundalik hayotda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish;
- tabiatni asrab-avaylash, kerak boʻlganda unga yordam koʻrsatish (jonli obyektlarga gʻamxoʻrlik qilish) qobiliyati va istagini shakllantirish;
- bolalarni ekologik taʼlim va tarbiyalash masalalarida ota-onalar va jamiyatning ekologik xabardorlik darajasini oshirish;
- bolalarni ekologik taʼlim va tarbiyalash masalalarida oilalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni amalga oshirish.



## 2.3. Dasturning tamoyillari

**Davlat o'quv dasturiga muvofiq, mazkur Dastur ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga tayanadi':**

- bolaning huquqlari, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish;
- har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash;
- salomatlikni saqlash va mustahkamlash hamda bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- o'yin orqali o'rgatish va rivojlantirish;
- MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi;
- milliy tarixiy va madaniy an'analarning qiymatini tan olish.

Dastur rivojlanib borayotgan ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi va umumiy olganda, bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

# Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashda umumpedagogik tamoyillar

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashda bir qator umumpedagogik tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

**Ilmiylik.** Ilmiy tamoyil maktabgacha yoshdagi bolalarni uning harakatlarini motivatsiyalashda, kognitiv qiziqishni rivojlantirish va dunyoqarashining asoslarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan birlamchi ekologik bilimlar to'plami bilan tanishishni nazarda tutadi.

Maktabgacha davr darajasida ilmiy ishonchlilik shart emas, bolalarda tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirish kifoya, degan fikr bor. Biroq tajriba shuni ko'rsatadiki, noto'g'ri ma'lumotlar bolada atrof-muhit haqida yanglish tushunchalar shakllanishiga olib keladi va bu uning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, noto'g'ri ma'lumotlar maktabgacha va boshlang'ich ta'limning izchilligini buzadi.

**Qulaylik.** Ilmiylik tamoyili bilan chambarchas bog'liq bo'lgan juda muhim tamoyillardan biri – muayyan yoshdagi bola uchun ma'lumotdan foydalanishning qulayligidir. Bolalarni ular uchun mavhum va tushunarsiz ma'lumotlar bilan tanishtirish tavsiya etilmaydi, masalan: "...quyoshli bir kun ichida 1 gektar o'rmon havodan 250 kg.ga yaqin karbonat angidridni o'zlashtiradi va 200 kg kislorodni chiqaradi". Qulaylik, shuningdek, bola uchun olingan bilimlarning ahamiyatini, ularning hissiy rangini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda har doim ham ilmiy atamalardan foydalanish o'rinni bo'lmaydi, vaholanki, ba'zilarining mazmuni tushunarli va jozibali tarzda tushuntirilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi ekologik ta'lim, hatto boshlang'ich ta'limdan ham ko'proq, bu yoshdagi bolalarning o'ziga xos fikr yuritishi bilan bog'liq holda yaqin atrof-muhit obyektlariga asoslanishi kerak.

**Insonparvarlik.** Bu tamoyil, eng avvalo, ekologik madaniyat tushunchasi bilan bog'liq. Tarbiya nuqtai nazaridan uning qo'llanilishi yangi qadriyatlarga ega bo'lgan, iste'mol madaniyati asoslarini o'zida shakllantirgan, o'z sog'lig'i haqida qayg'uradigan, sog'lom turmush tarzini olib borishni xohlaydigan shaxsni shakllantirishni anglatadi. Oxir oqibat, ekologik ta'limning maqsadi inson salomatligini sog'lom, ekologik xavfsiz muhitda saqlashdir. Ekologik ta'lim mazmuni, shuningdek, bolada inson tabiatning bir qismi ekanligi haqidagi tushunchalarni shakllantirishga, sayyoradagi hayotning barcha shakllariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Ekologik tarbiya bolaning his-tuyg'ularini, hamdardlik, hayratlanish, qayg'urish, tirik organizmlarga g'amxo'rlik qilish, ularni tabiatdagi birodarlari sifatida qabul qilish, atrof-muhit va butun olam, bitta gul, shudring tomchisi, kichik o'rgimchakning go'zalligini ko'ra olish qobiliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

**Prognozlash.** Bu tamoyil maktabgacha yoshdagi bolalar uchun shuni anglatadiki, ekologik ta'lim natijasida bolalarda tabiatda mavjud bo'lgan munosabatlar to'g'risida birlamchi tasavvurlar shakllanadi va shu tasavvur asosida tabiat qo'ynida hamda maishiy sharoitda dam olish, mehnat qilish paytida atrof-muhitga nisbatan o'z harakatlarini prognozlash qobiliyatini (resurslardan oqilona foydalanish elementlari) anglatadi.

**Faoliyatlilik.** Ekologik bilimlar bolaga uning o'zini va yaqinlarini o'rab turgan atrof-muhitni asrab-avaylash uchun nima qilish kerakligini tushunishga yordam berishi lozim. U, albatta, mumkin bo'lgan ekologik yo'naltirilgan faoliyat turlarida ishtirok etishi kerak. Shu bilan birga, bunday faoliyat jarayonida "bola – atrof-muhit" munosabatlarining shakllanishi va qaror topishi sodir bo'ladi. Binobarin, ta'limning eng muhim qismini ana shu dunyoqarashni mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi aniq harakatlar, ishlar

tashkil etadi. Aynan shuning uchun bola ushbu qoidalarni amalda qo'llashi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish juda muhim. Faoliyatlilik tamoyili turli xil ekologik loyihalar zahirida yotadi, ularda o'rta va katta yosh davridagi maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirok etishi mumkin.


**Integratsiya.** Hozirgi vaqtda ushbu tamoyil maktabgacha ekologik ta'limda tobora ko'proq tatbiq etilmoqda. Uni qo'llashning ahamiyati bir qancha sabablarga ko'ra asoslanadi: **birinchidan**, ekologik bilimlarning integratsiyaviy xarakterga egaligi; **ikkinchidan**, ekologik ta'limni bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish va **uchinchidan**, MTTda barcha ishlar tashkillashtirilishi va metodikasining o'ziga xos xususiyatlarga egaligi. Yuqorida sanalganlardan oxirgisi MTTda integratsiya tamoyilini amalga oshirishni maktabga qaraganda ko'proq real vazifa ekanligini ko'rsatadi. Maktabgacha davr darajasida bu pedagogik jamoaning butun faoliyatini ekologiyalashtirish va bola faoliyatining turli ko'rinishlarini ekologiyalashtirish zaruratida namoyon bo'ladi.

**Yaxlitlilik.** Ushbu tamoyil avvalgisi bilan chambarchas bog'liq va maktabgacha ekologik ta'limga xosdir. Bu, birinchi navbatda, bolaning atrof olamni yaxlit idrok qilishi va uning tabiiy dunyo bilan birligini aks ettiradi. MTTda bolalar bilan ishlash jarayonining o'zini yaxlit yondashuvni hisobga olgan holda qurish tavsiya etiladi (muayyan fan nuqtai nazaridan yondashuv ustunlik qiladigan maktabdagi dars mashg'ulotlaridan farqli o'laroq). Bolaning atrofidagi dunyoni yaxlit idrok etishi uning tabiatni jonli va jonsizga bo'lishni istamasligida namoyon bo'ladi.

**Konstruktivlik.** Bu tamoyil maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi va tarbiyasi mazmunini tanlashda ayniqsa muhim, lekin u har doim ham amaliyotga tatbiq etilavermaydi. Uning qo'llanilishi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun namuna sifatida faqat xolis, ijobiy yoki salbiy-ijobiy ma'lumotlardan foydalanish kerakligini anglatadi. Oxirgisi shuni nazarda tutadiki, insonning tabiatga ta'siri haqidagi salbiy faktlarni keltirish barobarida pedagog bolaga ijobiy misol yoki muhokama qilinayotgan vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lgan boshqa yo'lini ko'rsatishi shart. Shu bilan birga, bolaning o'zi, uning oilasi, MTT aniq nima qila olishini ta'kidlab o'tish, muvaffaqiyatli hal qilingan ekologik muammolarga misollar keltirish, eng yaxshisi yaqin atrofdagi misollardan foydalanish nihoyatda muhim.

**Mintaqaviylik.** Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda globallikka emas, balki mintaqaviylik tamoyiliga ko'proq e'tibor berish kerak. Global muammolarni – kislotali yomg'ir, ozon qatlamining yupqalashishi va boshqalarni o'rganish, ba'zan ular haqidagi ma'lumotlarning pedagoglar tomonidan bolalar faoliyati turlarining mazmuniga kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Ko'p hollarda pedagog global muammolarning mohiyatini faqat suhbat yordamida tushuntira olishi mumkin. Global muammolar bilan bog'liq barcha tushunchalar bola uchun mavhum, qaysidir ma'noda hatto ertak kabi bo'lib qoladi va qiyinchilik bilan qabul qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bola ozon teshiklari paydo bo'lishining sabablari haqidagi savolga ongli ravishda javob bera olmaydi. O'qituvchilar va otanalarning o'zlari global muammolar bilan tanish bo'lishlari kerak. Bolada ekologik tasavvurlar (shu jumladan turli xil ekologik muammolar), ekologik jihatdan barkamol xulq-atvor malakasi, atrof-muhitga munosib munosabatda bo'lishning shakllanishi uning MTT binosi va hududi, o'z xonadoni, hovlisi, yaqin atrofdagi sayrgoh, bog'lar, tog' va daryolar bilan tanishishi asosida ro'y beradi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni butun mintaqaning ekologik holati ("Suv, havo ... hududlar ekologiyasi") kabi mavzular bilan tanishtirish noo'rin sanaladi. Ekologik ta'lim maqsadlari uchun bola o'z faoliyati jarayonida mohiyatini o'rganishi mumkin bo'lgan obyektlar, hodisalar tanlanishi kerak.

Mintaqaviylik jonli va jonsiz tabiat obyektlaridan qay birini o'rganishni tanlashda ham namoyon bo'ladi, birinchi navbatda o'z o'lkasi, uning tarixiy, geografik va etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu juda muhim jarayon bo'lib, ko'plab maktabgacha yoshdagi bolalar tropik o'rmonlarning hayvonot va o'simlik dunyosi vakillarini o'zining yonida yashaydiganlariga qaraganda yaxshiroq bilishadi. "Qaysi hayvonlarni ko'rgansan?" degan savolga bolalar televizorda yoki kitoblardagi rasmlarda, ba'zilar - hayvonot bog'ida ko'rgan hayvonlarning nomlarini aytishadi, biroq kamdan-kam hollarda qishloqda, tog'larda ko'rgan hayvonlari bu ro'yxatdan o'rin oladi. Shuning uchun bolaga ekologiya qonuniyatlarini, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlarini u yashayotgan mintaqada misolida ko'rsatish katta ahamiyat kasb etadi.



**Tizimlilik.** Ayrim MTTda ekologik tarbiya ishlari muntazam olib borilmaydi, bolalar faoliyati esa bir-biri bilan o'zaro bog'lanmagan. Eng samaralisi – bu bolada bilim tizimini shakllantirish va bolalar faoliyatining har xil turlari tizimini tashkil etish. Shu bilan birga, bilimlarni o'zlashtirish ketma-ketligi, “shakllanadigan har bir keyingi tasavvur yoki tushuncha oldingisidan kelib chiqqan holda” yuz berishi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda tizimlilik tamoyili alohida ahamiyatga ega, chunki uni qo'llash umumiy jihatdan ularning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Umuman maktabgacha pedagogikada bo'lgani kabi, ekologik ta'limda ham bilimlarni tizimlashtirish tamoyillari ilmiylik tamoyilining amalga oshirishini ta'minlaydi, chunki tizimlashtirish tabiatning va ijtimoiy munosabatlarning asosiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi tasavvurlar va birlamchi tushunchalarga asoslanadi. Bolalarning tabiiy holda hosil qilingan tajribasida hayvonlar, o'simliklar, ko'proq jonli tabiat haqida allaqachon bir-biridan farq qiladigan tasavvurlar mavjud.

**Izchillik.** Ekologik ta'lim va tarbiya tizimining asosiy xususiyati – uning barcha bo'g'inlari uzluksizligida. Qoidaga ko'ra, uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya tizimining bir necha bosqichlari ajratiladi: MTT – maktab – kollej – OTM – mutaxassislar malakasini oshirish – aholi. Izchillik tamoyili maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi va tarbiyasining mazmuni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.

# Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashda pedagogik yondashuvlar

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalash nazariyasi va metodologiyasida ekologik madaniyat deganda o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan tizimli ta'lim tushuniladi: ekologik bilim, ekologik yo'naltirilgan xulq-atvor va faoliyat, tabiatga bo'lgan ijobiy munosabat.

### Ekologik yondashuv – bu:

- ijtimoiy ta'lim nazariyasidagi yo'nalish bo'lib, bola shaxsiyatining rivojlanishini uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati kontekstida ko'rib chiqadi;
- ijtimoiy ishdagi yo'nalish bo'lib, odamlarning ularni o'rab turgan atrof-muhitga moslashuvi va o'zaro munosabatiga urg'u beradi.
- Ekologik psixopedagogika yaratuvchilari V.Y. Yasvin va S.D. Deryabo ana shu tuzilmadan kelib chiqib, ekologik ta'limda uchta asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatganlar. Bular: “prezentativ”, “munosabatga oid” va “texnologik” yondashuvlar, ekologik ta'limdagi tendensiyalar.

## 4.1. Presentativ yondashuv

Ekologik ta'lim va tarbiyada **prezentativ** (“bilimga asoslangan”, axboriy) yondashuv, birinchi navbatda, bolalarni tabiat bilan tanishtirishga, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalanuvchilar o'rtasida ba'zi ekologik tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan.


Bu yondashuv o'qitishda tushuntirish-illyustrativ, usullarning reproduktiv guruhlaridan foydalanishni, asosan materialni ko'rsatish va tushuntirishni o'z ichiga oladi. Bu usullarning keng qo'llanilishi bilimlarni o'quvchilarga tezroq yetkazish, xabardorlik darajasini oshirish imkonini berishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning bilimlari, qoidaga ko'ra, yetarlicha ongli, g'ayratli va samarali bo'lmaydi.

“Prezentativ” yondashuv doirasida ekologik ta'lim va tarbiyaning turli shakllari mavjud. Maktabgacha ta'lim metodikasida bular: kuzatish, ta'limiy mashg'ulotlar, tabiatga, qishloq xo'jaligi obyektlariga, hayvonot bog'lariga, botanika bog'lariga ekskursiyalar, o'quv ekologik yo'llari, maqsadli sayrlar, o'quv adabiyotlarini o'qish, tabiatshunoslik mazmunidagi qiziqarli filmlarni tomosha qilishdir.

## 4.2. Munosabatga oid yondashuv

Ekologik ta'lim va tarbiyada **munosabatga oid** (aksiologik, qiymatli) yondashuv bolalarning tabiatga ijobiy munosabatini shakllantirishga qaratilganligi bilan bog'liq. Bu yondashuv tabiatga subyektiv ijobiy munosabatni shakllantirishga eng katta ta'sir ko'rsatadigan bilimlarni to'plashga, bolalar uchun





faoliyat turlarini tashkil etishga, tarbiyaviy vaziyatlarni yaratishga qaratilgan. Bular: ekologik-axloqiy, ekologik-estetik mazmundagi mashg'ulotlar, ekologik bayramlar, ekologik o'yinlar, viktorinalar, topishmoq kechalari, krossvordlar ishlash, ekologik QVZlar, marafonlar, tanlovlar, auksionlar, didaktik tabiatshunoslik o'yinlari, rolli ekologik o'yinlar, teatrlashtirilgan etyudlar, ekologik-psixologik treninglar.

### 4.3. Xulq-atvorga ko'ra yondashuv

Ekologik ta'lim va tarbiyada xulq-atvor, "texnologik" yondashuv – bolalarda ekologik yo'naltirilgan, tabiatni muhofaza qilish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv bolalarning tabiat bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari uchun tegishli texnologiyalarni o'zlashtirish, mustaqil faoliyatda foydalanish uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashning ushbu yo'nalishida usullarning amaliy guruhi ustunlik qiladi: tabiatda bolalarning mehnat qilishi, eng oddiy tajribalar, tabiiy materiallar bilan bo'ladigan o'yinlar va tabiatshunoslikka oid syujetli-rolli o'yinlar.

Psixologik-pedagogik ta'limda ekologik yondashuv bolaning rivojlanishiga ham eng yaqin ijtimoiy muhit (oilaviy iqlimning xususiyatlari bilan), ham nisbatan uzoqroq – bolalarning jamiyatdagi o'rni hamda ularni tarbiya qilishni qabul qilingan uslubining ta'sirini o'rganishni nazarda tutadi, ular o'z navbatida, an'analar, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, jamiyatning siyosiy tizimi, qadriyatlari va mafkurasi bilan belgilanadi.

# MTTda ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarining rejalashtirilishi va mazmuni

## 5.1. Bolalar bilan ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish

Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirish Dasturni amalga oshirish va har bir bolada asosiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashning muhim qismi hisoblanadi. Ekologik ta'lim-tarbiya faoliyati tematik reja<sup>4</sup> bilan omuxtalashtiriladi va kun davomida, shu jumladan, zarurat tug'ilganda, rejim vaqtlarida amalga oshiriladi. Material pedagog tomonidan bolalarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda "oddiydan murakkabga" tamoyiliga muvofiq rejalashtiriladi. Masalan: bolalarning ko'nikma va malakalari ortib borishi bilan o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish faoliyati mazmuni murakkablashtirishi mumkin<sup>5</sup>.

Ekologik ta'lim va tarbiyada rivojlanish sohasini integratsiyalash maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishni ta'minlashga imkon beradi, bilim sifati ortishiga xizmat qiladi, rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya faoliyati mazmunini kuchaytiradi, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonidagi faollikning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

MTT sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyati asoslarini shakllantirish uchun ekologiyani barcha rivojlanish markazlarida bolalar bilan ishlashning turli shakllari va usullari orqali integratsiyalash, ekologik ta'lim va tarbiyaning yaxlit tizimini yaratish zarur.

Rejalashtirishda pedagogga rivojlanish markazlari va rejim vaqtlariga (ertalab va kechqurungi sayr, ovqatlanish) ekologik ta'lim va tarbiya elementlarini kiritish, ijodiy yondashuvni namoyon etish, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

## 5.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashning mazmuni

Davlat talablari va Davlat o'quv rejasiga maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkillashtirilishini belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi mazmunida ekologiyaning uchta asosiy sohasirii bo'yicha dastlabki bilimlar ajratib ko'rsatiladi: umumiy ekologiya; amaliy ekologiya; ijtimoiy ekologiya.

<sup>4</sup> 4-ilovaga qarab//Davlat o'quv rejasiga Namunali yillik tematik reja//.

<sup>5</sup> «Maktabgacha ta'lim muassasalarida tavsiya etilgan va tavsiya etilmaydigan yopiq o'simliklarning taxminiy katalogi» dasturining 1-ilovasiga qarang.

Barcha uch soha bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Ekologik ta'limning boshlang'ich bosqichi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarni birlamchi **ekologik** bilimlar, shu jumladan quyidagi masalalar bilan tanishtirish taklif etiladi: jonli va jonsiz tabiat; tirik organizmlarning xususiyatlari, ularning xilma-xilligi, tarqalishi, tashqi ko'rinishi, tirik organizmlarning yashash muhitining xususiyatlari bilan bog'liq tarzdagi tuzilishi (hayvonlar uchun – xulq-atvori ham), ularning ushbu muhitga (baliqlar – suv muhitiga, qushlar – yerustiga va boshqalar.), mavsumiy o'zgarishlarga moslashganligi; tirik organizmlar va odamlar o'rtasidagi munosabatlar. Ta'lim mazmuni tirik organizmlarning yashash joylari - tabiiy jamoalar, ularning hayotiy faoliyati to'g'risidagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

**Ijtimoiy ekologiya** muammolarini maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi mazmuniga kiritish bolaning atrofidagi dunyoda o'z o'rnini anglashga, ekologik barkamol xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Atrof-muhit, ham tabiiy, ham ijtimoiy jihatdan – u bola, uning salomatligi va hayotiga nisbatan yetarlicha tajovuzkor muhit. Shu sabab, bolalarning o'z salomatligini mustahkamlash, atrof-muhitni yaxshilash, xavfsiz hayot kechirish ko'nikmalarini tizimli va izchil rivojlantirish zarur.

Quyidagi savollar **amaliy ekologiya** sohasidagi bilimlarga tegishli:

- tabiatda o'zni tutish qoidalari;
- tabiiy resurslarni tejash qoidalari;
- kattalar bilan birgalikda tabiatni muhofaza qilish aksiyalarida ishtirok etish.

### 5.3. Ekologiya qonunlari

Taniqli ekolog Barri Kommoner o'zining “Yakunlovchi doira” kitobida ekologiyaning to'rtta qonunini bayon qildi. Ular atrof-muhitda sodir bo'layotgan tabiiy va qonuniy hodisalarga asoslanadi hamda “INSON va TABIAT” o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish uchun fundamental asos hisoblanadi. Ekologiyaning ushbu qonunlari haqqoniyligi allaqachon sodir bo'lgan va bo'layotgan ko'plab hodisalar bilan isbotlangan. Muhimi, maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining kundalik hayoti va faoliyatida ushbu qonunlarni hisobga olishni bilishlari lozim.

**Birinchi qonun: “Tabiatda hamma narsa o'zaro bog'liq”** – tabiatda nimaiki sodir bo'lsa, bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Insonning atrofidagi olamga qilgan kichik o'zgarishlari ham oxir-oqibat falokatga olib keladi. U voqea va hodisalarning tabiiy manbalarini izlash va o'rganish zarurligi, ularni bog'lovchi zanjirlarning paydo bo'lishi, bu bog'lanishlarning turg'unligi va o'zgaruvchanligi, ulardagi bo'shliqlar va yangi halqalarning paydo bo'lishi haqida so'zlaydi, bizni bu bo'shliqlarni davolash, shuningdek, voqealar rivojini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilish o'rganishga undaydi.

**Ikkinchi qonun: “Hech bir narsa izsiz yo'qolmaydi”** deganda tabiatda hech narsa iz qoldirmasdan yo'qolib ketmasligi; u yoki bu modda shunchaki bir joydan ikkinchi joyga, bir molekulyar shakldan boshqasiga o'tishi, tirik organizmlarning hayotiy jarayonlariga ta'sir qilishi tushuniladi. Masalan, ko'mib yuboriladigan yoki yondirilgan chiqindi. Bir moddadan boshqasi paydo bo'ladi, bunda havo zaharlanadi, iqlim o'zgaradi, odamlar kasal bo'lishiga olib keladi.

**Uchinchi qonun: “Hech narsa shunchaki berilmaydi”** – tabiatning mexanizmlari va vazifalari haqida ishonchli ma'lumotlarga ega emasligimiz, shuning uchun biz tabiiy tizimlarga, ularni o'zimizcha yaxshilash niyatida qilgan harakatlarimiz bilan aslida osonlikcha zarar yetkazishimizni uqtiradi. Masalan: chumchuqlar o'ldirilganda – zararkunandalar butun hosilni yeb qo'yadi. Har bir ishning badalini to'lashga to'g'ri keladi. Ushbu qonun o'ta ehtiyotkor bo'lishga chaqiradi. Tabiatni qayta qurish iqtisodiy jihatdan zararli va ekologik jihatdan xavflidir. Bu yashash uchun nomunosib sharoitlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.



**To'rtinchi qonun: "Tabiat nima qilishni yaxshiroq biladi"** deganda, global ekologik tizim, biosfera yaxlit bo'lib, unda har bir yutuq yo'qotish sanaladi, boshqa tomondan, tabiatdan olingan hamma narsa qoplanishi kerakligi tushuniladi. Inson takabburlik bilan tabiatni "yaxshilamoqchi" bo'lib, tabiiy jarayonlarning borishini buzadi. Tabiatda chiqindilar yo'q: tabiatdagi har qanday organik modda uchun bu moddani parchalashi mumkin bo'lgan ferment mavjud. Biroq inson tabiiy muhitga tushganda parchalanmaydigan, to'planib, uni ifloslantiradigan katta miqdordagi kimyoviy moddalar va materiallarni yaratgan va yaratishda davom etmoqda.

Ekologik madaniyat bu qonunlarni bilish va ularga rioya qilishdadir.

Agar Ekologiya qonunlari hisobga olinmasa, insoniyat muqarrar tanazzulga qarab ketadi. Bunga quyidagilar ham "ko'maklashib yuboradi": iqlim o'zgarishi, tuproqning ifloslanishi (hech narsa yetishtirish bo'lmay qolishi), havoning ifloslanishi (kasalliklar, umumiy holsizlik), resurslarning kamayishi (o'rmonlarning haddan ortiq kesilishi, haddan tashqari ko'p kon qazish, chuchuk suv yetishmasligi), suv toshqini, sunami, zilzilalar yoki kutilmagan chang bo'ronlari, kuchli yog'ingarchilik yoki qurg'oqchilik salbiy tabiat hodisalarining tez-tez sodir bo'lishi.

Shunday qilib, bundan kelib chiqadiki, atrof-muhitning holati sayyoramiz aholisining salomatligi bilan bevosita bog'liq va hamma narsa hamma narsa bilan bog'liq; hamma narsa qayergadir ketishi kerak; buni tabiat yaxshiroq biladi; hamma narsa uchun badal to'lanishi kerak.

**"Sizga qanday munosabatda bo'lishlarini istasangiz, tabiatga shunday munosabatda bo'ling"** degan fikrga rioya qilib yashang. Ayni shu fikr ekologiyaning **"oltin qoidasi"** hisoblanadi.

## 5.4. Mavzuviy bo'limlar mazmuni

Davlat o'quv rejasiga, kalendar-mavzuviy rejalashtirishga muvofiq va ekologiya qonunlarini hisobga olgan holda muayyan mavzularni o'z ichiga olgan tematik bo'limlar ishlab chiqilgan.

Mavzuviy bo'limlar pedagog uchun MTTda o'quv, tarbiyaviy vazifalarni belgilashda, shuningdek, ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

## 1-bo'lim

## Jonsiz tabiat

Mavzular	Vazifalar		
	Ta'limiy	Tarbiyaviy	Ekologik xavfsizlik
<b>“Quyosh”</b>	<p>Quyosh haqida Yerdagi barcha tirik jonzoqlar uchun issiqlik va yorug'lik manbai bo'lgan sharsimon shakldagi ulkan samoviy jism sifatida tasavvur uyg'otish.</p> <p>Quyosh tizimi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish va mustahkamlash.</p> <p>Sayyoramizdagi butun hayot Quyoshga bog'liqligini (yorug'lik, issiqlik, kun va tunning o'zgarishi, fasllarning almashinuvi) tushuntirishga erishish.</p> <p>Yorug'likning o'simlik va hayvonlar hayotida tutgan o'rni, tungi hayvonlar, yorug'lik yo'q bo'lgan yoki yetishmaydigan sharoitda yer ostida yashovchi hayvonlar, sovuq va issiq sharoitda yashovchi hayvonlar bilan tanishtirish.</p> <p>Quyosh nurlarining to'g'ridan-to'g'ri tushishi zarari va foydalari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.</p> <p>Quyosh haqidagi afsona va ertaklar bilan tanishtirish.</p> <p>Quyoshni tasvirlashning turli usullarini tanishtirish.</p>	<p>Sayyoramizdagi barcha tirik jonzoqlar asrab-avaylash va himoya qilish istagini, Quyoshga nisbatan hissiy munosabatni tarbiyalash.</p> <p>Quyosh harakatining turli ko'rinishlarida (Quyosh botishi, Quyosh chiqishi) tabiatning go'zalligini ko'rish, hayratlanish va Quyoshga bag'ishlangan san'at asarlaridan zavqlanish qobiliyatini tarbiyalash.</p>	<p>Quyoshda turish bilan bog'liq xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish (ochiq tanaga quyosh nurining to'g'ridan-to'g'ri tushishidan saqlanish; ertalab va kechqurun quyosh vannalarini qabul qilish; bosh kiyimda yurish; quyosh nurlaridan himoyalovchi vositalardan foydalanish).</p>
<b>“Suv”</b>	<p>“Suv” tushunchasi bilan tanishtirish. Suvning asosiy xususiyatlari: shaffof, rangsiz, hidsiz, ta'msiz, ba'zi moddalarni parchalovchi (tajribada) haqida tushuncha berish.</p> <p>Tabiatda suv aylanishi (tomchining sayohati); quruqlikdagi o'simliklar, hayvonlar (shu jumladan xona o'simliklari va hayvonlari) hayotida suvning o'rni; suv o'simliklari, hayvonlari haqida (ularning suvda yashashga moslashganligi) haqidagi bilimlarni aniqlashtirish.</p> <p>Sayyoramizning suv va suv resurslarini tejash zarurligini; suv havzalarining ifloslanishi va bu omilning atrof-muhitga ta'sirini tushuntirish.</p>	<p>Tabiatning go'zalligi va o'ziga xosligini ko'ra olish qobiliyatini tarbiyalash.</p> <p>Suvga hissiy-ijobiy va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash.</p> <p>Tabiatda suvning estetik bahosini (suv havzalarining go'zalligi, shudring tomchilari, jilolanayotgan qor parchalari) his qildirish.</p>	<p>Suvga muhim tabiiy resurs sifatida qarash, undan tejamkorlik bilan foydalanishga ongli, ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish.</p> <p>Suv havzalari qirg'oqlarida va hovuzda xavfsiz va ekologik barkamol xulq-atvorni shakllantirish.</p>
<b>“Havo”</b>	<p>“Havo” tushunchasi bilan tanishtirish.</p> <p>Bolalardagi havoning xususiyatlari (atromizdagi havo; shamol – havoning harakati; toza va ifloslangan havo; toza havo va inson salomatligi) haqidagi tasavvurlarni tizimlashtirish va aniqlashtirish.</p> <p>Havoning inson va boshqa tirik organizmlar hayotidagi ahamiyati (shamolning tabiat va inson hayotidagi o'rni; havoning tirik organizmlar uchun (uchuvchi hayvonlar, qushlar, hasharotlar) yashash joyi sifatidagi o'rni; o'simlik urug'larining shamol orqali tarqalishi) haqidagi tushunchalarni shakllantirish.</p> <p>Toza havoni saqlashda o'simliklarning roli va havoni ifloslantiruvchi manbalar: avtomobillar, zavodlar, fabrikalar haqida ma'lumot berish.</p>	<p>Havo unsurlari orqali tabiat haqidagi bilimlarga (ko'chalarda va yopiq joylarda o'simliklar ekish, ularni parvarishlash); havo bilan tajriba o'tkazish; o'yinlarda ishtirok etishga qiziqishni oshirish.</p> <p>Atmosferani ifloslantiruvchi moddalarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish.</p>	<p>Havoni ifloslantiruvchi manbalar bilan tanishtirish.</p> <p>Ifloslangan havoning inson salomatligiga xavf solishi to'g'risida tushuncha berish.</p> <p>Ifloslangan joylardan chetda bo'lish zaruratini tushuntirish (avtomashinalar to'planuvchi joylarda, garajlar yaqinida, fabrikalar yonida o'ynamaslik).</p>



Mavzular	Vazifalar		
	Ta'limiy	Tarbiyaviy	Ekologik xavfsizlik
<p><b>“Tosh, qum, loy”</b></p> <p>“Tosh, qum, loy” tushunchalari bilan tanishtirish. Qumning xususiyatlari (sochiluvchanligi, yumshoqligi, suvni o'tkazuvchanligi), loyning xossalari (zichligi, qayishqoqligi, yopishqoqligi, odamning loydan qanday foydalanishi (idish-tovoq, g'isht, Hamro buvining o'yinchoqlari) haqida tasavvur hosil qilish.</p> <p>Tabiatda toshlarning xilma-xilligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari (qattiq, parchalanmaydi) bilan tanishtirish.</p> <p>Qum, loy va toshlar bilan amaliy tajribalar orqali bilim olishga qiziqishni rivojlantirish.</p> <p>Tabiiy materiallardan kundalik, maishiy hayotda (loy – g'isht, idish-tovoq, tosh – qurilish) foydalanish qobiliyatini rivojlantirish.</p>	<p>Выработать навыки ухода за растениями (копка, рыхление почвы на грядках, внесение удобрений, уход за комнатными растениями).</p> <p>Воспитывать бережное отношение к почве и ее жителям.</p>	<p>Развивать осознанное, бережное отношение к почве, как к важному природному ресурсу.</p> <p>Развивать умение прогнозировать последствия своих действий по отношению к почве.</p>	
<p><b>“Tuproq”</b></p> <p>“Tuproq” tushunchasi (yerning yuqori qatlami): tuproqda yashovchilar bilan (yomg'ir chuvalchangi misolida) va ularning tuproq hosil bo'lishidagi roli bilan tanishtirish.</p> <p>Tuproqning o'simliklar, shu jumladan inson tomonidan o'stiriladiganlari hayotida tutgan o'rni va tuproqni muhofaza qilish zarurligi haqida tasavvurlarni hosil qilish.</p> <p>Turli tuproqlar bilan amaliy tajribalar orqali bilim olishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish.</p>	<p>O'simliklarni parvarish qilish ko'nikmalarini shakllantirish (jo'yaklarda tuproqni yumshatish, qazish, o'g'itlash, xona o'simliklarini parvarishlash).</p> <p>Tuproqqa va unda yashovchilarga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash.</p>	<p>Tuproqqa muhim tabiiy resurs sifatida qarash, unga nisbatan ongli, ehtiyotkorona munosabatni rivojlantirish.</p> <p>Tuproqqa nisbatan o'z harakatlarining oqibatlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.</p>	

## 2-bo'lim Jonli tabiat

Mavzular	Vazifalar		
	Ta'limiy	Tarbiyaviy	Ekologik xavfsizlik
<p><b>“Men va tabiat”</b></p> <p>Tabiatning bebaholigi haqida tasavvurni shakllantirish. Quyidagi tushunchalarni singdirish: inson tabiatning bir bo'lagi; quyosh (yorug'lik va issiqlik), suv, havo (shamol), odam, o'simliklar, hayvonlar, tuproq esa tabiatning tarkibiy qismlari.</p> <p>Tabiatning inson hayotida tutgan o'rni va tabiatning turli tarkibiy qismlari (tuproq, suv, o'simliklar, hayvonlar, odamlar) o'rtasidagi munosabat haqida tasavvur hosil qilish.</p>	<p>Tabiatning inson hayotida tutgan o'rni tushunishni tarbiyalash.</p> <p>Atrof olamga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, jonli va jonsiz tabiatning har bir obyektiga go'zalligini ko'rish qobiliyatini tarbiyalash.</p>	<p>Tabiatga nisbatan iste'molchi munosabatini yengish zarurati haqida tushuncha berish.</p> <p>Tabiat bilan uyg'unlikda yashashga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish</p>	
<p><b>“O'simliklar”</b></p> <p>O'simliklar haqida tushuncha berish. Tabiatda o'simlik turlarining xilma-xilligi (daraxtlar, butalar, o'tlar) va ularning o'ziga xos xususiyatlari; o'simliklarning qismlari (ildiz, tana, barglar) haqida tasavvurni shakllantirish.</p> <p>Yovvoyi, madaniy, xona, dorivor, zaharli o'simliklar haqida tushuncha berish.</p> <p>Yorug'lik, issiqlik, suvning o'simlik hayotiga ta'sirini tushuntirish. O'simliklarning rivojlanishini ko'rsatish (yaqin atrofdagi 1-2 o'simlik misolida).</p> <p>O'simliklarning hayvonot dunyosi bilan aloqasi haqida tushuncha berish (o'simliklar – hayvonlar va odamlarning ozuqasi; o'simliklar hayotida hasharotlar).</p>	<p>O'simliklarga nisbatan hissiy, ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash.</p> <p>Ularga tirik mavjudot sifatida qayg'urish, ularning hayotini kuzatish va himoya qilish istagini rivojlantirish.</p>	<p>O'simliklarni parvarish qilish ko'nikmalarini va notanish o'simliklar bilan munosabatda bo'lish qoidalarini shakllantirish.</p> <p>O'simliklarga nisbatan ekologik savodxonlikni shakllantirish (daraxt shoxlarini sindirmaslik, gullarni oyoq osti qilmaslik, katta guldastalarni yig'imaslik)</p>	

<p><b>“Hayvonot olami”</b></p>	<p>Hayvonot dunyosining xilma-xilligi (qushlar, hayvonlar, hasharotlar, baliqlar, suvda ham, quruqlikda ham yashovchilar, sudraluvchilar va ularning o'ziga xos xususiyatlar); hayvonlar va qushlarning asosiy farqlovchi belgilari bilan tanishtirish.</p> <p>Tashqi xususiyatlarning hayvonlar hayotidagi ahamiyatini tushuntirish; hayvonlarning oziqlanishi; harakatlanish usullari; yashash joylari (hayvonlarning “tural joyi” (kovak, in, chuqurcha); mavsumiy o'zgarishlarning hayvonlar hayotidagi rolini anglatish.</p> <p>Viloyat, mintaqa hududida yashovchi 1-2 tur misolida hayvonlarning ko'payishi haqida tushuncha berish.</p>	<p>Hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, barcha turlarning mavjudligi zaruratini tushunish, “zararli” va “foydali”, go'zal va xunuk degan ajratishlardan foydalanmaslik.</p> <p>Hayvonlar bilan hissiy munosabatlarni tarbiyalash, ularga tirik mavjudot sifatida qarash va qayg'urish, ularning hayotini kuzatish va ularni himoya qilish istagini rivojlantirish.</p> <p>Uy hayvonlari, tabiat burchagida “yashovchi”larga g'amxo'rlik qilish istagini oshirish.</p>	<p>Hayvonot dunyosini, ularning yashash joylari va “uyllari”ni muhofaza qilish zarurligi haqida tushuncha berish.</p> <p>Tabiat qo'ynida hayvonlar, qushlar va hasharotlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish qoidalarini bilan tanishtirish.</p> <p>Hayvonlarni kuzatish, ularga nisbatan xatti-harakatlarning oqibatlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.</p>
<p><b>“O'rmon, cho'l, tog', daryo, dengiz va okeanlar”</b></p>	<p>O'rmon, cho'l, tog' va suv havzalari to'g'risida tasavvumi shakllantirish.</p> <p>O'rmon, cho'l, tog' va suv havzalarining tabiatning bir bo'lak sifatidagi ahamiyatini, inson hayotidagi o'rmini tushuntirish.</p> <p>Tirik organizmlarning bir-biri bilan aloqasi (o'simliklar va hayvonlar); jonli tabiatning jonsiz tabiat (suv, yorug'lik, issiqlik) bilan munosabati; o'rmon, cho'l va tog' o'simliklari hamda hayvonlarining “uyllari”, daryo, dengiz va okeanlarda yashovchilar; daraxtlar va inson salomatligi haqida tushuncha berish.</p> <p>O'rmonlarning; cho'l va tog' hayvonlarining; Yer yuzidagi suv obyektlarida yashovchilarning yo'q bo'lib ketish hamda qo'riqxonalar va suv omborlarini muhofaza qilish sabablari bilan tanishtirish.</p> <p>Daraxtlarning nobud qilinishi, daryolar, dengizlar va okeanlarning qurishi (hayvonlar, o'simliklar, chumoli uylarining yo'qolib ketishi) oqibatlarini tushuntirish.</p> <p>O'rmon, cho'l, tog'lar va suv havzalari hayoti haqidagi hikoyalarga qiziqishni rivojlantirish va taassurotlarni tasviriy san'at ishlarida aks ettirish mahoratini shakllantirish.</p>	<p>O'rmon, tog'larda yashovchi barcha jonzorlar, cho'l va suv havzalarini manzil tutganlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalash. Tabiatda, badiiy va san'at asarlarida o'rmon, cho'l, tog' va suv havzalarining go'zalligini ko'ra olish qobiliyatini tarbiyalash.</p> <p>Sukunat, jimjitlik, salqinlik, shtirlash, qushlarning sayrashi, hasharotlarning uchishi, ariqning shildirashi, o'rmon hidi, tog' havosi, suv sathining go'zalligidan zavq olish istagini tarbiyalash.</p>	<p>Ekologik noto'g'ri xatti-harakatlarning (gulxan yoqish, daraxtlarni yo'q qilish, guldasta yasash uchun o'simliklar yig'ish, suv havzalarini ifloslantirish, chumollarning uylarini buzish, hayvonlarni tuzoqqa tushirish) oqibatlarini tushuntirish.</p> <p>Tabiatda o'zni tutish qoidalarini bilan (chiqindilarni tashlamaslik, hasharotlarni yo'q qilmaslik, o'simliklarni uzmaslik, qush va hayvonlarning inlarini, chumoli uylarini buzmaslik) tanishtirish.</p>

### 3-bo'lim Insonning tabiat bilan munosabati va ekologik xavfsizlik

Mavzular	Vazifalar		
	Ta'limiy	Tarbiyaviy	Ekologik xavfsizlik
<p><b>“Inson va tabiat”</b></p>	<p>O'quv faoliyati jarayonida olingan bilimlarni umumlashtirish: tabiat inson yashaydigan muhit ekanligi; zamonaviy insonning tabiat bilan munosabati; insonning tabiatga salbiy ta'siri haqidagi faktlar; yo'qolib borayotgan hayvonlar; qizil kitoblar; inson tomonidan tabiatdan oqilona foydalanishga misollar; qo'riqxonalar yaratish; hayvonlar va o'simliklarning noyob turlarini muhofaza qilish; qadimgi odamlar va tabiat.</p> <p>“Tabiat bilan hamohang yashash” tushunchasini anglatish.</p>	<p>Jonli va jonsiz tabiat obyektlari va ulardan yasalgan narsalarga (qog'ozni yirtmaslik yoki bulg'amaslik, singan yog'och narsalarga (o'rindiqlar, o'yinchoqlar) e'tibor berish, ularni tuzatish yo'llarini muhokama qilish, agar suv oqayotgan bo'lsa, jo'mrakni yopish) ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash.</p> <p>Tabiatni (yog'och, qog'oz va boshqa tabiiy xom-ashyolardan yasalgan narsa-buyumlar) estetik idrok etishni tarbiyalash.</p>	<p>Tabiatda va kundalik hayotda ekologik savodxonlik va inson salomatligi uchun xavfsiz xulq-atvorni shakllantirish.</p> <p>Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy tadbirlarda kattalar bilan yoki mustaqil ravishda ishtirok etish istagini rivojlantirish.</p>



Mavzular	Vazifalar		
	Ta'limiy	Tarbiyaviy	Ekologik xavfsizlik
<b>“Yashil transport turi”</b>	<p>Ekologik toza transport turlari (elektromobil, havomobil, segvey, segvil, tramvay, trolleybus, velosiped, samokat, pedalsiz velosiped(begovell)) va ulardan foydalanish yo'llari bilan tanishtirish</p> <p>Atrof-muhitni muhofaza qilish muammosiga befarq bo'lmaslikni anglatish (transport vositalaridan atmosferaga zararli aralashmalar tarqalishining ta'siri, transport vositalarining tabiatga salbiy ta'siri haqidagi faktlar).</p>	<p>Ekologik toza transport turlaridan foydalanish orqali bolalarda atrofidagi olamga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash.</p> <p>Yo'l harakatining birlamchi qoidalarga rioya qilish istagini tarbiyalash.</p>	<p>Ekologik toza transport turlaridan (velosipedlar, skuterlar, pedalsiz velosiped (begovell<sup>6</sup>) foydalanishga qiziqishni rivojlantirish.</p> <p>Ko'chada o'zni tutish ko'nikmalarini shakllantirish.</p>
<b>“Sog'lom turmush tarzi”</b>	<p>Inson tanasining tuzilishi va vazifalarining xususiyatlari bilan tanishtirish.</p> <p>Bolalarda salomatlik inson hayotining asosiy qadriyatlaridan biri ekanligi haqida tasavvur uyg'otish; sog'lom turmush tarzi zarurligini anglatish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga nisbatan hurmatni shakllantirish; bolalarda vitaminlarni o'z ichiga olgan foydali mahsulotlar haqida tasavvur hosil qilish; asosiy tushunchalarni: “kun tartibi”, “shaxsiy gigiyena”, “vitaminlar”, “foydali mahsulotlar”, “sog'lom turmush tarzi”ni mustahkamlash.</p>	<p>Bolalarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyoj va ko'nikmalarni tarbiyalash.</p> <p>Bolalarda sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish, jismoniy mashqlardan faol foydalanish istagini uyg'otish va binolarda harakatlanishning xavfsiz qoidalardan boxabar etish.</p>	<p>Inson salomatligining tarkibiy qismlarini ajratish va ularning o'zaro aloqasini o'rnatish qobiliyatini rivojlantirish; sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishning ahamiyatini; qanday qilib o'ziga va boshqalarga zarar bermaslikni tushunish.</p>
<b>“Favqulodda holatlarda o'zni tutish qoidalari”</b>	<p>Tabiiy unsurlar (olov, suv, havo, yer) haqidagi bilimlarni umumlashtirish.</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda (yong'in, bo'ron, zilzila, suv toshqini, ko'chkilar) o'zini tutish qoidalari haqida tasavvur hosil qilish.</p> <p>O't o'chirish xizmatiga (Favqulodda vaziyatlar vazirligi) qo'ng'iroq qilish, tez yordam chaqirish, do'stlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan yordam so'rash uchun telefondan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish.</p>	<p>O'ziga va atrofidagi insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash.</p> <p>Ogohlik, xavfsiz xulq-atvorni tarbiyalash.</p> <p>Jasorat, fidoyilik, mas'uliyat, o'zaro yordam, mustaqillik kabi fazilatlarini tarbiyalash.</p>	<p>Bolalarda shaxsiy xavfsizlik va boshqalarning xavfsizligiga ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish.</p> <p>Tabiatda va jamiyatda favqulodda vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, tanib olish va to'g'ri harakat qilishni o'rgatish<sup>7</sup>; individual va birgalikdagi faoliyatni xavfsiz tashkil etish qoidalarga rioya qilish.</p> <p>Qiyin vaziyatlarda yechim topish, birinchi yordam ko'rsatishning birlamchi usullarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirish.</p>

<sup>6</sup>Grosheva I.V., Ten Y.G., Xaziyeva L.Z. “Bolani “begovell”da uchishga qanday o'rgatish mumkin?” Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2022-y.

<sup>7</sup>Qarang: “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” Dasturiga 2-ilovala, “Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun favqulodda vaziyatlarda o'zini tutishning namunaviy qoidalari”



# Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish tuzilmasida ekologik xavfsizlik va sog'lom turmush tarzi madaniyati

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini tarbiyalash turli xil hayotiy vaziyatlarda xavfsiz xulq-atvor qoidalarini qo'llashni shakllantiradigan **xavfsiz hayot faoliyati madaniyatini** tarbiyalash bilan o'zaro bog'liqdir<sup>8</sup>.

Xavfsiz hayot faoliyati madaniyatini shakllantirish bo'yicha talim-tarbiya ishlarining mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolalarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatish, favqulodda vaziyatlar ro'y berganda harakat qilish bilimlari va ko'nikmalarini egallashi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning vazifalari salomatlik madaniyati va sog'lom turmush tarzi odatlarini tarbiyalash, bolaning o'z "men"i, tanasining imkoniyatlari, salomatligining harakatlar, odatlar, ishlaarga bog'liqligi haqida anglashga qaratilgan tushunchalar tizimini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu vazifalar suhbatlar o'tkazish, ochiq havoda o'yinlar, sog'lom turmush tarzi bo'yicha ekologik bayramlar, tadqiqot ishlarini tashkillashtirish, loyiha faoliyati davomida amalga oshiriladi.

**Ekologik madaniyatning shakllanganligi** bolalarda tabiatda mavjud munosabatlar haqida barqaror tushunchalar borligi bilan ifodalanadi; qolaversa, tabiatga hurmat; **"sog'lom turmush tarzi"** tushunchasini to'g'ri anglash; sog'lom ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi qoidalarini amalda qo'llash<sup>9</sup>, hayvonot dunyosiga hissiy munosabat, tabiatni idrok etish va zavqlanishdan ijobiy his-tuyg'ular; atrofdagi olamning xususiyatlarini taniy olish qobiliyatida nanoyon bo'ladi.

<sup>8</sup>Qarang: "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 3-ilova, "Tabiatda xavfsiz harakatlanishning namunaviy qoidalari"

<sup>9</sup>Qarang: "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 4-ilova, "Sog'lom turmush tarzining namunaviy qoidalari"

# Rivojlanish sohalari kompetensiyalari

MTTni tamomlab chiqayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarda Davlat o'quv dasturiga muvofiq quyidagi umumiy kompetensiyalarni shakllantirish nazarda tutilgan<sup>10</sup>: kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy ("Men" konsepsiyasini shakllantirish), bilim olishga bo'lgan qiziqish – ular butun ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli ko'rinishlarida shakllanadi.

**Davlat o'quv dasturiga muvofiq umumiy kompetensiyalar quyidagi rivojlanish yo'sohalarida shakllantiriladi<sup>11</sup>:**

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

O'zaro munosabatlardagi rivojlanish sohalarining vakolatlari kengayishi va bolalarning ekologik yo'nalishdagi bilimlari orqali chuqurlashishi mumkin, natijada MTTni tamomlashda bolada quyidagi rivojlanish sohalarida ekologik madaniyatining shakllanishi kutilmoqda.

**"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" sohasi kompetensiyasi** ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini va ularning tabiat bilan o'zaro munosabatini "qurish"ga, bola ruhiyatini, jismoniy faolligini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bolaning jismonan kuchliroq va sog'lomroq bo'lishiga xizmat qiladi.

**"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyasi** jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirishga; hissiy sezgirlikni, hamdardlik, shu jumladan tabiiy obyektlarga nisbatan qayg'urishni rivojlantirish; kundalik hayotda, jamiyatda, tabiatda xavfsiz xulq-atvor asoslarini shakllantirishga qaratilgan

**"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyasi** o'g'zaki nutqni rivojlantirish, bolalarning so'z boyligini kengaytirish, bolalar adabiyoti, shu jumladan tabiatshunoslik asarlari bilan tanishishga qaratilgan.

**"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyasi** atrof olam obyektlari, ularning xususiyatlari va munosabatlari (shakli, rangi, hajmi, sabab hamda oqibatlari va boshqalar) haqida birlamchi tasavvurni uyg'otishga; tabiiy hodisalar va obyektlarga ongli ravishda to'g'ri munosabatni shakllantirishga; Yer sayyorasi odamlarning umumiy uyi ekanligi, uning tabiatida ekologik yondashuvga asoslangan o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi haqida bilim berishga; bolalarning dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan.

**"Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyasi** tabiatni mazmunan va qadriyatlarga asoslanib idrok etish va tushunish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; butun atrof olamga estetik munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

<sup>10</sup> Grosheva I., Yevstafeyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M., maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashri, 3.1 b., Toshkent-2021.

<sup>11</sup> Grosheva I., Yevstafeyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M., maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashri, 3.2 b., Toshkent-2021.

# MTTda rivojlantiruvchi ekologik muhitni tashkil etish

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi va tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun shunga munosib muhitni yaratish katta ahamiyatga ega. Boy ekologik muhit bolalarda ekologik tasavvur va ekologik madaniyat samarali shakllanishining eng muhim shartidir.

Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha uslubiy jihatdan barkamol rivojlanish muhiti "maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari tomonidan ikki holat tushunilishini anglatadi: hayvonlar va o'simliklar hayotiga ekologik yondashuv hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash metodikasining o'ziga xos xususiyatlari"<sup>12</sup>.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish uchun rivojlantiruvchi muhit O'zbekiston Respublikasi Davlat o'quv dasturi va Davlat talablariga muvofiq shakllantiriladi.

Bola MTTda his etgan muhit nafaqat ekologik ta'lim, balki maktabgacha ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan bola faoliyatining barcha ko'rinishlari bo'yicha o'qitish va tarbiyalash uchun xizmat qilishi kerak. Bu muhitning tuzilishi bolaning qiziqish va ehtiyojlariga javob berishi hamda uning hissiy yetukligini ta'minlashi kerak. MTT pedagoglari va butun jamoasining vazifasi o'z MTTda ekologik muhitni yaratishga katta e'tibor berishdan iborat.

Rivojlantiruvchi ekologik muhitni tashkil qilishda bir necha darajalarni mo'ljallash mumkin.

**Guruh darajasi.** U Davlat o'quv dasturi va mavzuviy rejalashtirishga muvofiq, bolalar har kuni aloqada bo'ladigan obyektlarni o'z ichiga oluvchi "Fan va tabiat" guruh rivojlantirish markazini namoyon qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalash muammolarini hal etish maqsadida guruhlarda "Fan va tabiat" markazlarini yaratish ko'zda tutiladi. Har bir yosh guruhida ushbu markazlar estetik jihatdan jihozlanishi hamda zaruriy material va qo'llanmalar bilan ta'minlanishi tavsiya etiladi<sup>13</sup>.

Guruhlardagi "Fan va tabiat" rivojlantirish markazlari yashil hududlar bo'lib, ular tirik mavjudotlarga nisbatan ekologik yetuk munosabatni shakllantirish va tarbiyalashga xizmat qiladi, shuningdek, bolalar atrof-muhitini sog'lomlashtirishga hissa qo'shadi. Har bir rivojlanish markazida bolalarning yoshiga mos keladigan ekologik mazmundagi o'yinlar, bolalar tadqiqoti uchun asbob-uskunalar, kuzatish kalendarlari, ijodkorlik uchun materiallar, kolleksiyalar, mehnat faoliyati uchun jihozlar, bolalar ijodiyoti natijalari mavjud bo'ladi.

Bularning barchasi kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fantaziya, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni rivojlantirishga yordam beradi.

Bu markazni tabiiy yorug'lik yetarlicha tushadigan joyga joylashtirish maqsadga muvofiq, chunki bu yerda xona o'simliklari (gullar), shuningdek akvarium, qushlar bo'lishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, turli tajribalar o'tkazish uchun mustahkam pishiq sirt (stol) bo'lishi tavsiya etiladi. Guruh xonalarida bolalar faoliyatining har xil ko'rinishlari: o'yinlar, konstruksiyalash, jismoniy harakatlar, ijodiy faoliyat uchun maydonlar ajratish lozim. Guruhda "Fan va tabiat" rivojlanish markazini yaratish alohida e'tiborga loyiq. U o'simliklarning turli-tuman xillari va hayvonlarning bir turini o'z ichiga olishi kerak. O'simliklarni shunday tanlash kerakki, bolalarga uning organlar tuzilishi xilma-xilligi (poyalari,

<sup>12</sup> Nikolaeva S.N. Bolalarni ekologik tarbiyalash uchun sharoit yaratish. - M.: Yangi maktab, 2013 yil

<sup>13</sup> Qarang: "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 5-ilova, "MTT guruhlaridagi "Fan va tabiat" markazi uchun namunaviy materiallar ro'yxati"

barglari, gullari), yashash sharoitiga bo'lgan talablarining turfaligi, parvarish qilish va ko'paytirish usullarini ko'rsatish mumkin bo'lsin. Pedagoglar rivojlanish markaziga "injiq" bo'lmagan, alohida, yaratish qiyin bo'lgan sharoitlarni talab qilmaydigan va shu bilan birga bolalarning atrof-muhit va tabiatshunoslik bo'yicha bilimlarini boyitishga xizmat qiladigan o'simliklar va hayvonlarni kiritishlari lozim.

Rivojlanish markazining barcha obyektlari xavfsiz bo'lishi: zaharli, muammo tug'diruvchi bo'lmasligi zarur. Bu bolalarni mustaqil ravishda ularni kundalik parvarish qilishga jalb etish imkonini beradi, natijada har qanday ekologik savodxon shaxs uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari shakllanishi ta'minlanadi. Jonli tabiatning "o'ziniki bo'lib qolgan» obyektlari bilan kundalik aloqa bolalarda kuzatuvchanlik, qayg'urish qobiliyatini rivojlantiradi va eng muhimi, yashil do'stlarining holati uchun javobgarlik hissini shakllantiradi: agar biz ularga yordam bermasak, ularga boshqa hech kim yordam bermaydi, chunki bu yerda bizdan boshqa hech kim yo'q.

Boshqa iqlim zonalarida haqidagi bilimlarni to'ldirish uchun guruh xonasida barcha asosiy tabiiy landshaftlar: tekislik, tog', cho'l, dengiz suv havzasining yirik modellarini yaratish mumkin. Bu yerda ona Yerimizning tarixini ham tasvirlanishi mumkin. Ushbu maketlarni yaratishda pedagoglar, bolalar va ota-onalar ishtirok etadilar.

Yig'ilgan tabiiy materialdan nafaqat tabiiy fanlarga doir boshlang'ich tushunchalarni shakllantirishda, balki tasviriy va mehnat faoliyati uchun ham qo'llash mumkin.

**Guruhlararo daraja.** Ushbu darajada MTT imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabiat yo'laklari, zallarni, xonalari, ekologik xonalar, laboratoriyalarni tashkil etish tavsiya qilinadi. Bolalar bu yerga nisbatan qisqa muddatga muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun kelishadi.

Bo'sh joy yoki xona mavjud bo'lgan taqdirda ekologik muhitning guruhlararo darajasi bolalar bilan ekologik ishlar olib boriladigan ekologik xona sifatida taqdim qilinishi mumkin. Ushbu xonada bolalarning samarali faoliyati va bolalar ishlarining ko'rgazmalari uchun joy ajratish tavsiya etiladi. Bolalar uchun ekologik mavzudagi kitoblar, geografik atlaslar, globus, hayvonlarni qaysi turga mansubligini aniqlovchi qo'llanmalarni o'z ichiga olgan kutubxona ham joy olishi mumkin. Shuningdek, minerallar, qobiqlar, patlar, jun, terilar va boshqa to'plamlar ham bo'lishi mumkin. Bugungi kunda bolalar bilan hasharotlar va boshqa hayvonlarning kolleksiyalarini tuzish tavsiya etilmasligi bois tayyor kolleksiyalardan foydalanish mumkin.

MTTda kichik joy yoki xonani ajratish imkoni bo'lsa, har bir bolaning o'z joyi bo'lgan laboratoriya tashkil etish mumkin. Bola bu joyni tartibda saqlashi talab etiladi. Tajriba o'tkazish paytida bolalarga uning ismi va familiyasi qayd etilgan nishon va maxsus kiyim (fartuk) kiyishlari tavsiya etiladi. Laboratoriyada tajriba o'tkazish uchun oddiy jihozlar bo'lishi tavsiya etiladi: idish (stakan, naychalar, tarelka va boshq.), mikroskop, lupalar, xavfsiz termometrlar, barometr, qum soati, filtr qog'ozi va boshqa materiallar.

Ekologik xonada guruhlararo jonli burchakni hosil qilish mumkin. U yerda bizning sharoitimizda insonsiz yashay olmaydigan hayvonlar: to'lg'insimon to'tiqushlar, kanareykalar, manzarali baliqlarni boqish mumkin. Bu yerda turli o'lchamdagi bir nechta akvariumlarni saqlash mumkin. Akvariumlar – suv ekotizimining namunasidir, shuning uchun ular baliq, shilliqqurt va suv o'simliklarini o'z ichiga oladi.

Har bir yosh guruhida tashkil etilgan mini-laboratoriyalarga ega eksperimental burchaklar tajriba o'tkazish uchun jihozlanishi mumkin: mikroskop, kattalashtiruvchi oynalar, magnitlar, turli xil idishlar, o'lchov qoshiqlari, qum, suv, sovun ko'pigi, soya bilan o'ynash uchun materiallar, tabiiy materiallar va boshqa materiallar. Har bir guruhda "Atrofimizdagi o'rganilmagan" papkasini yaratish tavsiya etiladi, unda bajarilgan tajribalar qayd etib boriladi. Hamma narsa bola mustaqil ravishda tajriba o'tkazish, pedagog rahbarligida o'tkazishi mumkin bo'lgan tajribalarni takrorlash uchun mo'ljallangan.

**Maktabgacha ta'limni tashkil etish hududi.** Bolada ekologik ongni rivojlantirish uchun hududni ko'kalamzorlashtirishni amalga oshirish tavsiya etiladi. Masalan, kelgusi o'quv yilida bu hududda gulzor, ekinzor yer yaratish va ekologik yo'lakni tashkil etishni rejalashtirish. Bolalar deyarli har kuni shu yerda

vaqt o'tkazishadi, buning natijasida ular maxsus tanlangan yoki tasodifan paydo bo'lgan jonli va jonsiz tabiat obyektlarini qisqa va uzoq muddatda kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. MTTda rivojlantiruvchi ekologik muhitni tashkil etishda sanitariya qoidalari va me'yorlari<sup>14</sup> hamda uning xavfsizligini hisobga olish kerak. MTT hududida kichik zonalar (joylar): alp "tepaligi" (toshli bo'gning bir qismi), maysazorlar, gulzorlar, bog', ekinzor yaratish tavsiya etiladi, bu yerda soya beradigan katta bargli daraxtlar, kichik daraxtlar va butalar, har xil turdagi jonli "devor"lar ekilishi mumkin. Me'yorlarga (SanQvaM) muvofiq, umumiy maydonning 30% dan ko'p bo'lmagan qismi ekish uchun ajratiladi.

#### **Yashil ekinlarni ekishda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya etiladi:**

- yashil ekinlar binoga quyosh nurlarining tushishiga xalaqit bermasligi kerak, shuning uchun butalar derazalari quyosh tomondga qaragan binodan – 5 metr, daraxtlar esa 10 metrdan yaqin bo'lmagan masofada ekilishi;
- yer uchastkasining perimetri bo'ylab daraxtlar yoki butalarning bir qatorli himoya chizig'ini ta'minlash kerak;
- ko'kalamzorlashtirish uchun zaharli mevali, tikanli daraxtlar va butalardan foydalanish mumkin emas;
- o'simliklarni tanlashda MTT binosining balandligi va boshqa xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ba'zi hollarda, daraxt ekmasdan, balki baland butalar bilan cheklanish maqsadga muvofiq bo'ladi;
- yashil ekin va maydonlarni (maydonchalar) sug'orish uchun suv (sug'orish tizimi) bilan ta'minlash kerak. Shuningdek, yashil maydonlarni sug'orish ichimlik suvi bilan amalga oshirilmaligini tushunish va yodda saqlash lozim. Ushbu maqsadlar uchun ariq tizimi yoki artezian qudug'i shaklidagi sug'orish tizimini qo'llash mumkin;
- o'yin maydonchalari, jismoniy tarbiya markazi, ekinzor, hayvonot markazi 0,5 m.dan yuqori bo'lmagan butalar bilan to'silganda bu hududlar o'rtasida tabiiy chegara vazifasini bajaradi.

Ekologik yo'lakda o'sishi uchun har xil sharoitlarni talab qiladigan, turli xil turdagi va har xil yoshdagi daraxtlarni, butalar, dorivor o'tlar, begona o'tlar, turli xil tabiiy obyektlarni ekish tavsiya etiladi.

Alpinariy (toshli bog') g'ayrioddiylik bilan bolalarda alohida qiziqish uyg'otadi. Alp "tepaligi" jonli va jonsiz tabiat obyektlari birlashtira oladi.

Transport vositalari CO<sub>2</sub> gazi va qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishi tufayli atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo shunday transport turlari borki, atrof-muhitga boshqalariga qaraganda kamroq ta'sir qiladi. Bolalarda ekologik toza transport turiga nisbatan ekologik madaniyatni shakllantirish uchun MTT hududida bolalar uchun ekologik transport turlari: skuterlar, pedalsiz velosipedlar (begovel), velosipedlar qo'yish uchun to'xtash joyi ajratilishi mumkin. MTTga kelib, bola o'z transport vositasini qo'yishi mumkin bo'lsa, shu orqali unda ekologik madaniyat va ko'cha hamda yo'llarda xavfsiz xatti-harakatlanish ko'nikmalari shakllanadi.

**MTTga qo'shni hudud.** U maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'plab ekologik muammolar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkonini beradi: tirik organizmlarning atrof-muhitga qanday moslashganligini bilish, insonning tabiatdagi o'rnini anglash va hokazo. MTTga qo'shni hudud odatda u mahalliy uyushma (mahalla) hududi bo'lib, bola shaxsini rivojlantirish va uning ekologik madaniyatini shakllantirishga ta'sir qiluvchi kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning ekologik madaniyatini tarbiyalash va rivojlantirishda turfa faoliyat turlari: mahalliy muzeylar, istirohat bog'lari, ustaxonalar va shu hududdagi boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy uyushma rahbarlarini guruhlarga va ota-onalar bilan o'tkiziluvchi tadbirlarga, ochiq eshiklar kuni va boshqa bayramlarga taklif qilish tavsiya etiladi.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalarida jihozlarni saqlash va ish tartibini tashkillashtirishga oid sanitariya-gigiyenik talablar, SanQvaM № 0355-18, 27.04.2018-y.



Bola shaxsini shakllantirishda MTT sharoitida yaratiladigan rivojlantiruvchi ekologik muhit – optimal darajada boyitilgan, zamonaviy sharoitlarga moslashgan, shaxsni shakllantirish talablariga javob beradigan muhitdir. U xilma-xillik, qulaylik, nafosatlilik, murakkablilik va o‘z ichiga ko‘p narsani qamrab olish kabi sifatlar bilan ajralib turadi.

Rivojlantiruvchi muhitning bunday tuzilishi MTTda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta’lim va tarbiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Bu bolalarning tadqiqot faoliyati ularning samarali, ijodiy ekologik ta’limiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha eksperimental ekologik-pedagogik maydon ochish imkoniyatini yaratib berishi mumkin.

# MTTda ekologik ta'lim va tarbiya berishda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etish Davlat o'quv dasturida nazarda tutilgan rivojlanish sohalarini integratsiyalash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda, ta'lim sohalarining vazifalarini hal qilish mumkin, "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi alohida o'rin egallaydi, aynan maktabgacha yoshda tabiatning turfa, rang-barang olami bolalarda tabiiy qiziqish, qiziquvchanlikni yuzaga keltiradi, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, tasavvurlarini qo'zg'atadi va qadriyatlar nimadan iborat ekanligi haqidagi tushunchalar shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

"**Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari**" sohasida tabiat dunyosi bilan tanishuvi kuzatishlar, ekskursiyalar, illyustratsiyalarni ko'rish, videofilmlarni tomosha qilish jarayonida amalga oshadi. Turfa shakllardagi mazkur ishlar barchasi bolalarning so'z boyligi jadal kengayishiga, o'g'zaki nutqi rivojlanishiga yordam beradi.

Shuningdek, bir vaqtning o'zida, "**Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**" ta'lim sohasining vazifalari – axloqiy va ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash; tabiatda o'zni tutish qoidalari bilan tanishish, bolalarni tabiatda bajarish mumkin bo'lgan ishlarga jalb qilish kabilar o'z yechimini topadi. Ekologik ta'lim va tarbiya "**Ijodiy rivojlanish**" ta'lim sohasi bilan integratsiyalashadi. Tabiat obyektlarini kuzatish bolalarni badiiy-ijodiy faoliyatga undaydi, bular: rasm chizish, plastilindan yasash, applikatsiya, bundan tashqari, musiqiy tarbiya tabiat dunyosini hissiy idrok etishga yordam beradi.

Shu bilan birga, "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" ta'lim sohasidagi vazifalar ham hal etilishiga e'tibor qaratiladi, bular: maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida va binolarida hosil qilingan tabiiy muhit bolalar salomatligini mustahkamlashga va tabiatda xavfsiz harakatlanish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Dastur doirasida amalga oshiriladigan integratsiya tamoyili maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitning haqqoniy manzarasi haqida to'liqroq tasavvur shakllanishiga imkon beradi.

## 9.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalash bo'yicha ta'lim-tarbiya faoliyatida o'yinlarning ahamiyati

MTTda ekologik ta'lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning bir qismi bo'lib, unda Davlat o'quv dasturiga muvofiq, asosiy va yetakchi faoliyat turi o'yin hisoblanadi.

O'yin bu bolani o'z-o'zi va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli hisoblanadi. O'yin shaxsiyatni boyitadi va rivojlantiradi, shuning uchun u ekologik ta'limda keng qo'llanilishi kerak. Aynan o'yin bolalarning ekologik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi, uning yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy ekologik tushunchalar tizimlari shakllanadi hamda obyektlar va tabiat hodisalariga ongli ravishda to'g'ri munosabatda bo'lish tarbiyalanadi. Ushbu yo'nalishda pedagog salmoqli rol o'ynaydi, uning ahamiyati quyidagilarda:

- bolalar o'yinlari uchun zarur shart-sharoitlarni (shu jumladan joy, vaqt, manbalar) yaratish;
- bolalar o'yinini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashda bolalar uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- bolalarga o'yinda o'zaro munosabatga kirishishida yordam berish;
- bolalarga o'zlarini va qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini berish.

## 9.2. Ekologik ta'lim va tarbiya shakllari

Pedagog ta'lim-tarbiya faoliyati jarayonida bolalarni tabiat va atrof olam bilan tanishtiradi, bolalarning yosh xususiyatlarini va ular yashaydigan hududni hisobga olgan holda tabiat hodisalari va unsurlari haqidagi bilimlarni shakllantiradi. Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda turli shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

**Kollektiv shakllar** (harakatli va rolli ekologik o'yinlar, ekologik bayramlar, hududni tozalash va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha birgalikdagi mehnat faoliyati, gulzorlarda va hovlilarda ishlash, mahorat darslarida, sport musobaqalarida va estafetalar, ekologik marafonlar, festivallar, sarguzashtli tanlov (kvest) va QVZlarda qatnashish).

### **Ekologik bayramlar va hordiq kunlari**

Ekologik bayramlar va dam olish tadbirlari bolalarda ularning "tabiiy» fe'l-atvoriga ijobiy hissiy rag'batni uyg'otadi. Bu tadbirlarda bolalarga yaxshi tanish bo'lgan materialdan foydalanish tavsiya etiladi. Dam olish kunlaridan ko'ra ko'pincha bolalar, tarbiyalanuvchilarning ota-onalari va hamjamiyat (mahalla) bilan birgalikda tashkil etiladigan hordiq chiqarish tadbirlari<sup>15</sup> bayramlardan ko'ra ko'proq o'tkaziladi va turli xil mavzularni qamrab oladi.

Ekologik bayramlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ularning hissiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning bayramdan olgan taassurotlari ham ijtimoiy, ham axloqiy rivojlanishga yordam beradi. Sahna timsollari yordamida bolalar tabiatda o'zni tutish qoidalarini nafaqat tengdoshlariga, balki kattalarga ham so'zlab berishadi, bu esa odamlarning umumiy ekologik madaniyatini oshirishda juda muhim. Ekologik bayramlar ekologik bilimlar, tabiat va uning sabab-oqibat munosabatlari haqidagi bilimlarni chuqurlashtiradi, bu esa hissiy baholashning paydo bo'lishiga olib keladi. Bayramlar bolalar va kattalarning ekologik tajribasi to'planishi va faollashishiga ta'sir ko'rsatadi.

### **Tabiatda bolalar mehnati**

Tabiatda turli ko'rinishdagi mehnat faoliyati bolalarga katta quvonch bag'ishlaydi va ularning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi. Mehnat qilish jarayonida tabiatga muhabbat, unga g'amxo'rlik, ehtiyotkorona munosabat tarbiyalanadi. Bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqish, unga nisbatan ongli, mas'uliyatli munosabat shakllanadi.

Tabiatda mehnat qilib, bolalar tabiat obyektlarining xususiyatlari va sifatleri, holatlari bilan tani-shadilar, bu xususiyatlarni kashf etish usullarini o'rganadilar.

Tabiatda mehnat qilish jarayonida bolalarning o'simliklar va hayvonlar haqidagi bilimlari ortadi. Bolalar o'simliklarni kuzatadilar, mehnat qilish ko'nikmalari va layoqatlarini mashq qiladilar (o'simliklarni sug'orish, urug' va ekinlarni qazish, yig'ib olish). Bu ishlar mehnatsevarlik, mustaqillik, o'zaro yordam ko'rsatishni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi.

**Guruhli shakllar** (ekskursiyalar, MTTda ekologik yo'laklarni yaratish va ulardan foydalanish<sup>16</sup>, o'yinli faoliyat, tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish, bolalarni loyihalarni ishlab chiqishga jalb qilish, rolli o'yinlar, ekologik yo'nalishdagi to'garaklar yoki klublar faoliyati, tabiatshunoslik aksiyalarida ishtirok etish).

<sup>15</sup>Qarang. "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 6-ilova, "Ekologik sanalarning namunaviy kalendari"

<sup>16</sup>Qarang. "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga uslubiy qo'llanma, "MTTda ekologik yo'lakni ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalar"



**Ekskursiyalar** – ekologik ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil etish shakllaridan biri. Ekskursiyalar MTT hududida ham, undan tashqarida ham o’tkazilishi mumkin.

Ekskursiyalarning afzalligi shundaki, ular bolalarga tabiiy sharoitda obyektlar va tabiat hodisalari bilan tanishish imkonini beradi.

Ekskursiyalarda bolalar o’simliklar, hayvonlar va shu bilan birga ularning yashash sharoitlari bilan tanishadilar va bu tabiatdagi munosabatlar haqida birlamchi tasavvurni shakllantirishga, shuningdek, kuzatiuvchanlikni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ekskursiya paytida pedagogga bolalarning diqqatini atrofdagi tabiatning go’zalligiga qaratish tavsiya etiladi. Tabiatga uyushtirilgan sayohatlar bolalarning toza havoda bo’lishi, harakatlanishi bilan bog’liq bo’lib, bu ular salomatligini mustahkamlashga yordam beradi. Bolalar istirohat bog’lari, tog’larda, suv havzalari qirg’oqlarida sayr qilish asnosida, keyingi kuzatishlar hamda “Fan va tabiat” markazidagi guruhda ishlash uchun tabiiy materiallarni to’playdilar.

Bolalarga tabiatdagi mavsumiy o’zgarishlarni ko’rsatish uchun yilning turli vaqtlarida bir xil joylarga tabiatshunoslik ekskursiyalarini o’tkazish maqsadga muvofiq. Ekskursiyalar Davlat o’quv dasturi doirasida ham, undan tashqarida ham rejalashtirilishi mumkin. Ekskursiyalarda ishtirok etish uchun tarbiyalanuvchilarning ota-onalari, mahalliy hamjamiyat (mahalla) vakillarini jalb qilish tavsiya etiladi.

### **Ekologik aksiyalar**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta’lim va tarbiyalash masalalarini hal qilishning samarali vositasi ekologik aksiyalardir. Ekologik aksiyalar – bu atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy tadbirlar. Ularni o’tkazish davomida maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatshunoslik bo’yicha bilim oladilar, ularda ekologik madaniyat ko’nikmalari shakllanadi.

#### **Ekologik aksiyalar quyidagilarga yordam beradi:**

- bolalarda tabiatda o’zni tutish qoidalarini, ushbu qoidalarga muvofiq ongli harakatlar asosida eslab qolish;
- bolalarga kattalar tomonidan tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo’lish misollarini vizual ravishda ko’rsatish va tabiatga ijobiy munosabatni, uni himoya qilish va unga g’amxo’rlik ko’rsatish istagini rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o’zlari tushunadigan, ularning qiziqishlariga va kundalik hayotidagi faoliyatiga mos keladigan aksiyalarda ishtirok etishlari mumkin. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish aksiyalarini sanalarga, hodisalarga, masalan: “Toza shahar”, “Daraxt ekish”, “Yer kuni”, “Atrof-muhitni muhofaza qilish kuni”, “Qushlar kuni” kabilarga uyg’unlashtirilishi mumkin.

**Individual** (tanlovlarda ishtirok etish, “Fan va tabiat” markazida, ekinzorda, bog’da navbatchilik; ijodiy faoliyat: hunarmandchilik, plastilindan yasash, rasm chizish va boshqalar).

## **9.3. Ekologik ta’lim va tarbiya berish usullari**

Bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berish turli usullar – amaliy, ko’rgazmali, og’zaki va loyihaviy usullar yordamida amalga oshiriladi.

**O’qitishning amaliy usullari** – bu o’yin, birlamchi tajribalar va modellashtirish, tasviriy va teatrlashtirilgan faoliyatdir. Ushbu usullarni qo’llash pedagogga bolalarning tushunchalarini aniqlashtirish, ularni tabiat hodisalari va obyektlari o’rtasidagi aloqa va munosabatlarni o’rnatish orqali chuqurlashtirish, olingan bilimlarni tizimlashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga o’z bilimlarini qo’llashni mashq qildirish imkonini beradi.

## **Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashda turli xil o'yinlar keng qo'llaniladi:**

**Didaktik o'yinlar** – bu mazmuni puxta ishlab chiqilgan, o'z qoidalariga ega o'yinlar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar tabiat hodisalari va obyektlari, o'simliklar, hayvonlar haqidagi tasavvurlarini aniqlashtiradilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. O'yinlar bolalarga tabiat obyektlar bilan ishlash, ularni solishtirish va alohida tashqi belgilaridagi o'zgarishlarni qayd etish imkonini beradi. Ko'plab o'yinlar bolalarni umumlashtirish va tasniflash layoqatini hosil qilishga olib keladi, tabiatga hissiy munosabatni uyg'otadi.

**Rasmi-ko'rgazmali o'yinlar** – lotto, domino, bo'lingan va juftlashtirilgan rasmlar. Bu o'yinlarda bolalarning o'simliklar, hayvonlar, jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlari aniqlashtiriladi, tizimlashtiriladi va tasniflanadi.

**So'z o'yinlari** – bu bolalar ega bo'lgan turli xil bilimlar va so'z ma'nolariga bog'liq bo'lgan o'yinlar. Ular bolalarning u yoki bu buyumlarning xususiyatlari va belgilari haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun o'tkaziladi.

**Tabiatshunoslik yo'nalishidagi harakatli o'yinlar** hayvonlarning odatlariga, ularning turmush tarziga taqlid qilish bilan bog'liq. Harakatlarga taqlid qilish, tovushlarni o'xshatish orqali bolalar o'z bilimlarini mustahkamlaydilar; o'yin davomida tuyilgan quvonch hissi tabiatga nisbatan qiziqishning chuqurlashishiga zamin yaratadi.

**Ekspirimental o'yinlar** jismoniy va tabiiy hodisalar hamda qonuniyatlarning haqqoniyligini tekshirishga imkon beradi.

**Ekologik yo'naltirilgan o'yinlar** atrof-muhit haqidagi o'yinlardan farq qiladi. Atrof olam bilan tanishtiruvchi uchun o'yinlar bolalarni, masalan, jonli tabiat vakillari va jonsiz tabiat obyektlari: meva va sabzavotlar, yovvoyi va uy hayvonlari bilan tanishtiradi. Ekologik yo'naltirilgan o'yinlar o'simlik va hayvonlarning bir-biri bilan va atrof-muhit bilan aloqasini, jonli va jonsiz tabiatdagi hamma narsa bir-biriga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Masalan, "Yaproq qaysi daraxtniki?" o'yini bolalarni atrof olam bilan, xususan, turfa daraxt turli bilan tanishtirsa-da, ekologik yo'naltirilmagan. Chiqindilarni saralash o'yini esa ekologik o'yin, chunki u inson tabiatga qanday yordam berishi mumkinligini ochib beradi.

"Maftunkor chiqindi" deb nomlanuvchi, chiqindi bilan to'g'ri munosabatda bo'lish madaniyatini tarbiyalash usuli<sup>17</sup> guruhli amaliy usullar sirasiga kiradi, shakliga ko'ra esa didaktik o'yinlar majmuasi hisoblanadi. Taklif etilayotgan usul asosida bixeviorizm konsepsiyasi yotadi, ya'ni ma'lum rag'batlantirish va motivatsion xarakterdagi qo'llab-quvvatlash orqali bolalarda chiqindi bilan ishlashda foydali xulq-atvor namunalarini mustahkamlash nazarda tutiladi.

**Modellashtirish** – bu pedagog va bolalarning modellarni qurishda birgalikdagi faoliyati. Model-lashtirishning maqsadi – bolalar tomonidan tabiiy obyektlarning xususiyatlari, ularning tuzilishi, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlar to'g'risidagi bilimlarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash. U haqiqiy obyektlarni buyumlar, chizma tasvirlar, belgilar bilan almashtirish tamoyiliga asoslanadi.

**Tajribalar va sinovdan o'tkazishlar** – bolalarning tabiat haqidagi bilimlari ongli bo'lishi uchun MTTda bolalar bilan boshlang'ich tajribalar o'tkazish tavsiya etiladi<sup>18</sup>.

Tajribalar bolalarda tabiatga kognitiv qiziqishini shakllantirishga yordam beradi, kuzatish, aqliy faoliyatni rivojlantiradi. Har bir tajribada kuzatilayotgan hodisaning sababi ochib beriladi, bolalarni hukm va xulosalar chiqarishga undaydi. Ularning tabiiy obyektlarning xossalari va sifatleri (qor, suv, o'simliklarning xususiyatlari, ularning o'zgarishlari haqida) haqidagi bilimlari mustahkamlanmoqda. Bolalarning sabab-natija munosabatlarini tushunishlari uchun tajribalar katta ahamiyatga ega.

Tajribalar bolalarda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishi shakllanishiga yordam beradi, kuzatiuvchanlik, aqliy faoliyatni rivojlantiradi. Har bir tajribada kuzatilayotgan hodisaning sababi oydinlashadi, bo-

<sup>17</sup>"SVB Advisory" MChJ QK, YXHTning loyihalar koordinatori ofisi ko'magidagi "Hashar Week" ijtimoiy, "Maftunkor chiqindi" uslubiy materiali, Toshkent-2021

<sup>18</sup>"Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga uslubiy qo'llanma, "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tajriba va eksperimentlar"

lalar xulosa chiqarish, fikr yuritishga “majbur bo‘ladilar”. Ularning tabiiy obyektlarning xususiyat va sifatleri (qor, suv, o‘simliklarning xususiyatlari, ulardagi o‘zgarishlar) haqidagi bilimlari aniqlashadi. Tajribalar bolalar tomonidan sabab-oqibat jarayonlari tushunilishida katta ahamiyatga ega.

Tajribalar ko‘pincha MTTning katta guruhlarida o‘tkaziladi. Kichik va o‘rta guruhlarda pedagog faqat alohida qidiruv harakatlaridan foydalanadi. Tajriba har doim bolalarning kuzatish va mehnat qilish jarayonida olgan tushunchalari asosiga qurilishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga uning vazifasi va maqsadini aniq tushunilishi lozim. Tajribalarni o‘tkazishda o‘simliklar va hayvonlarga zarar va ziyon yetkazmaslik shart.

**Tasviriy va teatrlashtirilgan faoliyat** – ijodiy faoliyat bolalarda alohida qiziqish uyg‘otadi, ular o‘z qo‘llari bilan turli xil materiallardan (tabiiy va chiqindi materiallar, qog‘oz, lentalar, ip, mato, plastilin) narsa-buyumlar yasaydilar, jonli va jonsiz tabiat obyektlaridan foydalangan holda plastilindan rasmlar hosil qiladilar, rasm chizadilar, applikatsiyalar bilan shug‘ullanadilar, gerbariy to‘playdilar va tuzadilar, kichik kitobchalar yasaydilar. Qoida tariqasida, asosiy mavzu sifatida tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish tanlanadi. Bu yerda bolalar o‘z fantaziyasi va ijodiy qobiliyatlaridan to‘liq foydalanishlari mumkin: asosiy materialga egalik qiladilar, illyustratsiyalar yasaydilar, krossvord va rebuslar tuzadilar.

Bolalar ekologik teatri – bu ekologik ta‘lim va tarbiyaning ijodkorlik bilan birlashuvi. Teatrni yaratishdan maqsad – bolalarni yaqin atrofdagi ekologik muammolarni aks ettirishga o‘rgatish, tomoshabinlarni tabiatni muhofaza qilishning asosiy tamoyillariga rioya qilishga, tabiiy va ijtimoiy muhitda muayyan xulq-atvor qoidalariga amal qilishga chaqirish. Dolzarb ekologik muammolar haqidagi ma‘lumotlar teatrlashtirilgan shaklda nafaqat esda qoladi, balki “jonlanadi” va ta‘sirchanroq bo‘ladi bo‘ladi. Ekologik teatr yordamida pedagog bolalar bilan birgalikda asosiy mavzusi o‘tkir ekologik muammolar bo‘lgan sahnalar, kichik spektakllar tayyorlaydi.

Pedagogning roli samarali ijodiy faoliyat, o‘rganilayotgan hodisa va obyektlarning tarbiyaviy ta‘sirini ochish uchun shart-sharoit yaratish, ijodkorlik, o‘zaro ishonch va yordam muhitini shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Ekologik teatr ekologik ta‘lim va tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Chiqindi yig‘ish bo‘yicha tadbirlar yangi spektakllarning mavzusiga aylanishi, ularni hayotdan olingan yorqin, jonli epizodlar bilan boyitishi mumkin. Bola kichik spektaklda rol o‘ynar ekan, o‘zidagi artistlik mahoratiga tayanib, hayvonlar yoki o‘simliklarga taqlid qilishni o‘rganadi (masalan, quyoncha, quyoshga bo‘y cho‘zgan gulcha). Spektaklni sahnalashtirishda dastlab ekologik muammoni ko‘rib chiqish va tahlil qilish, uni baholash va hal qilishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini topish amalga oshiriladi. So‘ngra sahna liboslari, dekoratsiyalar tayyorlanadi, bunda hamma narsa aks ettirish rejalashtirilayotgan muammoni ochib berishga qaratiladi.

MTTda **“Ekologik gazeta”** deganda tabiatni muhofaza qilish mavzusida plakatlar tayyorlash va e‘lon qilishni tushunish mumkin. Rasmlar **tanlovini** o‘tkazish ham o‘z o‘rniga ega, masalan: “Bahorni tasvirlang”, “Qushlar shahri”, “Hayvonlarni himoya qilish”, “Dunyo bolalar nigohida”.

**Ko‘rgazmali o‘qitish usullari** – kuzatish, rasmlarga qarash, modellar, kinofilmlar, videofilmlar, taqdimotlar uyushtirishni o‘z ichiga oladi. Ko‘rgazmali usullar maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo‘lgan faoliyati imkoniyatlariga to‘liq mos keladi, ularda tabiat haqida jonli, yorqin tasavvur hosil bo‘lishini ta‘minlaydi.

**Kuzatish** – ekologik ta‘lim va tarbiyalashning asosiy usuli hisoblanadi. Kuzatish – bu pedagog tomonidan maxsus tashkil etilgan, maqsadli, tizimli, u yoki bu darajadagi davomiylikka ega bo‘lgan, bolalar tomonidan tabiat obyektlari va hodisalarini faol idrok etishga qaratilgan jarayon. Kuzatishning maqsadi turli bilimlarni o‘zlashtirish, jumladan, obyektlarning (o‘simliklar, hayvonlar), mavsumiy kuzatishlarning o‘zgarishi va rivojlanishining sabablari, predmetlarning xususiyat va sifatleri, obyektlarning tuzilishi va tashqi ko‘rinishi haqidagi ma‘lumotlarni o‘zlashtirishdan iborat.

Pedagog o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga muvaffaqiyatli erishish uchun bolalarning faol idrok etishiga zamin yaratadigan maxsus usullarni o‘ylab topadi va qo‘llaydi: savollar beradi, obyektlarni tekshirishni va bir-biri bilan solishtirishni taklif qiladi, alohida tabiat obyektlari va hodisalari o‘rtasidagi aloqani aniqlashni so‘raydi. Kuzatish jarayoniga turli sezgi a‘zolarining jalb qilinishi o‘zlashtirilayotgan bilimlarning to‘laqonligi va aniqligini ta‘minlaydi.

Kuzatish jarayoni pedagogning malakali va aniq nutqi bilan olib borilishi kerak, shunda bolalar olgan bilimlarning o'zlashtirilishi jadallashadi. Kuzatish diqqatni ixtiyoriy tarzda jamlashni talab qilganligi bois pedagogga bu jarayonni vaqt, hajm va mazmunan tartibga solib turish tavsiya etiladi.

Tabiat bilan tanishishda kuzatishdan tizimli ravishda foydalanish bolalarni diqqat bilan qarashga, uning xususiyatlarini sezishga o'rgatadi va kuzatuvchanlikning ortishiga olib keladi, bu esa bilishga bo'lgan rivojlanishning muhim vazifalaridan biri hal etilishini anglatadi.

Kuzatish alohida bolalar, kichik guruhlar bilan ham, bolalarning butun guruhi bilan ham amalga oshirilishida cheklov yo'q. Tabiat obyektlarini kuzatish sayr qilishning bir qismi bo'lishi mumkin<sup>19</sup>. Belgilangan maqsadlarga qarab, kuzatish epizodik, uzoq muddatli va yakuniy (umumlashtiruvchi) bo'ladi.

**Bolalar bilan ishlashda illyustrativ-ko'rgazmali materiallardan foydalanishda** quyidagilar tavsiya etiladi: didaktik rasmlar, badiiy kartinalarning nusxalari, fotosuratlar, diafilmlar, kinofilmlar, taqdimotlar.

Tasviriy-ko'rgazmali material bolalarning tabiat hodisalarini idrok etish jarayonida olingan tasavvurlarini mustahkamlash va aniqlashtirishga yordam beradi. Uning yordami bilan ma'lum bir vaqt yoki ma'lum bir hududda kuzatishning imkoni bo'lmagan tabiat obyektlari va hodisalari haqida bilimlarning shakllanadi. Masalan, boshqa iqlim zonalariga oid yovvoyi hayvonlar yoki uy hayvonlarini faqat rasmda ko'rsatish yoki bu hayvonlar haqidagi filmni tomosha qilish mumkin.

**Og'zaki usullar** – bu pedagog va bolalar tomonidan aytib beriluvchi hikoyalar, tabiat haqidagi badiiy asarlar mutolaasi, suhbatlar. Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirish uchun og'zaki usullar qo'llaniladi. Bu usullar bolalarda tabiatga hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish ishlarida turli usullar majmuasidan foydalanish zarur. Tegishli usullarni tanlash va ularni kompleks ravishda qo'llash zarurati bolalarning yosh bilan bog'liq imkoniyatlari, pedagog hal qiladigan ta'lim-tarbiya vazifalarining tabiati bilan belgilanadi. Masalan, quyovning turmush tarzi haqidagi bilimlarni kuzatishlarsiz shakllantirish mumkin emas, xona o'simliklarga qanday g'amxo'rlik qilishni bolalar bevosita ish jarayonida o'rganadilar, qor va muzning xususiyatlari haqida – tajriba o'tkazish yoki o'yinlar o'ynash orqali bilib oladilar. Yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimlar esa pedagog so'zlab yoki o'qib beradigan hikoyalar orqali shakllanadi.

**Pedagogning tabiat obyektlari va hodisalari haqida hikoya qilish** usulidan tashkillashtirilgan ta'lim-tarbiya faoliyati jarayonida, ekskursiyalarda, sayrlarda, bolalar bilan kundalik muloqotda foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu usulning asosiy maqsadi – bolalarda ayni paytda kuzatayotgan yoki ilgari ko'rgan tabiat obyekti, hodisasi haqida muayyan, aniq tasavvur hosil qilish. Hikoya bolalarga yangi, noma'lum faktlar haqida ma'lumot berish uchun ham ishlatiladi. Hikoyani tuzayotganda pedagog unga nafaqat bolalarga ma'lum bo'lgan so'zlarni, balki ularning nutqini boyitadigan yangi so'zlarni ham kiritishga e'tibor berishi kerak. Hikoyani illyustratsiyalar, fotosuratlar yoki video taqdimotlar bilan birga olib borish yaxshi – bu bolalarga uning ma'nosini tushunishga xizmat qiladi.

**Badiiy tabiatshunoslik adabiyotidan foydalanish** bolalarga atrofidagi olamni chuqurroq anglash, ko'plab savollariga javob topishga yordam beradi. Tabiat haqidagi har bir kitobda insonda tabiatni asrab-avaylashga mas'uliyat hissini uyg'otish, tinglovchini tabiatni muhofaza va himoya qilishga, uni o'rganishga chaqirish g'oyasi mavjud.

Tabiat haqidagi badiiy adabiyot olalarning his-tuyg'ulariga chuqur ta'sir qiladi. Uning mazmuni bilan tanishish asnosida bolalar voqealar rivojini boshdan kechiradilar, xayolan o'sha vaziyatda harakatlanadilar. Bu axloqiy tushunchalarni: tabiatga muhabbat va hurmatni tarbiyalashga yordam beradi. Barcha yosh guruhlari uchun kitoblardan foydalanish uslubiga qo'yiladigan umumiy talab – mutolaani tabiatni bevosita kuzatish bilan uyg'unlashtirish. Badiiy asarlarni o'qib bo'lgach, bir yoki bir nechta o'qilgan kitoblar haqida suhbat tashkil etiladi.

**Suhbat – bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi usul sifatida – pedagoglar tomonidan turli didaktik maqsadlarda qo'llaniladi:**

<sup>19</sup> Qarang. "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 7-ilovala, "6-7 yoshli bolalar bilan ertalabki sayrning namunaviy rejasi"

- bo'lajak faoliyatga (kuzatish, ekskursiyadan oldin) qiziqishni rivojlantirish;
- bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini aniqlashtirish, chuqurlashtirish, umumlashtirish va tizimlashtirish, tabiatga bo'lgan munosabatni shakllantirish.

Har bir suhbatda bolalar nutqini rivojlantirish vazifasi ma'lum darajada o'z yechimini topadi.

#### **Tabiat haqidagi suhbatlar odatda quyidagi turlarga bo'linadi:**

- o'rnatiluvchi
- evristik
- yakuniy.

**O'rnatiluvchi suhbat** pedagogga bolalarning diqqatini tortishga, bo'lajak faoliyatga qiziqish uyg'otishga, ilgari olingan bilimlar va bo'lajak ekskursiya, kuzatiuv o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish uchun mavjud tajribani faollashtirishga yordam beradi.

**Evristik suhbat** tafakkur qilish orqali turli xil tabiat hodisalarining sabablarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunday suhbat bolalarning kuzatish jarayonida olgan bilimlari asosiga quriladi. U tabiatda mavjud bo'lgan munosabatlar to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, bolalar tomonidan yangi bilimlarni beruvchi vazifalarni mustaqil ravishda hal qilishga qaratilgan.

**Yakuniy suhbat** bolalarning kuzatish, o'yinlar, badiiy asarlar mutolaasi, mehnat qilish jarayonida olgan tabiat haqidagi bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish uchun qo'llaniladi. U bolalarning tabiat haqidagi tushunchalari ma'lum darajada to'plangach va faqat bu tushunchalar barcha bolalar tomonidan o'zlashtirilishi sharti bilan o'tkaziladi.

**MTTda ekologik ta'lim va tarbiya berish bo'yicha loyihaviy usul** – optimal, innovatsion va ishtiqlik usul sifatida tan olingan loyiha usuli.

MTTning ta'lim-tarbiya jarayonida loyihaviy faoliyat hamkorlik xarakteriga ega bo'lib, unda MTTning tarbiyalanuvchilari va pedagoglari, shuningdek, ota-onalar va boshqa oila a'zolari ishtirok etadilar.

Ekologiya sohasidagi loyihaviy faoliyat tabiat to'g'risidagi bilimlarni hosil qilishga, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik muammolarga qiziqishini va faol yaratuvchanlik faoliyatiga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishga, tabiatga nisbatan qadriyat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashga, ekologik bilimlarni amaliy qo'llash qaratilgan. Loyihaviy faoliyat yordamida bolalarning ekologik tushunchalari va bilimi kengayadi va boyiydi, tabiatdagi o'zaro munosabatlarni bilishga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, tabiat bilan muloqot qilishda his-tuyg'ular jo'sh uradi, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati bo'yicha ko'nikma va layoqati shakllanadi. Loyihaviy usul tufayli bolalar faoliyatining turli sohalari va turlarini (tadqiqot, mehnat, tasviriy, kommunikativ, o'yinli) birlashtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof olamning yaxlit manzarasi shakllanadi. Bolalarning guruh bilan va individual tarzda ishlashi ularga o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Umumiy loyiha maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziquvchanligini, kommunikativ, axloqiy va estetik fazilatlarini rivojlantiradi. MTTda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga tegishli bo'lgan birgalikdagi ekologik loyihalar maktabgacha yoshdagi bolalar, pedagoglar, shuningdek ota-onalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi (ilovada loyiha bosqichlarini aks ettiruvchi namunaviy loyiha chizmasi keltiriladi)<sup>20</sup>. Ekologik tarbiya va ta'limda loyihaviy faoliyat "MTT – oila" yagona ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

<sup>20</sup> Qarang. "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 8-ilova, "6-7 yoshli bolalar uchun "Suv" mavzusidagi loyihani amalga oshirishning namunaviy rejasi"

# X BOB. Ekologik yo'naltirilgan rivojlanish sohalari bo'yicha bolaning yutuqlari

---

Ta'lim-tarbiya faoliyati jarayonida pedagog kuzatuvlar yordamida, har bir yosh guruhida bola erishishi mumkin bo'lgan yutuqlar, kutilayotgan natija aks ettirilgan bolaning rivojlanish xaritasidan<sup>20</sup> foydalangan holda tarbiyalanuvchining rivojlanishini kuzatib boradi.

Dasturni o'zlashtirishdan kutiladigan ta'lim bo'yicha natija bolalarda asosiy kompetensiyalarni: kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Ekologik ta'lim va tarbiyada rivojlanish sohalari bo'yicha bolalardan kutilayotgan natija – bu bola shaxsining ekologik madaniyati, uning tarkibiy qismlari tabiat haqidagi bilimlar va ularning ekologik yo'naltirilganligi, ulardan real hayotda, xulq-atvorda, turli faoliyat shakllarida (o'yin o'ynaganda, mehnat qilishda, kundalik hayotda) foydalana olish qobiliyatidir.

Bolalardan kutilayotgan natijalar MTT direktorlari va pedagoglari uchun ta'lim-tarbiya jarayoni va MTT xodimlarining kasbiy faoliyatini tahlil qilishda tayanch nuqtasi vazifasini bajaradi. Pedagogik kuzatishlar asosida ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha ta'lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirish ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi.

---

<sup>20</sup>Grosheva I., Yevstafiyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M., maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashri, 7-ilova "Bolaning rivojlanish xaritasi", Toshkent-2021.

## 3-4 yoshdagi bolaga ekologik ta'lim va tarbiya berishdan kutilayotgan natija

### Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish

Taroq, dastro'mol yoki salfetkadan foydalanadi. Mahsulotlarning ta'mini ajratadi. Uch g'ildirakli velosipedda uchadi.

### Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

Ekologik ertak, hikoya, multfilm qahramonlari haqida qayg'uradi. O'z his-tuyg'ulari va kechinmalarini ifodalaydi ("menga yoqadi", "menga yoqmaydi"). Boshqalarga (hayvonlar, o'simliklar va hokazo) hamdardlik ko'rsatadi.

### Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari

Qisqa she'rni (tabiat, quyosh, hayvonlar, daraxtlar haqida) yoddan aytadi. Kattalar tomonidan boshlangan tanish ekologik ertak, hikoyani davom ettiradi yoki tugatadi; rasmlardan ertaklarning tanish qahramonlarini ko'rsatadi. Ekologik va tabiatshunoslik yo'nalishidagi didaktik o'yinlarni o'ynaydi. Ayrim hayvon, hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi.

### Bilish jarayonining rivojlanishi

Atrof olamga, jonli obyektlarga qiziqish bildiradi, ularni kuzatadi. Tabiatdagi alohida o'zgarishlarni (qor, yomg'ir, do'l, jazirama, shamol va boshqalar) ajratadi. Buyumlar yasalgan materiallarni (qog'oz, yog'och, metall) farqlaydi; silliq va dag'al yuzani ajrata oladi. "Ertalab", "kechqurun", "kun", "tun" so'zlarining ma'nosini tushunadi. Kattalar bilan birga tajribalarda ishtirok etadi (eritish, bo'yash, cho'kadi- cho'kmaydi va boshqalar).

### Ijodiy rivojlanish

Tabiiy obyektlar rangidagi go'zallikni his etadi. 2-3 ta obyektidan iborat suratlar chizadi. Tasvirlangan obyektlarga mos ranglarni tanlaydi va ularni bo'yaydi. Suv va qum bilan o'ynaydi; qumdan turli shakl va piramidalar quradi.

## Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha 4-5 yoshdagi boladan kutilayotgan natijalar

### Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish

Ayrim jismoniy jarayonlarning ahamiyati; nima uchun ovqatlanish, nafas olish kerakligi haqida biladi. Vitaminlarning foydasi va sog'lom ovqatlanish to'g'risida bilimga ega. Ovqatlanishdan oldin qo'llarini yuvadi. Xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan joylar, narsalar va moddalarni ayta oladi (issiq suv, olov, o'tkir asboblar).

### Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

Bola o'z harakatlarini baholay oladi ("buni men qildim"). O'yinda boshqalar bilan o'zaro aloqaga kirishadi, o'ziga ijtimoiy vazifani oladi. Kattalarning iltimosi (vazifasi)ni bajaradi.

### **Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari**

Bola boshlagan hikoyani davom ettira oladi (tabiat, hayvon, o'simlik va boshqalar haqida). U yoki bu voqealar muhokama qilinayotganda o'z fikrini bildiradi va savollar beradi. Ot, sifat va fe'llardan foydalanib sodda gap tuzadi (olma bog'da o'sadi, derazada mushuk o'tiribdi). Ekologik didaktik va o'g'zaki o'yinlarni o'ynaydi. Yoshiga mos tabiat haqidagi she'rni yoddan biladi.

### **Bilish jarayonining rivojlanishi**

Bola o'zini o'rab turgan olamga faol qiziqish bildiradi. Fasllarning xususiyatlarini tavsiflaydi; fasllarga xos tabiat hodisalari nomini aytadi. Kunning turli qismlarini (ertalab, kunduzi, kechqurun, tun) biladi va nutqida to'g'ri qo'llaydi. Tirik mavjudotlarning asosiy ehtiyojlarini (hayvonlar: ovqatlanadi, nafas oladi, harakatlanadi va hokazo) tavsiflaydi hamda taqqoslaydi. Suv, havoning hayot uchun ahamiyatini ta'riflaydi. Kattalar bilan tajribalarda qatnashadi (eritish, muzlatish, magnitlash, rang berish, isitish, qaynatish va boshqalar).

### **Ijodiy rivojlanish**

Sutarlarni batafsil detallari bilan chizadi, obyektlarning shaklini aniq ko'rsatadi; syujetli rasmlar (tabiat) chiza oladi. Shakllarni turli xil texnikalar yordamida bo'yaydi. Loy, xamir yoki plastilindan narsa-buyumlar yasaydi. Har xil yuza va tuzilishlarni farqlaydi. Kattalar yordamida ekologik teatrlarni sahnalashtirishda qatnashadi.

## **Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha 4-5 yoshdagi boladan kutilayotgan natijalar**

### **Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish**

Salomatlikka bee'tibor bo'lmaslikning muhimligini idrok etadi. Vitaminlarning ovqatlanishdagi ahamiyati va o'rnini biladi. Suv ichishning ahamiyatini tushunadi va suv ichish tartibini mustaqil ravishda bajaradi. Xavfsiz xatti-harakatlarning asosiy qoidalarini (tabiatda va favqulodda vaziyatlarda) biladi hamda ularga rioya qiladi. Zarurat tug'ilganda yordam so'rab kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi. Xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlarning nomini aytadi: xavfli joylarda o'ynash (notanish suv havzalari, daryo, ko'lda cho'milish).

### **Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**

O'ziga yuklangan vazifalarni qabul qiladi va ularga rioya qiladi. Yomon yoki yaxshi ishiga baho beradi. U qo'rquv va xavf nima ekanligini tushunadi. U ekologik yo'nalishdagi asarlarni zavq bilan tinglaydi va ularga hissiy munosabatda bo'ladi. "Fan va tabiat" markazida, hovlida tashkil etiladigan mehnat faoliyatida qatnashadi. Ijtimoiy xulq-atvor qoidalari va me'yorlariga (mumkin, mumkin emas, yaxshi, yomon, zarur) bo'ysunadi.

### **Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari**

Tabiatda kuzatilayotgan voqea va hodisalarni tushuntiradi. Umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri ishlatadi (mevalar, sabzavotlar, daraxtlar, qushlar). Grammatik jihatdan sodda va murakkab gaplar; ijodiy hikoya tuzadi. Tabiat haqidagi she'rlarni yod oladi, o'qiydi. Sevimli adabiy asarlar, tabiat, hayvonlar, o'simliklar va boshqalar haqidagi ertak hamda hikoyalarning nomlari, mualliflarini biladi.



### **Bilish jarayonining rivojlanishi**

Jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi. Hayvonlarning turli yashash joylarining nomini aytadi (baliqlar suvda, bo'ri o'rmonda yashaydi). Geografik tushunchalarni (yer, dengiz, daryolar, tog'lar) biladi. Eng oddiy sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi (yomg'ir yog'yapti – yashirinish kerak). Tabiat hodisalarining turli omillarga bog'liqligini tushunadi. Tabiatdagi o'zgarishlarning sababini tushuntira oladi (masalan, qor erishi). Odamlarning atrof olamga ta'sirini tushunadi. Tabiatning insonlar hayotidagi ahamiyatini anglaydi.

### **Ijodiy rivojlanish**

Rasmga qarab tabiiy materialdan qo'l mehnati namunalarini yasaydi, ish bosqichlarini rejalashtirishni biladi. Mustaqil ravishda modellashtiradi va loyihalashtiradi; qog'oz va tabiiy materiallardan applikativ-hajmli bezaklarni yaratadi (siluetlar, otkritkalar, xatcho'plar). Ekologik teatr spektaklida mustaqil rol o'ynay oladi. Shaxsiy ekologik loyihalarini yaratish bo'yicha o'z g'oyalarini bayon qiladi.

## **Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha 6-7 yoshdagi boladan kutilayotgan natijalar**

### **Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish**

Qo'l, barmoqlar bilan taqlid qilinayotgan narsalarni (gul, qush, kapalak, qal'a) ko'rsatadi. Tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik qiladi. Sog'liq uchun zarar keltiradigan xatti-harakatlarni (chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, olov bilan o'ynash va hokazo) tushunadi va ajrata oladi. Tabiatda o'zni tutish qoidalariga amal qiladi. Xavfli vaziyatda qanday harakat qilish kerakligini biladi va tushuntiradi. Favqulodda vaziyatlarda o'zini qanday tutish lozimligini tushuntiradi.

### **Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**

Turli ijtimoiy vaziyatlarga hissiy munosabat bildiradi. Qiyin vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini izlaydi. Boshqalarning xatti-harakatlaridan olgan taassurotlarini ifoda qiladi.

### **Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari**

Shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, rasm asosida mustaqil ravishda tavsiflovchi hikoya tuzadi. Ekologiya va tabiatshunoslik yo'nalishidagi unga tanish asarlarni mustaqil ravishda aytib beradi. Adabiy asarlarni ifodali hikoya qilib beradi. Topishmoqlarni topadi, qofiyalar tuzadi. She'r va qofiyalarni aytib bera oladi. Fasllarning nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish). Boshqa bolalarga kitobning mazmuni haqida yoddan aytib beradi.

### **Bilish jarayonining rivojlanishi**

Atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlaydi. Tabiatda, hovlida, "Fan va tabiat" markazida, ekinzor va hokazolarda o'tkazgan kuzatishlari asosida umumlashtirib, xulosalar chiqaradi. O'z qiziqishi va kuzatishlariga oid savollar beradi. Fasl va hodisalarni ketma-ket nomlaydi. Buyumlarni tashqi va ichki belgilariga ko'ra (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakat tezligi, vazifasi bo'yicha) tasniflaydi. Suyuq, sochiluvchi va qattiq jismlarni shartli o'lchov yordamida o'lchaydi. Bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi (ekologiya bo'yicha kerakli ma'lumotlarni topadi).

Dunyoni o'zgartirishda insonning ijodiy o'rnini tushunadi. Narsalarni qayta ishlatish bo'yicha o'z g'oyalarini taklif qiladi.



Atrof-muhitni yaxshilashda o'z ishtirokining muhimligini tushunadi (masalan, chiqindilarni yig'ish, ularni saralash, daraxt va gullar ekish, yorug'lik, suv va qog'ozni tejash).

### **Ijodiy rivojlanish**

Rasm asosida tabiiy materialdan qo'l ishi namunalarini yasashni, ish bosqichlarini rejalashtirishni biladi. Mustaqil ravishda modellashtiradi va loyihalashtiradi; qog'oz va tabiiy materiallardan applikativ-hajmli bezaklarni yaratadi (siluetlar, otkritkalar, xatcho'plar). Ekologik teatr spektaklida mustaqil rol o'ynay oladi. Shaxsiy ekologik loyihalarini yaratish bo'yicha o'z g'oyalarini bayon qiladi. Guldastalar yasaydi.

# Bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda oilalar va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik

## 11.1. Oilalar bilan hamkorlik

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalash bo'yicha oilalar bilan hamkorlik MTT ishining tarkibiy qismlaridan biridir.

Ota-onalarni birgalikdagi ishlarga jalb qilish orqali MTT ota-onalarning ekologik ta'lim va tarbiya masalalarida kompetentligini oshiradi, shuningdek, oilaning katta yoshli a'zolari xatti-harakatlari – bola uchun namuna ekanligini eslatadi. Ushbu yo'nalishda o'zaro ishonch va yordam muhitini yaratish tavsiya etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalash tizimidagi muhim jihat ota-onalarning ekologik xabardorlik darajasini oshirish hisoblanadi<sup>22</sup>.

### **Bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarga ko'ra, tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllaridan<sup>23</sup> foydalanish mumkin:**

1. Axborot (masalan, og'zaki ekologik jurnallar; reklama bukletlari, varaqalar; mahalla aholisi uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi va tarbiyasi bo'yicha ma'lumotnoma-axborot xizmati; OAVda chiqishlar; ma'lumot savatchasi, qutilari; ota-onalar uchun eslatma va ma'lumot xatlari; ekologik xavfsizlik va sog'lom turmush tarzi bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot).

2. Tashkiliy (ekologik ta'lim va tarbiya mavzulari bo'yicha ota-onalar yig'ilishlari, so'rovnolar, ota-onalarning jamoat ekologik tashkilotlari, konferensiyalar; brifinglar tashkil etish).


3. Tarbiyaviy (ota-onalar uchun mehmonxonalar; eko-maktablar; maslahat berishlar; mavzuviy uchrashuvlar; tabiatga oid adabiyotlarning mavzuviy ko'rgazmalari; treninglar; seminarlar; suhbatlar; muhokamalar; davra suhbatlarini tashkil etish).

4. Tashkiliy, faoliyat yuritishga asoslangan (bola – ota-ona hamkorligidagi ekologik loyihalar; bolalar va ularning ota-onalari tomonidan yaratilgan ishlar ko'rgazmalari; qo'shma ko'rgazmalar; mahorat darslarida qatnashish (shuningdek, ularni mustaqil ravishda olib borish); bolalar, ota-ona va pedagoglarning birgalikdagi ijodi; bolalarning ijodiy faoliyati uchun tabiiy va tashlandiq materiallarni yig'ishda yordam berish; MTT hududini obodonlashtirishda ishtirok etish; ota-onalar uchun elektron ekologik jurnallar tayyorlashda ko'maklashish, bolalar bilan birgalikda "Daraxt ek", "Toza shahar" ekologik aksiyalarda qatnashish, ekologiya bo'yicha bukletlar, MTTdagi bolalarning ekologik faoliyati haqida taqdimot va videoroliklarni tayyorlash va chiqarishda o'zaro aloqa).

5. Ota-onalarning pedagogik jarayondagi ishtiroki (ota-onalar ishtirokidagi ta'limiy faoliyat; ota-onalar ishtirokidagi teatrlashtirilgan tomoshalar; bolalarga sayr, ekskursiya va safarlarda hamrohlik qilish; "Ochiq eshiklar kuni", "Salomatlik" kunlarida ishtirok etish).

<sup>22</sup> Qarang. "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 9-ilova, "Oilada ekologik xabardorlik darajasini oshirishning namunaviy yo'nalishlari"

<sup>23</sup> "Oila va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" uslubiy qo'llanma. Mualliflar: Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Nazarova V.A., Mikaylova U.T., Abdunazarova N.F., Zakirov A.A., Isxakova M.R., Umirzakova N.R.



Bolalarning oilalari bilan ekologik ta'lim va tarbiya sohasidagi hamkorlik, birgalikda tashkil etilgan tadbirlar pedagogik jarayonning birligi va uzluksizligini ta'minlashga, unga bola uchun zarur bo'lgan alohida ijobiy hissiy ta'sirni kiritishga yordam beradi.

## 11.2. Ijtimoiy hamkorlik

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyati asoslarini shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada muvaffaqiyatli tashkil etish uchun nafaqat ota-onalar, balki ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik qilish tavsiya etiladi.

MTTning boshqa muassasa va tashkilotlar bilan hamkorligi ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishda ta'limning uzluksizligi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik ta'lim-tarbiya jarayonini yanada sifatliroq amalga oshirish uchun qo'shimcha resurslarni jalb qilish, fanni rivojlantiruvchi muhitni boyitish imkonini beradi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonini yanada qiziqarli, zo'rma-zo'rakilikdan xoli va sifatli bo'lishiga olib keladi<sup>24</sup>.

---

<sup>24</sup>Qarang. "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" Dasturiga 10-ilova, "Ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlikning namunaviy yo'nalishlari"

## Dasturni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

---

**Puxta o'ylangan tashkiliy-pedagogik faoliyatni tashkil etgan holda MTTda bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish Dasturining amalga oshirilishi bolalar va kattalarning ekologik madaniyati tamoyillarini shakllantirish bo'yicha samarali ishlarni yo'lga qo'yish va kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi:**

- MTT hududida va guruhlarda ekologik xavfsiz qulay rivojlantiruvchi muhitni yaratish;
- MTT pedagoglarining ekologik madaniyat asoslari bo'yicha kompetensiya darajasini oshirish;
- faoliyatning turli ko'rinishlari (o'yinlar, tajribalar, kuzatishlar, loyihalar va bayramlar) orqali ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha bolalar bilan ishlash sifatini tizimlashtirish va yuksaltirish;
- tarbiyalanuvchilarning ota-onalari va mahalliy hamjamiyat o'rtasida ekologik xabardorlik darajasini oshirish;
- tarbiyalanuvchilarning ota-onalari, mahalliy hamjamiyat, ijtimoiy sheriklarni maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalash bo'yicha hamkorlikdagi ta'lim-tarbiya ishlariga jalb etish va turli ekologik tadbirlarni o'tkazish.

## Lug‘at:

**arteziyan qudug‘i** – bu arteziyan suvlarini (suvga chidamli qatlamlar orasida qolgan va gidravlik bosim ostida bo‘lgan yer osti suvi) ekspluatatsiya qilish uchun burg‘ilangan burg‘i qudug‘i;

**bixeviorizm (inglizcha behaviour – xulq-atvor)** – inson va hayvonlarning xulq-atvorini o‘rganishga tizimli yondashuv;

**integratsiya** – ta‘lim jarayonining yaxlitligini ta‘minlaydigan, maktabgacha ta‘lim mazmunining alohida ta‘lim sohalarini o‘zaro bog‘liqligi, bir-biriga kirishib ketishi va o‘zaro ta‘sirini ko‘rsatuvchi holat (yoki bunday holatga olib keladigan jarayon);

**retsiproklik (lot. reciprocus - qaytuvchi, o‘zaro)** - o‘zaro shartlilik, bir-birini to‘ldirish, o‘zaro bajarish, J. Piaje nazariyasida – fikrning ikki-tomonlama munosabati, bolaning o‘z nuqtai nazarini boshqaning nuqtai nazari bilan bog‘lash qobiliyati;

**ekologiya** – tirik organizmlarning atrof-muhit va bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi fan. Yunon tilidan tarjima qilinganda “ekologiya” – bu uy, turar joy haqidagi fan (“oikos” - uy, “logos” - fan);

**ekologik aksiya** – muayyan maqsadga erishish, birinchi navbatda, bolalar va kattalarda ekologik madaniyat, ekologik ongni, ekologik dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligi;

**ekologik tarbiya** – bu shaxs tomonidan nafaqat ekologik bilimlarni, balki alohida ekologik axloqni o‘zlashtirish va ularning hayotiy pozitsiyaga o‘tishi, shu bilan bog‘liq holda u intellektual va ma‘naviy jihatlarni o‘z ichiga oladi;

**ekologik marafon** – bu mavzuga mos keladigan va ma‘lum bir ekologik sana yoki hodisaga uyg‘unlashtirilgan tadbirlar majmuasi. Tadbirlar bir necha kun yoki bir necha hafta davom etishi mumkin.

**maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta‘limi** – bu bolani tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirishning uzluksiz jarayoni bo‘lib, u tabiatga, atrof olamga ijobiy hissiy munosabatda, o‘z salomatligiga hamda atrof-muhit holatiga mas‘uliyat bilan yondashishda namoyon bo‘ladi, bolaning ekologik madaniyatini shakllantirishga qaratiladi va ma‘lum axloqiy me‘yorlar hamda qadriyatlarga tayaniladi. Ekologik tarbiya natijasida bolalarda ekologik tafakkur, ekologik ong shakllanadi, ekologik madaniyat asoslari hosil bo‘ladi;

**ekologik omillar (atrof-muhit omillari)** – bu harorat, suv va yorug‘lik bilan ta‘minlanganlik, suvning sho‘rligi kabi sharoitlar hamda va ikkinchidan, organizm o‘z mavjudligini saqlab qolish uchun iste‘mol qiladigan yoki foydalanadigan hamma narsa, masalan, oziq-ovqat resurslar. MTTda ekologik omillar ko‘pincha o‘simliklarni o‘stirish va kuzatish jarayonida, jonli burchaklarda o‘rganiladi;

**ekologik madaniyat** – bu bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va tabiatga muhabbat tuyg‘usining butun tizimi. Ekologik madaniyatli shaxs ekologik tafakkurga ega bo‘lishi, ya‘ni ekologik muammolarni to‘g‘ri tahlil qilish va sabab-oqibat munosabatlarini topish hamda inson faoliyatining ekologik oqibatlarini bashorat qila olishi kerak. Ekologik madaniyatni shakllantirishga ekologik ta‘lim va tarbiya zamin yaratadi;

**ekologik obyektlar** – bolaning sensor rivojlanishiga katta imkoniyatlar beradigan, tizimli kuzatishlar, ekologik bayramlar, o‘yinlar o‘tkazish imkonini yaratadigan, bolaning hissiy rivojlanishi, xususan, tabiatga yaqinlik va tirik organizmlarga qayg‘urish hissini shakllantirishda xizmat qiladigan obyektlar.







ILOVA

## 1-ILOVA

# MTT uchun tavsiya etiladigan va etilmaydigan xonaki o'simliklarning namunaviy katalogi

MTT guruhlaridagi xonaki o'simliklar – havoni tozalovchi yaxshi vosita. Ularga qo'yiladigan asosiy talab – xavfsizlik. Ushbu ilovada MTT uchun tavsiya etiladigan va etilmaydigan (sog'liq uchun xavfli) xonaki o'simliklar ro'yxati keltirilgan. O'simliklar ichida "injiq" bo'lmaganlarini, bolalar parvarishlashda qiyinchiliklarga duch kelmaydiganlarini tanlash maqsadga muvofiq. Ko'pyillik o'simliklar bilan tanishtirishni kichik maktabgacha yoshdan boshlash tavsiya etiladi. Asosiy vazifa – bolalarda o'simlik va gullar dunyosini bilishga qiziqishni rivojlantirish, buning uchun har bir guruhdagi fan va tabiat markazlarida xonaki o'simliklarning turli namunalarini joylashtirish mumkin. Bolalar har kuni o'simliklarni kuzatishlari, ularni parvarish qilishlari, shuningdek ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganishlari mumkin. O'simliklarni gullar uchun mo'ljallangan maxsus tuvaklarda o'stirish tavsiya etiladi.

## 3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o‘simliklar



O‘simlik nomi	Tavsifi	Yorug‘lik	Harorat	Sug‘orish	Tuproq
 <p><b>Begoniya</b></p>	Har doim gullaydigan begoniya (yuqori nafas yo‘llari kasalliklariga qarshi kurashadi). Begoniyaning vatani Janubiy Amerika, Osiyo va Afrikaning nam tropik o‘rmonlari	Begoniyalar bahor va yozda to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlaridan xoli bo‘lgan yorqin nurga ehtiyoj sezadi	Optimal harorat 15 ° C. Xona yaxshi shamollatiladigan va yelvizaksiz bo‘lishi kerak	Sug‘orish uchun yumshoq suvdan foydalanib, o‘rta miqdorda, lekin muntazam ravishda amalga oshirilishi lozim. Suv barglarga tushmasligi kerak. Suv purkash tavsiya etilmaydi, chunki barglarda oq dog‘lar qoladi	Drenaj uchun keramzit olish mumkin
 <p><b>Balzamin</b></p>	Balzamin Zanzibar orolidan, shuningdek, Afrika va Markaziy Osiyoning subtropik mintaqalaridan kelib chiqqan	Balzamin muqobil yo‘rug‘likni xush ko‘radi, lekin quyosh nurlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishini yoqtirmaydi	Issiq paytda o‘simlik 25 ° C haroratda yaxshi saqlanadi. Sovuq havoda haroratning 10-15 ° C dan pastlashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak	Balzamin juda ko‘p sug‘orishni talab qiladi. Bahor-yoz mavsumida bu xonaki o‘simlikni har kuni sug‘orish, tuprog‘i qurib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak	O‘rtacha yoki kuchsiz kislotali tuproq to‘g‘ri keladi. Vaqti-vaqti bilan idizlar «nafas olishi» uchun idishdagi tuproqni bir santimetr chuqurlikda yumshatib turish kerak
 <p><b>Aspidistra</b></p>	Aspidistra – o‘simlik dunyosining ko‘p yillik vakili bo‘lib, poyasiz o‘t o‘simliklariga kiradi	O‘simlik havoni mukammal darajada tozalaydi, shifobaxsh xususiyatlarga ega O‘simlikni guruhning istalgan burchagiga qo‘yish mumkin va u o‘zini ajoyib his qiladi. Lekin uni quyosh nuri to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushadigan joyga qo‘yish mumkin emas	O‘simlik xona haroratiga tezda moslashadi. Bu harorat qishda + 20 ... 22° C ni tashkil etishi, qishda esa +15 ° C dan past bo‘lmasligi kerak. Barglarning sirtini nam mato bilan artib turish tavsiya etiladi	Bahor-yoz mavsumida haftada bir marta, qishda har ikki haftada bir marta sug‘oriladi. Uzoq vaqt tindirilgan, xona haroratidagi suv ishlatiladi	Qum, chirindi, bargli, serajriq tuproqdan iborat aralash yer mos keladi (nisbat 2: 1: 1: 1). Tuvak tubiga keramzitli drenaj solish kerak. Muntazam mineral qo‘shimchalarga ehtiyoj sezadi
 <p><b>Tradescansiya</b></p>	Xonaki Tradescansiya ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. Tradescansiyaning ona zamini Amerikaning tropik va mo‘tadil qismida bo‘lib, Shimoliy Argentinadan Kanadaning janubigacha cho‘zilgan	O‘simlik o‘tqazilgan tuvakni yorug‘ joyga qo‘yish mumkin, ammo tushki o‘tkir nurlardan ehtiyoj bo‘lish zarur	Muqobil xona harorati – + 18 dan + 30 ° C gacha. Ammo bu o‘simlik + 40 ° C gacha va undan ham yuqori issiqlikka ham chidamli	Yaproqlardan changni olib tashlash uchun o‘simlikni dushda yuvish kerak. Sug‘orish uchun xona haroratidagi filtrlangan yoki tindirilgan suvdan foydalaniladi. Sug‘orishdan so‘ng, gultuvak tagligidagi ortiqcha suv olib tashlanadi	Organik moddalarni o‘z ichiga olgan har qanday yaxshi quritilgan tuproq (barg yoki ajriqli tuproq, chirindi yoki bog‘ tuproqlari) to‘g‘ri keladi. Tuproq o‘simlikning idizlariga namlik va havoni o‘tkazishi kerak



## 3-4 yoshli bolalar bilan “Fan va tabiat” markazida o‘simliklarni parvarishlash hamda mehnat tarbiyasi

<b>Vazifalar</b>	
1	Xonaki o‘simliklar va ularning nomlari bilan tanishtirish.
2	Bolalarda o‘simlik qismlarini (barg, band, gul) aniqlash malakasini shakllantirish.
3	O‘simliklarni ularning individual tashqi belgilariga (gullari: ularning soni, rangi, hidi; barglari: kattaligi, tusi) ko‘ra ajratish malakasini shakllantirish
4	Sug‘orishga mo‘ljallangan idishni to‘g‘ri ushlab ko‘nikmasini hosil qilish.
<b>Mehnat topshiriqlari (pedagog kuzatuv ostida)</b>	
1	O‘simliklarni sug‘orish;
2	Katta barglarni mato bilan artish.
<b>O‘simliklarni kuzatish</b>	
Kuzatish jarayonida bolalar tekshirish usullarini o‘rganadilar: ushlab ko‘rish, barmoq bilan silash, o‘simlikka yorug‘likda, soyada, lupa orqali qarash, taxminiy o‘lchamini ko‘rsatish. Kuzatish qisqa muddatli, o‘yin ko‘rinishidagi jarayon bo‘lib, ijobiy his-tuyg‘ularni rivojlantirishga qaratilgan.	




## 4–5 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o‘simliklar




O‘simlik nomi	Tavsifi	Yorug‘lik	Harorat	Sug‘orish	Tuproq
 <p><b>Gibiskus</b></p>	Gibiskus yoki xitoy atirguli. Xalq orasida gibiskusning ezilgan gullari qon ketishini to‘xtatish uchun qon ketayotgan yaralarga qo‘yiladi	O‘simlik g‘arbyoki sharqqa qaragan derazalarda o‘zini qulay his etadi. Issiq tushda o‘simlikni parda yoki jalyuzi yordamida soya qilish kerak	Bahorda harorat 20-25 ° C orasida bo‘lishi zarur. Biroz iliq suv bilan purkagish orqali purkash mumkin, shunda havo namligi ortadi	Sug‘orish mavsumni hisobga olgan holda muntazam va mo‘l-ko‘l bo‘lishi kerak. Tindirilgan yumshoq suv bilan sug‘oriladi	Torf va qum iborat unumdor tuproq talab etiladi (2: 4: 1 nisbatda). Tuproq mo‘tadil kislotali va namlikni o‘tkazuvchan bo‘lishi kerak
 <p><b>Uzambar fialkasi</b></p>	Uzambar fialkasi – keng tarqalgan xonaki o‘simlik. Binafshadoshlar oilasiga mansub. Vatani – Sharqiy Afrika	Bu gullar g‘arb va sharqqa qaragan derazalarda yaxshi o‘sadi. Shimol tomonda ham o‘stirilishi mumkin. Quyosh nurlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishi qat‘iyan man etiladi. Sovuq havo va yelvizalkarga chidamsiz	O‘stirish uchun maqbul harorat 18–22 °C ni tashkil etadi	Sug‘orishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Bu gul haddan ortiq suvni ham, o‘ta qurib ketishni ham ko‘tara olmaydi	Tuproq quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: ajriqli, bargli, ignabarglar, shuningdek: perlit, qum, vermikulit, torf
<b>Begoniya</b>	Qarang. “3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o‘simliklar”				
<b>Balzamin</b>	Qarang. “3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o‘simliklar”				
<b>Tradetskansiya</b>	Qarang. “3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o‘simliklar”				
<b>Aspidistra</b>	Qarang. “3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o‘simliklar”				




# 4–5 yoshli bolalar bilan “Fan va tabiat” markazida o‘simliklarni parvarishlash hamda mehnat tarbiyasi

Vazifalar	
1	Bolalarda tabiatga qiziqish va mehmi uyg‘otishda davom etish.
2	Bolalarni o‘simliklarni parvarish qilishga o‘rgatish.
3	O‘simliklarni yanada aniqroq tasvirlash (barglarining shakli)ni, ularni individual tashqi belgilariga ko‘ra ajratish (shakli, kattaligi, barg va gullari rangidagi tafovut hamda o‘xshashliklar) malakasini shakllantirish.
4	Tuproq‘iga qarab, sug‘orilgan va sug‘orilmagan o‘simliklarni farqlash malakasini shakllantirish.
5	Quyidagi qoidalar bilan bilan tanishtirish: o‘simliklarni sug‘orib bo‘lgach, sug‘orishga mo‘ljallangan idishga suv solish va ertangi kunga tindirib qo‘yish kerak.
6	Butun yil davomida o‘simliklar hayoti bilan tanishtirish.
Mehnat vazifalari	
1	O‘simliklarni sug‘orish;
2	Yirik barglarni manlangan mato bilan artish;
3	Bolalarga matoni o‘zlari namlash va siqishni o‘rgatish;
4	O‘simliklarni birgalikda yuvish.
Fan va tabiat markazida o‘simliklarni kuzatish	
<p>Xonaki o‘simliklarini qiyosiy kuzatish natijasida bolalar pedagog yordamida barglarning xususiyatlarini farqlashni va ularni yuvish usullarini o‘rganadilar: terili, katta barglarni mato yoki shimgich (gubka) bilan yuvish kerak; osilgan va baxmal barglarni – yumshoq cho‘tka yoki kistochna bilan; kichik, nozik barglarni – purkash yetarli.</p> <p><b>Bolalar quyidagi oddiy qoidalarni o‘zlashtiradilar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• suv sovuq bo‘lmasligi kerak (suvni tindirish lozim);</li> <li>• haddan tashqari ko‘p sug‘orish o‘simliklar uchun zararli.</li> </ul> <p>Bolalar tuproqning rangi, tuproqdagi yoriqlarga qarab sug‘orish zarur yoki yo‘qligini belgilaydilar.</p> <p>Bolalarda o‘simlikning holatini tashqi ko‘rinishiga ko‘ra aniqlash qobiliyatini rivojlantirish muhim: yaxshi parvarishlangan, sog‘lom o‘simlik yaxshi ko‘rinishga ega bo‘ladi, gullaydi (agar u gullaydiganlar guruhiga kirsam), barglari yaxshi rivojlangan, to‘kilayotgan, shikastlangan va quruqlari yo‘q, yaxshi rivojlanayotgan yosh barglari bor, zararkunandalar ko‘rinmaydi, tuvakdagi tuproq yumshoq. Parvarishlanmagan, kasal yoki qari o‘simlik, jozibali ko‘rinmaydi, barglari shikastlangan, rangi nomotadil bo‘ladi (sariq, rangpar va bo‘yalgan naqshlari esa yorqin emas), ular gullamaydi, tuprog‘i zich. Bolalar pedagogning yordami bilan o‘simlikdagi muammoning ehtimoliy sabablarini, shuningdek ularni yo‘q qilish usullarini belgilaydilar. Bolalar, bundan tashqari, bir xil guruhdagi o‘simliklarni qiyosiy kuzatishga qiziqishadi: har xil turdagi xonaki geran (zonal, katta gulli, xushbo‘y). Begoniya (har doim gullaydigan, tugunakli), balzamin, binafshaning turli navlari.</p>	

## 5–7 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o‘simliklar

O‘simlik nomi	Tavsifi	Yorug‘lik	Harorat	Sug‘orish	Tuproq
 <p><b>Begoniya-Reks</b></p>	Begoniya-Reks begoniyadoshlar oilasiga mansub, manzarali o‘simlik sifatida o‘stiriladigan o‘tsimon o‘simlik. Vatani – shimoli-sharqiy Hindiston	Xonadagi eng yaxshi joy – shimolga qaragan deraza. Shunday qilib, u kun davomida o‘sishi uchun yetarlicha yorug‘lik oladi va barglarini kuydirishi mumkin bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuridan panada bo‘ladi	Uning rivojlanishi uchun eng maqbul harorat 18-20 °C. Bu o‘simlik past haroratga sezgir bo‘lib, 12 °C dan past joyda ular qurishga va barglarini to‘kishga moyil bo‘ladi	Begoniya - Reks barglari suvli tuzilishga ega, shu sabab ular doimo substrat namligini saqlab turishlari kerak	Tuvakning yarmini torf bilan to‘ldirish, qolgan qismini teng miqdorda ajriqli tuproq, perlit, chirindi bilan qoplash zarur
 <p><b>Amarillis</b></p>	Amarillis – bu yovvoyi tabiatda, asosan, Afrikaning janubida o‘sadi. Amarillis shunchalik oddiyki, uni hatto havaskor gulchilar yetishtira oladi	Gullar janubi-sharqiy va janubi-g‘arbiy tomonga qaragan derazalarga joylashtirilishi va pardalar bilan quyosh nurining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishidan himoyalaniishi kerak	Xonadagi havo harorati kunduzi 17,5-24,5 °C oralig‘ida saqlanishi, lekin kechasi 18 °C dan pastlab ketmasligi kerak	O‘sayotgan piyozlarini sug‘orish uchun filtrlangan xona haroratidagi suv ishlatiladi	“Piyozli gullar uchun” tayyor aralashma ham mos keladi. Tuproq muhiti neytral, kislotaligi ortib ketmasligi lozim. Tuproq retsepti: chirindi (kompost), daryo qumi, bargli tuproq, ajriqli tuproq va torf (teng nisbatda)
 <p><b>Koleus</b></p>	Koleus – “Coleus Sponge” oilasiga mansub kichik o‘simlik. Madaniylashgan xilining vatani Afrika va Osiyoning tropik zonalar. Madaniylashgan navlari yorqin barglari bilan e‘tiborni tortadi	Gul yorug‘likni yaxshi ko‘radi, lekin ayni paytda uni quyosh nurlaridan himoyalash kerak, shunda barglari qurimaydi va yorqinligini yo‘qotmaydi. Koleus gullari sharqiy yoki g‘arbiy derazaga joylashtirilishi mumkin. Yo‘rug‘lik bir xilda taqsimlanishi uchun tuvakni har kuni aylantirib turish kerak	Koleus uchun maqbul havo harorati 16-25 °C. Sovuqda gul barglarini to‘kadi, issiqda esa quriydi	Bahordan kuzgacha haftasiga 2-3 marta mo‘l-ko‘l sug‘orish koleusni parvarish qilish talablaridan biridir. Qishda tuproqni namlantirish tartibi ikki baravar kamaytiriladi. Koleus parvarishi purkashni ham o‘z ichiga oladi. Issiqda o‘simlik ertalab va kechqurun purkagichdan sug‘oriladi. Tuvakning pastki qismi suvga tegmasligi kerak	Qum, torf, dem, bargli tuproq teng miqdorda aralashiriladi

O'simlik nomi	Tavsifi	Yorug'lik	Harorat	Sug'orish	Tuproq
 <p><b>Kliviya</b></p>	<p>Kliviya — ko'p yillik doimiy yashil o'tsimon o'simlik turi. Kliviya – balandligi taxminan 60 sm.ga yetadigan ko'p yillik, o'tsimon o'simlik. U qishda gullaydi</p>	<p>Kliviya uchun yorqin tarqoq yorug'lik mos keladi, o'simlik to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuridan saqlanishi kerak. G'arb va sharqqa qaragan derazalarga joylashtirilishi maqsadga muvofiq. O'simlik yozni ochiq havoda soyalangan joyda o'tkazishi mumkin</p>	<p>Bahor-yoz davrida kliviya uchun optimal harorat 20-25 ° C orasida, oktyabr oyidan boshlab harorat 12-14 ° C gacha pasaytiriladi, o'simlik kurtaklashni boshlaganida, harorat 18 -20 ° C ga ko'tariladi</p>	<p>O'simlik o'rtacha sug'orishni, yumshoq tindirilgan suvni talab qiladi. Sug'orishlar o'rtasida tuproq biroz qurishiga imkon berish kerak. Kurtaklari gul bog'langanda, ko'proq sug'oriladi va faqat iliq suvdan foydalaniladi</p>	<p>Kliviya uchun yengil va unumdor tuproq ishlatiladi. Tuproq tarkibiga alohida talablar yo'q. Gullaydigan o'simliklar uchun mos tushadigan har qanday tuproq aralashmasini yoki bargli va ajriqli tuproqni aralashtirib, qo'llash mumkin. Yumshatish uchun qum qo'shiladi</p>
 <p><b>Kalanxoe</b></p>	<p>Kalanxoe toshyorardoshlar oilasining vakili. Tabiatda bu o'simlikni Osiyo, Avstraliya va Amerikaning tropik mintaqalarida uchratish mumkin</p>	<p>Yorqin, ammo tarqoq yorug'likka muhtoj, kunning yorug' qismi taxminan 12 soat davom etishi lozim</p>	<p>Qish vaqtida 14–18 °C, yozda esa 18–28 °C harorat maqbul hisoblanadi. Gul joylashgan xonada harorat 10 ° C dan past bo'lmasligiga e'tibor berish kerak</p>	<p>Pastki sug'orish tavsiya etiladi. O'sish davrida u o'rtacha miqdorda bo'lishi va tuvakdagi substratning yuqori qatlami qurishi bilan amalga oshirilishi kerak</p>	<p>Tuproq aralashmasi sifatida quyidagilardan foydalaniladi: kaktus va sukkulentlarga mo'ljallangan tayyor tuproq, shuningdek xonaki o'simliklar uchun universal tuproq, qum, bog' tuproqlari to'g'ri keladi. Bular teng nisbatda qo'shiladi</p>
 <p><b>Krassula (Pul daraxti yoki semizgul)</b></p>	<p>Krassula (Pul daraxti yoki semizgul) – tarixiy vatani Afrika</p>	<p>Tuvak uchun janubiy, janubi-sharqiy yoki janubi-g'arbiy tomonga qaragan keng deraza tokchasi mos tushadi. Barglarining rangi yorug'lik miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.</p>	<p>Pul daraxti normal xona harorati, ya'ni 22-28 °C oralig'ida yaxshi o'sadi. Yozda uni balkonga, verandaga, boqqa olib chiqish mumkin. Kun davomida haroratning o'zgarishi gul uchun faqat foydalidir</p>	<p>Krassula tuproqdagi ortiqcha namlikka juda sezgir. Sug'orishni boshlashdan oldin tuvakda drenaj teshiklari borligiga ishonch hosil qilish kerak</p>	<p>Yerni tayyorlash uchun quyidagilarni teng nisbatda aralashtirish kerak: bargli va ajriqli tuproq tuvakdagi tuproqning umumiy massasini taxminan 40% ini tashkil etishi kerak. Qolgan 20% yirik daryo qumi yoki mayda silliq toshlar (shag'al) bilan to'ldiriladi.</p>






O'simlik nomi	Tavsifi	Yorug'lik	Harorat	Sug'orish	Tuproq
 <p><b>Nephrolepis (qirg'uloq)</b></p>	Nephrolepis – lomariopsislar oilasiga mansub qirg'uloqlar turkumiga oid gul. Nephrolepis Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Avstraliyaning tropik soylari o'rmonlarida "tug'ilgan"	Unga tushayotgan quyosh nurlari albatta tarqoq bo'lishi kerak. Tuvak g'arbiy, shimoliy yoki sharqiy tomonga qaragan deraza yoniga qo'yiladi. Bunday o'simlik uchun zarur bo'lgan kunning uzunligi 14 dan 16 soatgacha	O'sish davridagi harorat 20-24 °C, uyqu vaqtda taxminan 15 °C	Sug'orish davriyligi va miqdori xonadagi havo haroratiga bog'liq. Esda tutingki, sug'orish o'rtasida tuvakdagi tuproq aralashmasining yuzasi albatta qurib ketishi kerak	Havo va tuproq almashinuvini yaxshi ta'minlaydigan yengil, yumshoq tuproq afzal. Tuproq tarkibi uchun torf, bog' va ignabargli tuproqni teng nisbatdagi miqdori to'g'ri keladi
 <p><b>Xlorofitum</b></p>	Xlorofitum - o'tsimon ko'p yillik o'simlik, juda qisqa poyaga, shuningdek, tugunli ildiz tizimiga ega	Tarqoq, yorqin yorug'likka muhtoj. Patsimon bargli navlari yorqinroq yorug'likni xush ko'radi, yashil bargli shakllari qisman soyada o'stirilishi mumkin	Odatiy xona haroratida yaxshi o'sadi. Qishda xonadagi havo harorati 10 °C dan past bo'lmasligiga e'tibor berish kerak	Bahor-kuzda gulni muntazam va mo'l-ko'l sug'orish kerak. Qish oylarida sug'orishni kamaytirish lozim	Xlorofitum uchun substrat yumshoq va to'yimli bo'lishi kerak. Tuproq aralashmasining optimal tarkibi 1: 3: 1 nisbatda ajriqli, bargli tuproq va qumdan iborat bo'lishi kerak
 <p><b>Sansiveriya</b></p>	Sansiveriya yoki sansevyer - agavadoshlar (Agavaceae) oilasiga mansub doimiy yashil po'yasiz o'simliklar turkumi. O'simlikning boshqa nomlari - sanseviyera, sansiveriya, kakku dum, qaynona tili. Sanseviyeriya "injiq" bo'lmagan o'simliklardan biri	O'simlik yorug'liksevar, yorqin tarqoq yorug'likni xush ko'radi, yengil soyaga ham, quyuc soyaga ham bardoshli. Sharq yoki g'arbiy tomonga qaragan derazalarni o'stirish maqbul. Janubga qaragan derazada yozda faqat eng issiq soatlarda soyalatib o'stirish kerak bo'ladi	Sansiveriya (sansevyer) haroratga o'ta talabchan emas (issiq havoda ham, salqin joyda ham o'saveradi)	Sug'orish masalasida, bahordan kuzgacha mo'tadil – tuproq qurishga ulgurishi kerak. Qishda sug'orish cheklaniladi. Haddan ortiq sug'orish juda xavfli.	Sansevieria qum qo'shilgan yumshoq tuproqqa muhtoj. 1: 1: 2 nisbatda ajriqli tuproq, barg chirindisi va qum aralashmasi afzal. Shuningdek, chirindining 1 qismini, torfning 1 qismini, va daryo qumining 1 qismini aralashtirish mumkin.
<b>Begoniya</b>	Qarang. "3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o'simliklar"				
<b>Balzamin</b>	Qarang. "3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o'simliklar"				
<b>Tradescansiya</b>	Qarang. "3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o'simliklar"				
<b>Aspidistra</b>	Qarang. "3–4 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o'simliklar"				
<b>Gibiskus</b>	Qarang. "4–5 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o'simliklar"				
<b>Uzambar fialka</b>	Qarang. "4–5 yoshli bolalar uchun MTTda tavsiya etiladigan xonaki o'simliklar"				

## 5–7 yoshli bolalar bilan “Fan va tabiat” markazida o‘simliklarni parvarishlash hamda mehnat tarbiyasi








Vazifalar	
1	O‘simliklarning o‘shishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlar haqidagi tushunchalarni kengaytirish (turi o‘simliklarga turlicha parvarish)
2	O‘simlikni yanada aniqroq tasvirlash, o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlash, individual tashqi belgilariga ko‘ra farqlash malakasini shakllantirish (shakli, kattaligi, barg va gullari rangidagi tafovut hamda o‘xshashliklar)
3	Xonaki o‘simliklar haqidagi bilimlarini boyitish (yer osti va yer ustki qismlari nomlarini aytish, ba’zi dorivor o‘simliklar, ularning kelib chiqishi, vatani, o‘simliklarning ko‘payishidagi o‘ziga xosliklar haqida ma’lumotga ega bo‘lish)
4	O‘simliklarni yo‘rug‘lik yoki soyani sevuvchi, namlik yoki quruqlikni xush ko‘ruvchi turlarga ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish
5	O‘simlik olamiga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash
6	Barg va poyasi xususiyatlariga qarab o‘simlikni parvarishlash usulini belgilash malakasini mustahkamlash
Mehnat topshiriqlari (navbatchilik shaklida)	
1	O‘simliklarni sug‘orish
2	O‘simliklarni artish va yuvish
3	O‘simliklarni purkash
4	Qurigan barglarni olib tashlash
5	Ko‘chirishda pedagogga yordam berish (ko‘chirishga muhtoj o‘simlikni aniqlash, unga mos tuvak tanlash va h.k)
O‘simliklarni kuzatish	
<p>Bolalarda o‘simliklarning o‘shishi va rivojlanishining uzoq muddatli kuzatuvlari alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu kuzatishning murakkab turi, shuning uchun maxsus markerlardan foydalanish, novda, barg, kurtak, gullar soni, hajmi va holatini qayd etish muhimdir. Bunday kuzatuvlarning davriyligi – haftada bir martadan ko‘p emas. Belgilangan kuzatishlar kuzatuvlar kalendariga kuzatish sanasi qat’iy ko‘rsatilgan holda yozilishi mumkin. Bunday kuzatishlar uchun xilma-xil rangli barg va rangli dog‘lari mavjud gullardan foydalanilsa, yaxshi bo‘ladi. Bu uslubiy nuqtai nazardan yaxshiroqdir: bunday o‘simliklarning yosh barglari eskilaridan farq qiladi.</p>	








# Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun tavsiya etilmaydigan xonaki o'simliklar






MTT xonalarida zaharli shira saqlovchi o'simliklarni, shuningdek, tikanakli yoki reza mevali (sutlama turiga mansub barcha o'simliklar, piyozli amarillislari, tikonli o'simliklar (kaktuslar)ni o'stirish tavsiya etilmaydi.

Nomi	Surati	Inson uchun xavfi
<b>Agava</b>		Shirasi bilan xavfli, ko'p tegish natijasida kontaktli dermatitni chaqiradi
<b>Aglaneoma</b>		Zaharli hujayra shirasi va mevalari bilan xavfli, shirasi tomoq va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati shishi va kasalligini, ko'zga tushganda esa konyuktivit va muguz pardaning o'zgarishini chaqirishi mumkin
<b>Azaliya</b>		Barglari va poyasi alkaloidlar saqlaydi, chaynash oqibatida kelib chiqadigan zaharlanish belgilari – ko'p so'lak oqishi, burundan ajralma kelishi, ko'z yoshlanishi, ko'ngil aynishi va qusish, markaziy asab tizimining zo'riqishi, ongning chigallashishi, koma va tirishish
<b>Aloe</b>		Ayrim turlari – yo'l-yo'l aloe va qo'rqituvchi aloe ichak hamda bachadondan qon ketishi, homila tushishiga olib keladi
<b>Alokaziya</b>		O'simlikning barcha qismlari xavfli bo'lib, shilliq qavatlarining ta'sirlanishiga sabab bo'ladi



Nomi	Surati	Inson uchun xavfi
<b>Antirium</b>		Shirasi tarkibidagi kalsiy oksalatning zararli kristallari terini ta'sirlantiradi, kuchli zahari to'qimalarning yemirilishi bilan kechuvchi shilliq qavatlarining yallig'lanishiga sabab bo'ladi, ichga kirganda aritmiya, ko'zga tushganda konyuktivga olib keladi
<b>Asparagus</b>		Mevalari xavfli bo'lib, shilliq qavatlarini ta'sirlantiradi
<b>Yapon bereskleti</b>		O'simlikning barcha qismlari xavfli bo'lib, ko'ngil aynishi, qonli ich ketish, tirishish, falajga olib kelishi mumkin
<b>Geran (pelargoniya)</b>		Xushbo'y efir moylari ajratib chiqarishi oqibatida astma xuruji yoki allergiyani qo'zg'atishi mumkin
<b>Gortenziya</b>		O'simlikning barcha qismlari kolxitsin va o'xshash alkaloidlar saqlaydi, shu sababli, teri ta'sirlanishini keltirib chiqaradi. Piyozi iste'mol qilish zaharlanishga olib keladi, ammo uni boshpiyoz bilan adashtirish qiyin
<b>Diffenbaxiya</b>		Poyasining shirasi tarkibidagi kalsiy oksalatning o'tkir kristallari tufayli shira og'iz va tomoqqa tushganda kuchli achishishni, qorin og'rig'i, kuchli chanqoq, bosh og'rig'i, qusish, ich ketishni chaqiradi, belgilar 5-8 soatdan keyin namoyon bo'ladi, shuningdek, o'simlik ovoz bog'lamlarining vaqtinchalik falajiga, shirasining teriga tushishi esa kuygandagi kabi shish va qavariqqa, ko'zga tushsa kuchli konyuktivit, ichga yutganda hiqildoq va qizilo'ngach kuyishiga sabab bo'ladi
<b>Kroton</b>		Shirasi zaharli

Nomi	Surati	Inson uchun xavfi
Liliya		Xushbo'y isi bosh og'rig'iga sabab bo'ladi
Sarv sutlamasi		Juda zaharli sutli zahar saqlaydi, ichga tushganda ko'ngil aynishi, qusish, ich ketish, qorinda og'riqqa sabab bo'ladi, yurak yetishmovchiligi rivojlanishi mumkin, shirasi terida kuyish va qavariqlar paydo qiladi, ko'zga tushganda — vaqtinchalik ko'rlikka olib keladi
Monstera		O'simlikning barcha qismlari xavfli
Oleandr		Xushbo'y isi bosh og'rig'iga sabab bo'ladi
Ituzum		O'simlikning barcha qismlari xavfli, ayniqsa, mevalari
Paxipodeim		O'simlik qismlarini ichga yutganda yurak faoliyatiga ta'sir qiluvchi moddalar saqlagani bois: qusish, ich ketish, og'ir hollarda tirishish, nafas to'xtashi yuzaga keladi
Spatifillium		Shirasi zaharli

Nomi	Surati	Inson uchun xavfi
<b>Fikus</b>		Sutli shirasi zaharli
<b>Filodendron</b>		O'simlikning barcha qismlari xavfli; shirasi kuchli zahar hisoblanib, to'qimalarning yemirilishi bilan kechuvchi shilliq qavatlarining yallig'lanishi, qonli ajralmalarga, oshqozon buzilishiga sabab bo'ladi
<b>Siklamen</b>		Barglari va gullaridagi zaharli moddalar ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i va ich ketishga olib keladi
<b>Sitrus o'simliklar</b>		Umuman olganda, sitrus o'simliklar bezarar, ammo fotokontaktli dermatitni chaqirishi mumkin
<b>Yukka</b>		Shirasidagi zahar inson uchun xavfli. Tikonlari terini zararlashi mumkin

## 2-ILOVA


# Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun favqulodda vaziyatlarda o'zini tutishning namunaviy qoidalari

Ushbu ilovada favqulodda vaziyatlarda o'zini tutishning bir qator namunaviy qoidalari taklif etilib, bu pedagog va ota-onalarga favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan paytdagi harakatlar ketma-ketligini bolalarga tushuntirishlariga yordam beradi. Bolalar bilan birgalikdagi faoliyatda ushbu qoidalar to'ldirilishi mumkin.

## Zilzila



Xotirjamlikni saqlash.



Ko'chada: ochiq joyga o'tish, qulaydigan inshootlar, turli buyumlar va simlardan ehtiyot bo'lish.




Deraza va pechlardan uzoqda turish.  
Tepadan tushadigan va ag'dariladigan  
buyumlardan ehtiyot bo'lish.



Avtomobilda: binolar va inshootlardan  
uzoqroqqa to'xtash.



Temir-betonli imoratlarda: eshik o'yimi, asosiy ichki  
devorlar burchagiga turish. Birinchi navbatda zina  
oraliqlari, liftlar, tashqi devorlar o'pirilishini bilish juda  
**MUHIM.**



Gugurt va yondirgichlardan foydalanmaslik va  
elektrni yoqmaslik – agar gaz sizib chiqayotgan  
bo'lsa, u holda bu harakat yong'inga sabab  
bo'ladi.



Baland binoda: lift va zinaga tashlanmaslik,  
chunki chiqish yo'laklari olomon bilan to'lib, liftlar  
faoliyatini to'xtatadi.



Agar uyumlar orasida qolgan bo'lsangiz, u holda imkon  
qadar qorningizga o'girilib yoting – bu sizni ko'krak va  
qorin jarohatlaridan himoya qiladi. Taqillatish va baland  
ovoz orqali e'tiborni o'zingizga jalb eting.

# Yong'in



Olovga qo'l tekkizmasdan kattalarni yordamga chaqirish!



Yonayotgan xonadondan pana joy qidirmaslik!



Kattalar uyda bo'lmaganda uydan chiqib, qo'shnilardan yordam so'rash!



Rasm Tutun juda xavfli ekanini yodda saqlash zarur, shuning uchun ko'z va nafas yo'llarini nam latta bilan berkitish lozim.



Liftdan foydalanmaslik, zina bo'ylab qochish!



Agar tutun quyuq bo'lsa, u holda emaklab harakatlangan ma'qul.



Xonadon qulf bo'lsa, vahimaga berilmay, 101 yoki 112 ga qo'ng'iroq qilish va qo'shnilarni yordamga chaqirish!

# Toshqin



Rasm Xotirjamlikni saqlash.



Imkon qadar suv o'tmaydigan paketga hujjatlar, pul va issiq kiyimlarni olish.



Rasm Kattalar bilan birgalikda binoning eng yuqorisiga ko'tarilish, u yerda barcha eshik va oynalarni yopish.



Rasm O'zingizni oziq-ovqat va ichimlik suvi zahirasi bilan ta'minlashga harakat qilish.




Qutqaruvchilarni kutish.

## O'pirilish va sel

Sel oqimlari va o'pirilishlar tog'li hududlarda sodir bo'ladi – bu tog'lardan loy oqimining tushishi. Sel – bu odatda, loy va toshlar, o'pirilishlar esa nihoyatda katta xarsang toshlar demakdir.



Xotirjamlikni saqlang.



Loy oqimlaridan uzoqqa ketish.



O'pirilish yetib bormaydigan  
balandlikka ko'tarilish.



Hujjat va pullarni olib ketish.



Ro'y bergan hodisa haqida qutqaruv xizmatini  
ogohlantirish, o'z joylashuvingiz haqida xabar  
berish.



Qutqaruvchilar kelguncha suv va oziq-ovqat  
bilan o'zingizni ta'minlashga harakat qilish.



# Bo'ron



Xotirjamlikni saqlang.



Binoga zarar yetganini yoki imoratning mo'rtligini ko'rsangiz, u yoqqa kirish tavsiya etilmaydi, chunki shamol zarbidan bino qulashi mumkin.



Bo'ron paytida bino ichkarisida bo'lsangiz, barcha eshik va derazalarni zich yopib, xavfsiz joylarga berkinish (vanna, hojatxona, katta shkaf).



Imkon qadar garaj, yerto'la, uy osti va chuqurliklarga berkinishga harakat qiling.



Agar siz ofat qattiq avjiga chiqqan payt ko'chada bo'lsangiz, imkon qadar tezlik bilan birorta mustahkam binoga kirish.



Daraxt va elektr simlaridan uzoqda bo'lish.

## 3-ILOVA

# Tabiatda xavfsiz harakatlanishning namunaviy qoidalari

Ushbu ilovada namunaviy qoidalar taqdim etilgan bo'lib, uning yordamida bolalar, ota-onalar va pedagoglar tabiat qo'ynida xavfsiz harakatlanishning eng oddiy qoidalari bilan tanishishlari mumkin. Ilova tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, bolalar pedagog va ota-onalar bilan hamkorlikda ushbu qoidalarni qayta ishlashlari va to'ldirishlari mumkin.



### **Maxsus yo'laklardan foydalaning!**

Yangi so'qmoqni payhon qilib, siz nafaqat o'simliklarni, balki mayda jonivorlarni ham nobud qilishingiz mumkin.



### **Hasharotlarni tutmang! Chumoli inlarini buzmag!**

Unutmang, ular atrof-muhitning ajralmas, muhim qismidir.



**Gulxan yoqmang!**

Bu taqiqlanadi! Yong'in tabiatdagi hayvonlar va odamlar uchun xavfli.



**Gullar va yovvoyi o'simliklarni uzmay!**

Yasagan guldastangiz uyda uch kun turadi, tabiatda esa gullagan o'simliklar bilan haftalab zavqlanish mumkin.



**Quruq o'tlar va barglarni yoqmang!**

Olov minglab mayda jonli mavjudotlarni nobud qiladi, o'simlik urug'lari yonib ketadi.




**O'zingizdan keyin chiqindi qoldirmang!**

Uydan axlat uchun xalta olib keting, barcha chiqindilarni unga yig'ing va yaqin o'rtadagi chiqindi konteyneriga tashlang.



**Shoxlarni sindirmang! Daraxt po'stloqlariga zarar yetkazmang!**

Shahardagi va yo'l bo'yidagi daraxtlar atmosferadagi zararli moddalar tufayli zaiflashib bo'lgan. Po'stloqlarni qo'shimcha zararlash ularga kasallik yoki parazitlar yuqishini tezlashtiradi.




**Chiqindini saralang!**

Axlat uyumlari atrofni ifloslantiradi, saralangan chiqindini esa yana bir bor ishlatish mumkin.



**Shovqin qilmang!**

Tabiat musiqasini qadrlashni o'rganing: qushlar sayrashi, shamol nafasi, yaproqlar shitiri. Bu sizga xotirjamlik va salomatlik keltiradi.



**O'rgimchak to'rini buzmag va uni o'ldirmang!**

Unutmang, ular atrof-muhitning ajralmas, muhim qismidir.



**Qush uyasiga yaqinlashmang!**

Agar qush uyaga teginayotganingizni ko'rsa, bu yerga boshqa qaytmaydi va polaponi nobud bo'ladi.



**Daryo va ariqlarni ifloslantirmang!**

Suvga axlat tashlamang.



**Tabiatga yordam bering!**

Daraxtlar, gullar, o'simliklar eking.



**Tabiatni asrang!**

Tabiatda bo'lish qoidalariga rioya qiling.

## 4-ILOVA

# Sogʻlom turmush tarzining namunaviy qoidalari

Oʻz salomatligingizni saqlash va mustahkamlash juda muhim. Ushbu ilovada pedagoglar, ota-onalar va bolalar uchun oʻz salomatligini boshqarish yoʻllarini aniqlashtirishga va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish haqidagi tasavvurlarni mustahkamlashga yordam beradigan namunaviy tavsiyalar taqdim etilgan. Bolalar bilan boʻladigan taʼlim-tarbiya jarayonida bu qoidalar toʻldirilishi mumkin.

	<b>Quloqlar uchun</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Dush, suv havzalari va basseynida choʻmilayotgan paytda quloqlarni maxsus rezina tiqin bilan berkiting.</li><li>• Suv eshitish qobiliyatingiz uchun zararli</li><li>• Sovuq kunlarda va qattiq shamol esgan paytda qalpoq kiying</li><li>• Kuchli shovqin eshitish qobiliyati uchun zararli</li><li>• Quloqlarni kovlamang, quloq pardasiga ziyon yetishi mumkin</li></ul>
	<b>Koʻz uchun</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Televizorni uzoq masofadan tomosha qiling</li><li>• Koʻzlarni faqat toza sochiqcha bilan arting</li><li>• Koʻz uchun gimnastika qiling</li><li>• Koʻz, qosh va kipriklar yuvinishni yoqtiradilar</li><li>• Kitobni stol oldida oʻtirgan holda oʻqish va tomosh qilish zarur</li><li>• Yorugʻ joyda mashgʻulot oʻtkazing</li><li>• Kitob va daftarni koʻzdan 35 sm masofada tuting, ularni koʻzga yaqin keltirmang</li><li>• Mutolaa paytida har yarim soatda besh daqiqalik tanaffus qiling</li><li>• Ruchka, pichoqcha va boshqa oʻtkir tigʻli buyumlar bilan ehtiyotkorona munosabatda boʻling</li><li>• Agar koʻzga biror narsa kirsam yoki ogʻrib qolsam, zudlik bilan shifokor yoki hamshiraga murojaat qiling</li><li>• Quyoshga faqat qoraytirilgan koʻzoynak orqali qarang</li><li>• Kompyuter oʻyinlarini kuniga 15-30 daqiqadan ortiq oʻynamang</li></ul>
	<b>Teri uchun</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Ertalablari yuvining</li><li>• Har kuni kechqurun uyqudan oldin choʻmiling</li><li>• Vannadan keyin yaxshilab artining</li><li>• Yuzingizni faqat oʻzingizning toza sochiqʻingiz bilan arting</li><li>• Ich kiyimlarni tez-tez almashtiring</li><li>• Birovlarning kiyimi va poyafzalini kiyish mumkin emas</li><li>• Teridagi yarani yuving va infeksiyaga qarshi ishlov bering</li></ul>
	<b>Oyoq-qoʻllar uchun</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Ertalablari badantarbiya qiling</li><li>• Qulay poyafzal kiying</li><li>• Sovuq qishda qoʻlqop kiying</li><li>• Qoʻl va oyoq tirmoqlarini oling</li><li>• Suzish bilan shugʻullaning – bu organizm uchun eng yaxshi chiniqish</li><li>• Yozda toza qum va toshlarda koʻproq yuring</li></ul>

	<p><b>Chiroyli qomat uchun</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Holatingizni har 15-20 daqiqada o'zgartiring</li> <li>• Bel, qorin va umurtqa mushaklari uchun jismoniy mashqlar bajaring</li> <li>• Boshingizga baland bo'lmagan yostiq qo'ying</li> <li>• Og'ir yuklarni aravada tashigan afzal</li> </ul>
	<p><b>To'g'ri ovqatlanish</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Taomni vaqtida iste'mol qiling</li> <li>• Luqmani yaxshilab chaynab, shoshmasdan ovqatlaning</li> <li>• Ko'proq meva-sabzavotlar yeng</li> <li>• Taomni ovqatlanish uchun ajratilgan maxsus joylarda iste'mol qiling</li> <li>• Ovqatni qaynoq va muzdek emas, iliq holatda yeng</li> <li>• Kun davomida toza, iliq suv iching</li> </ul>
	<p><b>Tishlar uchun</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ertalab va kechqurun uyqudan oldin tishlaringizni tozalang</li> <li>• Har gal taom iste'moldan keyin og'zingizni chaying</li> <li>• Yarim yilda bir marta stomatolog huzuriga boring</li> <li>• Tishlar bilan yong'oq chaqish zararli</li> </ul>
	<p><b>Tetiklik va kayfiyat uchun</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Kechqurun uyqudan oldin dush qabul qiling</li> <li>• Uyqudan oldin ko'p suyuqlik ichmang</li> <li>• Uyqudan oldin xonani shamollating</li> <li>• Uyqudan bir soat oldin televizor, kompyuter va baland musiqadan voz keching</li> <li>• Jimlikda uxlang</li> <li>• Uyquga yotish va turishda kun tartibiga rioya qiling</li> </ul>
	<p><b>Uzoq umr ko'rish uchun</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yodda tuting, chekish va alkogol sog'lik uchun zarur</li> <li>• Sport bilan shug'ullaning</li> <li>• Ertablari yuguring</li> <li>• Velosipedda uching</li> <li>• Toza havoda ko'proq sayr qiling</li> </ul>

## 5-ILOVA

# MTT guruhlaridagi “Fan va tabiat” markazi uchun namunaviy materiallar ro‘yxati

Ushbu jadvalda MTT guruhlaridagi “Fan va tabiat” markazining rivojlanishi uchun jihoz va materiallarning namunaviy ro‘yxati taqdim etilgan. Shuni bilingki, bu ro‘yxat namunaviy bo‘lib, uni to‘liq bajarishga zarurat yo‘q. Ushbu jadvalda maksimal darajadagi ro‘yxat keltirilgan bo‘lib, MTTda joy va moliyaviy yetishmovchiliklar tufayli har doim ham ularni amalga oshirish imkoniyati mavjud emas. Boshqa tarafdin, har bir hudud va MTT ushbu markazlarni ta‘minlashda inobatga olishi tavsiya etiladigan o‘ziga xos mintaqaviy komponentlariga ega.

№	Taraqqiyot markazi	Jihoz va materiallar
1	Fan va tabiat	<p><b>Jihozlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• stol (1)</li><li>• (2–4)</li><li>• materiallarni saqlash uchun tokchali ochiq javon (stellaj)</li></ul> <p><b>Materiallar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• tadqiqotlar uchun turli obyektlar to‘plami (toshlar, chig‘anoqlar, qarag‘ay g‘uddalari, minerallar, matolar, urug‘lar, o‘simliklar (gerbariy) kolleksiyasi</li><li>• kattalashtirib ko‘rsatuvchi oyna, zarrabin</li><li>• mikroskop</li><li>• ohanrabo (magnit)lar to‘plami</li><li>• ilmiy tajribalar uchun to‘plam</li><li>• tarozilar</li><li>• bolalar xavfsiz termometri</li><li>• qumsoat, sekundomer</li><li>• o‘lchov stakanlari to‘plami</li><li>• ob-havo kalendari</li><li>• o‘simliklarni parvarishlash uchun zaruriy asbob-uskunalar</li></ul> <p><b>Didaktik material:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• xonaki gullar (bolalarning yosh imkoniyatlari va o‘simliklarning xavfsizligini inobatga olgan holda)</li><li>• “yashil dorixona”</li><li>• kichik tomorqa</li><li>• didaktik o‘yinlar (“Shoxda kimning bolalari?”, “Yil fasllari” va hokazo)</li><li>• ko‘rgazmali-didaktik qurollar (“Mevalar”, “Sabzavotlar”, “Daraxtlar”, “Uy hayvonlari”, “Yovvoyi hayvonlar”, “Qushlar” va hokazo)</li><li>• andozalar (“Jonli tabiat belgilari”, “O‘simliklar ehtiyoji”, “Taraqqiyot”, “Hasharotlar”, “Baliqlar”, “Tafovut: qushlar va hayvonlar” va h.k.)</li><li>• tabiat zonalarini maketi “Cho‘l”, “Tog‘li o‘rmonlar”, “Daryolar” va h.k.</li><li>• urug‘, hasharotlar, toshlar kolleksiyasi</li><li>• gerbariy, tabiiy materiallardan yasalgan buyumlar</li><li>• tabiat tovushlaridan iborat audioyozuv</li><li>• ekologiya mavzusidagi videolar (multiplikatsion filmlar, tabiat haqida videofilmlar)</li><li>• globus, bolalar atlas</li><li>• tasviriy-ilmiy kitoblar, plakatlar, mavzuviy pazlar</li></ul>

## 6-ILOVA

# Ekologik sanalarning namunaviy kalendari

Ushbu ilovada pedagog va ota-onalarga ta'lim-tarbiya faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirish jarayonida qo'shimcha material sifatida foydalanish tavsiya etiladigan ekologik sanalarning namunaviy kalendari taqdim etilgan.

Sana	Hodisa nomi	Ahamiyati	Faoliyat va tadbirlar turi
<b>Yanvar</b>			
10-yanvar	Xonaki o'simliklarga minnatdorlik kuni	Insonlarga xonaki o'simliklarning afzalliklari haqida rasman eslatish imkoniyati	Xonaki o'simliklar haqida suhbat. Bolalar bilan turli o'simliklarni tuproqqa o'tkazish borasida ishlar olib borish va ularning qanday unib-o'sayotganini kuzatish. Gullar bayramini nishonlash
11-yanvar	Butunjahon qo'riqxonalar va tabiat bog'lari kuni	O'simlik va hayvonlarning kamyob turlarini saqlab qolish maqsadida maxsus xizmat vakillari tomonidan qo'riqlanadigan tabiat maydonlari tashkil etiladi	Q'oriqxonalar nima va ular nima uchun tashkil etilishi haqida suhbatlar o'tkazish. Qo'riqxonalar va tabiat bog'lari suratlarining namoyishi. Bolalar bilan yovvoyi va uy hayvonlari haqida suhbat. Hayvon va qushlar suratini bo'yash borasidagi ishlar. "Qo'riqxona" syujetli o'yini
<b>Fevral</b>			
2-fevral	Suvli-botqoqli yerlar kuni	Bu kunda suvda suzuvchi (flamingo, oqqush, o'rdak, g'oz va h.k.) qushlarning yashash joyi hisoblangan suv havzalarini saqlashning ahamiyati nishonlanadi	Yaqinimizda uchraydigan qushlar (chumchuq, kaptar, mayna, qarq'a, zag'izg'on, chittak) rasmining namoyishi. Qushlarning tabiatdagi ahamiyati haqida suhbat. Ekskursiya o'tkazish va ko'chadagi qushlarni kuzatish. Qush oxurlarini tayyorlash va zahirasini doimiy to'ldirib borish. Qushlar bayramini nishonlash. Ota-onalar bilan birgalikda qushlar uchun inlar yasash va uni MTT maydoniga joylashtirish
<b>Mart</b>			
1-mart	Butunjahon mushuklar kuni	Bu kunda mushuksimonlar (xonaki va yovvoyi mushuklar) oilasiga e'tibor qaratiladi	Mushuklar kabi ajoyib mavjudotlar haqida suhbat. Xonaki mushuklarning foydasi haqida suhbat. Ayrimlari yaqinimizda, shahar va qishloqlarda yashaydi. Ayrimlari esa o'rmonlar, tog'lar yoki cho'llarda yashaydi (yo'lbarslar, qor barslari, arslonlar, qoplonlar). Mushuklar qanday xususiyatlarga ega. Mushuk va mushuk bolalarini kuzatish. Bosh qahramoni mushuk bo'lgan multfilmlar namoyishi va muhokamasi. Mushuk rasmini chizish
21-mart	Navro'z	Bahor va tabiatning uyg'onish bayrami	Bolalar bilan gullar va ko'chatlar ekish. Har bir bola o'ziga berilgan urug'ni yerga qadashi uchun "Sehrli jo'yak" qilish. Urug'lar unib chiqishini kuzatish. "Navro'z" bayramini nishonlash



Sana	Hodisa nomi	Ahamiyati	Faoliyat va tadbirlar turi
<b>Aprel</b>			
<b>22-aprel</b>	Xalqaro Ona Zamin kuni	Zamin kuni – bizning uyimiz bo'lgan Yerga nisbatan g'amxo'rlik va muhabbat kuni	Suratlar asosida suhbat va tozalik, chiqindilarni to'g'ri saralash, suvni, odamlar bilan yondosh yashayotgan o'simlik va hayvonlarni asrab-avaylash haqidagi taqdimot videosini tomosha qilish. "Sayyoramizni asrang" bayramini nishonlash. Tabiat bo'ylab ekskursiya. Tabiatni kuzatish. Viktorina, Yerni asrash borasidagi ijodiy va amaliy topshiriqlar
<b>May</b>			
<b>20-may</b>	Xalqaro asalarilar kuni	Asalarilarning ahamiyati va ularning o'simliklarni changlatish borasidagi faoliyatini eslatish. Arilar atrof-muhit tozaligining indikatorini hisoblanadi	Asalarilar haqidagi film yoki multfilmlar namoyishi. "Asalari" bayramini nishonlash. Arilar va asalarilar haqida suhbat. Nimasi bilan bir-biridan farqlanadi. Bolalar uchun qanday xavf tug'diradi. Mavzuga oid o'yinni tashkilashtirish
<b>22-may</b>	Xalqaro biologik xilma-xillik kuni	Xalqaro biologik xilma-xillik kuni Yer yuzidagi ko'plab flora va faunaning abadiy yo'qolib ketish muammosiga e'tibor qaratishni rag'batlantiradi	Turli o'simlik va hayvonlar haqidagi multiplikatsion filmlar namoyishi. Hayvonot bog'iga ekskursiya. Har xil liboslar kiygan holda o'yinlar, topishmoqlar, g'ayrioddiy va kutilmagan mehmonlar (g'ayrioddiy xonaki hayvonlari bo'lgan odamlarni yoki sirk artistlarini mehmonga chaqirish mumkin) bilan birgalikda ekologik bayramni nishonlash. Rasmlarning, turli materiallardan yasalgan buyumlarning ijodiy tanlovini o'tkazish va galereyani guruhdagi ijodiy ishlar bilan bezatish
<b>Iyun</b>			
<b>3-iyun</b>	Butunjahon velosipedchilar kuni	Diqqat markazda harakatlanishning ekologik toza va xavfsiz turi - velosiped	Bolalar va kattalar o'zlarini velosipedda harakatlanish orqali namoyon etadigan oilaviy sport bayramini o'tkazish
<b>5-iyun</b>	Butunjahon atrof-muhit muhofazasi kuni (Ekolog kuni)	Butunjahon atrof-muhit kuni har bir insonda atrofimizdagi olamni himoya qilish xohishini uyg'otishga qaratilgan	Bolalar bilan "Qizil kitob" haqida suhbatlashish Konsert, rasm va devoriy rasmlar tanlovini o'tkazish, o'simliklar (gullar) ekish. Atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan didaktik materiallar (rasmlar, she'rlar, hikoyalar, audio va videoyozuvlar)dan foydalangan holda ekologik bayramni nishonlash. Bolalar ijodining (rasmlar, applikatsiyalar, yasagan narsalari) ko'rgazmali tanlovini tashkil etish. Ota-onalar o'rtasida "Oilada bolaning ekologik tarbiyasi" mavzusida so'rovnoma o'tkazish. "Har bir chiqindi savatga" shiori ostida shanbalik o'tkazish. "Daraxt va gullarga tez yordam" (MTT hovlisidagi daraxt va gullarni sug'orish) aksiyasini o'tkazish
<b>3-iyul</b>	Butunjahon polietilenlarsiz kun	Sellofan va polietilen xaltalardan voz kechish	Paketlarning ishlatilgandan keying zarari haqida suhbat. Paketlar yordamida turli o'yinlar o'ynash. Paketlardan narsalar yasash, matodan applikatsiyali xaltalar tayyorlash, qog'oz paketlarni bezash
<b>Avgust</b>			
<b>17-avgust</b>	Butunjahon mevali daraxtlar kuni	Bayram shiori: "Kimki daraxtni sevsan, insonlarni ham sevadi"	Mevalar va mevali daraxtlar foydasi haqida suhbat. Daraxtlarni sug'orish va chopiq qilish bo'yicha mahorat darsi. Hosil ko'rgazmasi va O'zbekistonda o'sadigan turli mevalar degustatsiyasi. "Foydali mevalar" liboslar bayramini o'tkazish

Sana	Hodisa nomi	Ahamiyati	Faoliyat va tadbirlar turi
<b>Sentabr</b>			
<b>16-sentabr</b>	Xalqaro Ozon qatlami himoyasi kuni	Bu bayram inson faoliyatining ozon qatlamini yemirilishiga olib kelib, uning sayyoramiz uchun halokatli ta'siri haqida eslatma sifatida ta'asis etilgan	Quyosh nurining va zararli quyosh nurlaridan himoya qiluvchi atmosfera qatlamining foydasi haqida suhbat. Tajribalar namoyishi. Tabiat va ob-havo hodisalariga (quyosh nuri va issiqlik, shamol, yomg'ir, bulut, qora bulut) bag'ishlangan tadbir o'tkazish (Shamol kuni, Yomg'ir kuni, Quyosh kuni)
<b>18-sentabr</b>	Butunjahon tozalik kuni	Butunjahon tozalik kuni ko'ngillilar tomonidan chiqindilarni yig'ishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazishga yo'naltirilgan	Bolalar bilan shaxsiy gigiyena vositalari, kun tartibi, tozalik va saranjomlik, chiqindilarni tog'ri ajratish va saralash haqida suhbatlar o'tkazish. "Loy Parisi va Tozalik Malikasi", "Toza qo'llar kuni" bayramlarini nishonlash
<b>22-sentabr</b>	Butunjahon avtomobilsiz kun	Transportning toza turlarini (velosiped, samokat) ommalashtirish. Bu kunda mashinalardan chiqadigan is gazini kamaytirish	Transportning ekologik turlari ba yo'lning qatnov qismini xavfsiz kesib o'tish haqida suhbat. "Avtomobilsiz kun – havoni toza saqlamoq demak!" mavzusida tadbir o'tkazish Velosiped haydash, marafon va estafetalar o'tkazish
<b>Oktabr</b>			
<b>16-oktabr</b>	Butunjahon sog'lom ovqatlanish kuni	MTT da sog'lom ovqatlanish kuni bu sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, bolalar va ota-onalarda o'z organizmiga g'amxo'rlik bilan yondoshishni tarbiyalash demakdir	Foydali va zararli oziq-ovqatlar haqida suhbat. "Ta'midan topib ko'r" tajriba o'yinlari, "Darmondorilar qayerda yashaydi" didaktik o'yinlarini o'tkazish. Taomlar va yeb bo'ladigan mahsulotlar tasvirini namoyish etish. "Sog'lom ovqatlanish" mavzusidagi stendlarini bezatish. Ota-onalar bilan birgalikda "Sog'lom ovqatlanish uchun oilaviy retseptlar" albomini yaratish. Ota-onalar o'rtasida "Oiladagi taomlanish" so'rovnomasii o'tkazish "Biz sog'lom ovqatlanish tarafdorimiz" mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazish. "Maktabgacha yoshdagilarning ovqatlanishi" nomli buklet. "Sog'lom ovqatlanish haftaligi" loyihasi: Dushanba – "Hammasi non haqida"; Seshanba – "Sut iching bolalar – sog'lom bo'lasiz"; Chorshanba – "Mevalar – sevimli mahsulotimiz"; Payshanba – "Sabzavotlar foydasi haqida"; Juma – "Mazali va foydali yeguliklar haqida"
<b>Noyabr</b>			
<b>4-noyabr</b>	Butunjahon hayvonlarni himoya qilish kuni	Hayvonlarni himoya qilish kuni sayyoramizda yashovchi boshqa jonli mavjudotlar oldidagi mas'uliyatimizni yodga solish uchun tan olingan	Bolalar bilan hayvonlarni qanday davolash haqida suhbat (veterinarlar taklif qilinadi). Hayvonlar haqidagi asarlarni o'qish. "Doktor Voyjonim" rolli o'yinini o'ynash. Hayvonlar haqidagi multiplikatsion film namoyishi va muhokamasi. Tushunchalarni mustahkamlash uchun "Yovvoyi hayvonlar", "Uy hayvonlari", "Qishloq ho'jaligi hayvonlari", "Uysiz hayvonlar" didaktik o'yinini o'tkazish. Qahramonlari turli hayvonlar bo'lgan harakatli o'yinlar o'ynash. Ota-onalar bilan ishlash: Birgalikda hayvonot bog'i yoki kuchuk, mushuklar parvarish qilinadigan joyni borib ko'rish, fermaga tashrif buyurish. Kuchuk yoki mushuklarni birgalikda kuzatish, "Bizning kichik do'stlarimiz" fotogalereyasini bezatish

Sana	Hodisa nomi	Ahamiyati	Faoliyat va tadbirlar turi
<b>Dekabr</b>			
<b>5-dekabr</b>	Butunjahon tuproq kuni	Yerdagi hayot uchun tuproqning ahamiyati	Tuproq nima, uning ahamiyati, tuproqda yashovchi jonli mavjudotlar (yomg'ir chuvalchangi, ko'rsichqon, qumsichqon, sug'ur, yumronqoziq va b.) haqida namoyishli suhbat o'tkazish. Tuproq haqida multiplikatsion film namoyishi. Tuz mavjudligida tuproqning xususiyati qanday o'zgarishi haqida namoyish va tajriba. Urug'larnig unishi, o'simlik shoxchasining ildiz otib, tuproqda mustahkamlanishini kuzatish. Ota-onalarni faol jalb qilgan holda daraxtlar, gullar, butalar o'tkazish
<b>11-dekabr</b>	Xalqaro Tog'lar kuni	Yomonlashib borayotgan tog' ekotizimlariga e'tibor qaratish uchun nishonlanadi	Landschaftlarning o'ziga xos shakli – tog'lar haqida suhbat. O'rta Osiyo tog'lari va u yerda yashovchi jonivorlar (qor barsi, Tyan-Shan ayig'i, Menzbir sug'uri, tog' echkisi yoki tog' qo'yi) haqida multiplikatsion yoki hujjatli film namoyishi. Bizning tog'larimiz lola, xandon pista, grek yong'og'i, bodom, yovvoyi nok va olma kabilarning vatani hisoblanadi Virtual "Toqqa sayohat"ni o'tkazish. Turli qarshiliklarni yengishga qaratilgan harakatli o'yinlar Plastilindan tog' shaklini yasash, qumlardan imoratlar yasash, rasm chizish "Toshlar mamlakatida" (toshlar xususiyatini mustahkamlash (qattiq, katta, kichik, silliq, g'adir-budur, og'ir) tajriba ishi

# 6-7 yoshli bolalar bilan ertalabki sayrning namunaviy rejasi

Har bir yoshdagi guruhlarining kun tartibida ikki xil sayr ko'zda tutilgan: ertalabki va kechki.<sup>25</sup>

Ertalabki sayrning vazifasi – ta'lim-tarbiya ishlaridan keyin madorni tiklash, yuqori darajada ijobiy quvvat olish, quvnoq kayfiyat yaratish.

**Sayrdagi ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini rejalashtirishda quyidagi taxminiy strukturaga tayangan holda bolalarning sokin va harakatlantiruvchi faoliyati navbatini baravar amalga oshirish, butun sayr davomida jismoniy yuklamani to'g'ri taqsimlashni ko'zda tutish tavsiya etiladi:**

1. Tabiatdagi kuzatuv va/yoki tajriba faoliyati;
2. Mehnat faoliyati;
3. Harakatli o'yinlar va/yoki harakatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar;
4. Bolalarning mustaqil o'yinlari.

Faoliyat turlari	Bolalar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat	Vositalar
<b>Kuzatuv</b>	Bolalar nimaga e'tibor berishi kerak: Yozda kunlar issiq, yorug'lik yetarli, suv ko'p paytda gulzordagi gullar yaxshi o'sdi, gulladi, endi kunlar qisqarib, suv mo'l bo'lsa-da, issiqlik kam, gullar so'lib, ular o'mida urug'lar paydo bo'ladi, urug'lardan yangi o'simliklar unadi. Savollar: Gulzordagi gullar qay holatga keldi? Nima uchun ular quridi? Bahorda qayta gullashi uchun nima qilish kerak? (urug'larni yig'ish)	Gulzor; Yoz davridagi gulzorning ko'rgazmali foto materiali
<b>Bolalarning mehnat faoliyati</b>	Gulzordan urug'lar yig'ish. Gullardan urug'lar qanday yig'ilishini bolalarga ko'rsatish. Urug'larni saqlash qoidalari haqida so'zlab berish	Urug' yig'ish uchun idish; Qo'lqoplar
<b>Harakatli o'yinlar</b>	"Ariqdagi bo'ri" – uzunlikka sakrash "Koptok ketidan quvish" – yugurish, diqqat va abjirlikni rivojlantirish. "Mushuk va sichqonlar" – qoidalarga rioya etishni o'rgatish	Bo'r Koptok Mushuk kostyumi yoki qalpog'i, sichqonlar qalpog'idan ham foydalanish mumkin
<b>Bolalarning mustaqil faoliyati</b>	"Uy qurish" kinetik qum bilan o'yinlar – bolalarga qumdan uy qurishni o'rgatadi; bolalarga qurilish bo'yicha muzokaralar olib borishni o'rgatishni davom ettirish	Qum uchun stol Kinetik qum Qum uchun qolip va kurakcha

<sup>25</sup>Qarang: Shin A.V., Mirziyoyeva Sh. Sh., Grosheva I.V., Milailova U.T., Sulesanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasova Ye.N., Galimova E.R., "O'quv jarayonini o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish" III bob. Bolalarni ta'lim va tarbiyalash jarayonini rejalashtirish. 3.6.3-band. "Sayohatni tashkil etish va rejalashtirish", Uslubiy qo'llanma, Toshkent-2020

## 8-ILOVA

# 6-7 yoshli bolalar uchun “Suv” mavzusidagi loyihani amalga oshirishning namunaviy rejasi

Ushbu ilovada “Suv” mavzusidagi loyihaning taxminiy variant keltirilgan. Pedagog bolalar va ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ijodiy yondoshib, MTT mavjud vositalardan foydalangan holda, bolalarning o‘ziga xosligini inobatga olib, ushbu mavzuda o‘z loyihalarini ishlab chiqarishlari mumkin.

“Suv” mavzusi	
<b>Loyihaning maqsadi: Bolalarning suvning ahamiyati, xususiyati va holati haqidagi tasavvurlarini boyitish. Yer yuzidagi jami tiriklik manbai sifatida suvni asrashga o‘rgatish</b>	
<b>Amalga oshirish muddati: sentabr – may</b>	
<b>Loyihaning kirish qismi</b>	Loyihani ishlab chiqish Bolalar va ota-onalarni mavzu va uning ahamiyati bilan tanishtirish va qiziqtirish Guruhda loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli sharoitni yaratish Tajribalar o‘tkazish uchun zaruriy materiallar va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash
<b>Loyihaning asosiy qismi</b>	<b>Loyihani amalga oshirish</b>
<b>O‘yinli faoliyat</b>	<b>Didaktik o‘yinlar:</b> “Suzadi – suzmaydi”, “Suvning uch holati”, “Tomchi”, “Suv qayerda yashaydi?”, “Nima kuchli?”, “Suvning tabiatdagi aylanishi”, “Suv nega kerak?”, “Suv qanday bo‘ladi?” <b>Kamharakat o‘yin:</b> “Bir, ikki, uch - to‘xta”; “Esnama, biz bilan qaytar”, “Quyosh, yomg‘ir, shamol”, “Tomchini top”, “Suvni qoshiqda keltir”, “Suv tashuvchilar” <b>Harakatli o‘yinlar:</b> “Daryoni ko‘prik orqali kesib o‘t”, “Tomchilar aylanib yuribdi”, “Quyosh va yomg‘ir”, “Quvnoq tomchilar”, “Qayiq, suzaqol”
<b>Tadqiqiy faoliyat</b>	<b>Tajribalar:</b> “Suv shakli”, “Suv ta‘mi”, “Suv hidi”, “Suvning shaffofligi” “Suvning oqishi”, “Suvning parlanishi”, “Suvning tovushi”, “Suvning bug‘lanishi”, “Suvning uch holati”, “Suv o‘simliklarni oziqlantiradi”, “Moy va suv aralashmaydi”, “Qaysi materiallar suvni o‘tkazadi”, “Mahsulotlarning suvda eruvchanligi”, “Narsalarning suzuvchanligi”, “Tabiiy materialning suvga ta‘siri”
<b>Kommunikativ faoliyat Badiiy adabiyot</b>	<b>Suhbatlar:</b> “Atrofimizdagi suv”, “Suv – bizning boyligimiz”, “Suv hammaga kerak”, “Suvni asrang” <b>Suv haqidagi suratlarni ko‘rib chiqish</b> “Suvning tabiatdagi aylanishi” chizmasi bo‘yicha hikoya tuzish <b>Barmoq gimnastikasi:</b> “Momaqaldiroq”, “Yomg‘ir-yom‘ir”, “Bulut va yomg‘ir”, “Qorbobo” <b>Suv haqidagi asarlarni o‘qish</b> <b>Suv haqida topishmoqlar topish</b> <b>Suv haqida she‘r yodlash</b>



Loyihaning asosiy qismi	Loyihani amalga oshirish
<p><b>Ijodiy faoliyat</b></p>	<p><b>Rasm chizish:</b> "Suv qanday bo'ladi", "Tomchining sarguzashtlari", "Suvning uch holati", "Tabiiy suv havzalar: buloq, daryo, ko'l", "Sun'iy suv havzalari: favvora, basseyn, akvarium"  <b>Applikatsiya:</b> "Baliqchalar akvariumda", "Favvora"  <b>Yasash:</b> "Qamishli ko'l", "Qorbobo"  <b>Konstruksiyalash:</b> "Qayiq", "Kemacha", "Qor parcha"  <b>Fonogrammada eshitish:</b> "Jarangdor jilg'a"; "Tabiatdagi suvning tovushi"  <b>Suv haqida qo'shiq yodlash</b>  <b>Drama:</b> K.I. Chukovskiyning "Tozalab yuv (Moydodir)" she'ridan parcha; Xans Kristian Andersenning "Qor malikasi" ertagidan parcha</p>
<p><b>Ota-onalar bilan birgalikda ishlash</b></p>	<p>"Suv olami" <b>albomini yaratish</b>  "Suvning tabiatdagi aylanishi" <b>kollajini yaratish</b>  <b>Suv bilan bo'ladigan o'yin bayonini tuzish</b>  <b>Ota-onalar uchun tavsiya:</b> "Bolalarga suv haqida gapirib bering", "Suv bilan o'yinlar", "Kattalar va bolalar uchun suv ichish tartibiga rioya etishning ahamiyati"</p>
	<p><b>Loyihaviy faoliyat mahsuloti</b></p>
<p><b>Xulosa qismi</b></p>	<p>"Suv bilan tajribalar" <b>kartotekasini yaratish</b>  "Atrofimizdagi suv" <b>bolalar ijod ko'rgazmasini bezatish</b>  "Sehrgar suv" <b>kichik muzeyini yaratish</b></p>

# Oilada ekologik xabardorlik darajasini oshirishning namunaviy yoʻnalishlari

Ushbu namunaviy yoʻnalishlar pedagoglarga ota-onalar bilan birgalikda ekologik xabardorlik darajasini oshirishga qaratilgan rejani birgalikda ishlab chiqarishga yordam beradi. Pedagogga ota-onalar uchun muhim boʻlgan ekologik informatsiya tanlash tavsiya etiladi.

- Ular yashaydigan shahar, mahalla, MTT, mavze, dam oladigan bogʻ, dala hovlilarining ekologik holati haqida maʼlumotlar;
- Bola salomatligi atrof muhit sifatiga bogʻliqligi haqida informatsiya;
- Ekstremal sharoitlarda oʻzini tutish qoidalari (noqulay ekologik vaziyatlar, halokatlar);
- Yashash joy ekologiyasi;
- Ekologik xavfsiz hosil yetishtirish;
- Xonaki, dorivor, ozuqaviy oʻsimliklar;
- Bolalar bilan sayrda va tabiat qoʻynida dam olishda ekologik xavfsiz joylarni tanlash;
- Uy hayvonlari, ularni uyda boqish va uy hayvonlarining bola uchun ahamiyati;
- Ekologik taʼlim jarayonida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi;
- Bolaning MTT dagi faoliyati haqida informatsiya.

# Ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlikning namunaviy yo'nalishlari

MTT ning boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi uzliksiz ekologik ta'limning ajralmas qismi bo'lishiga yordam beradi. Hamkorlikning ushbu namunaviy yo'nalishlari MTT va ijtimoiy sheriklar orasidagi ekologik ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish va tashkillashtirishga yordam beradi.


Hamkorlikning yo'nalishlari	Ijtimoiy hamkorlar
<b>Tashkiliy</b>	Turli darajadagi ta'limni boshqarish organlari, boshqaruvning ma'muriy organlari
<b>Ta'limiy</b>	Ta'lim organlari, boshqa maktabgacha ta'lim muassasalari, tabiatni himoya qiluvchi organlar, muzey, ko'rgazma markazlari
<b>Vorislik</b>	Maktab, ijod saroylari, pedagogik kollejlari, hayvonot bog'i, botanika bog'i
<b>Malaka oshirish</b>	Ta'lim organlari, malaka oshirish instituti, ilmiy-pedagogik markazlar
<b>Ilmiy maslahatlar</b>	Oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, muzeylar, institutlar, qo'riqxonalar
<b>Moliyaviy</b>	Ekologik fondlar, vazirliklar, atrof-muhitni himoya qilish qo'mitalari, boshqaruvning ma'muriy organlari, milliy va xalqaro jamoat ekologik tashkilotlari (grantlar olish)
<b>Ekologik-sog'lomlashtirish</b>	Bolalar poliklinikasi, sanepidnazorat organlari, ilmiy tashkilotlar, tabiatni himoya qiluvchi qo'mitalar, ko'kalamzorlashtirish tashkilotlari
<b>Amaliy</b>	Ekologik va tabiatni himoya qiluvchi jamoat tashkilotlari (tabiatni himoya qilish jamiyati)
<b>Reklamali</b>	Telestudiyalar, matbuot, radio, festivallar

1. Tashkiliy yo'nalish tajriba maydonlarini tashkil etish, ekologik ta'lim sohasidagi kerakli hujjatlar bilan tanishish va rasmiylashtirish, konferensiyalar, yig'ilishlarda qatnashish, ish natijalarini umumlashtirish va e'lon qilish maqsadida hamkorlikni amalga oshiradi. Ta'lim organlari vakillari doimiy ravishda tajribalar natijasini kuzatib boradi va pedagoglar faoliyati monitoringini olib boradi, maktab va MTT o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yishga yordam beradi.

2. Ta'lim yo'nalishi – turli darajadagi ta'lim organlari bilan dastur, metodikalarni tog'ri tanlash va boshqa MTT lar bilan tajriba almashish maqsadida hamkorlik qilishni nazarda tutadi. Ta'lim organlari, shuningdek, u yoki bu ekologik ta'lim muammolariga bag'ishlangan yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazadi.

3. Vorislik — maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatidagi muhim yo'nalishlardan bo'lib, ta'lim-tarbiya ishlari tizimidagi eng to'liq amalga oshiriladigani hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarning hamkorlik shakllari – chiqindilardan eng yaxshi narsalar yasash bo'yicha hamkorlikdagi tanlovlar, ekologik bayramlar, tanlovlar, safarlar. Bu yo'nalishni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim





muassasalarining pedagogika kollej va universitetlari talabalari bilan hamkorlik qilish, xususan, ular tomonidan pedagogik amaliyotlar o'tish muhim ahamiyatga ega.

4. Malaka oshirish. Bu yo'nalish MTT ni MOI va shu sohaga ixtisoslashgan boshqa tashkilotlar bilan doimiy aloqasini, metodik uyushmalardagi ishtirokini ko'zda tutadi.

5. Ilmiy maslahat. Alohida himoya qilinadigan maydonlar (qo'riqxonalar, milliy va tabiat bog'lari), kutubxona, muzeylarning ekologik ta'lim bo'limlari MTT bilan aloqa o'rnatadi. Bunday tashkilotlar o'rtasida ekologik ta'lim sohasidagi ishlar bo'yicha eng yaxshi tashkilot nomi uchun tanlovlar o'tkaziladi. Qo'riqxonalar, muzeylarda maktabgacha yoshdagi bolalar yurtimiz tabiatining o'ziga xosliklari, uning muhofazasidagi muammolar, tabiatga nisbatan insonning konstruktiv faoliyati bilan tanishadilar.

6. Moliyaviy. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda maktabgacha ta'lim muassasalarini qo'shimcha moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatda ekologik ta'lim ma'lum darajada noyob hisoblanadi: ekologik ta'lim masalalari bilan shug'ullanayotgan MTT tarmog'ini ridojlantirishda nafaqat ta'limni boshqarish organlari, balki tabiiy resurslar qo'mitasi, tabiatni muhofaza qilish jamiyati, turli darajadagi sanepidnazorat organlari ham mafaatdor. MTT lar, shuningdek, jamoat va nodavlat fondlarning grantlarini ham oladilar.

7. Ekologik-sog'lomlashtirish. Bola salomatligi uni o'rab turgan muhit holati, iste'mol qilayotgan mahsulot va MTT xonalarini bezatishda ishlatiladigan materiallari sifati bilan chambarchas bog'liq ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarining ko'pchiligi majmuadagi salomatlik va ekologiya masalalari bilan shug'ullanadilar. Ayrim MTT lar tibbiyot muassasalari va sanepidnazorat muassasalaridan bolalarning salomatligi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan maslahat yordamini oladilar. Ekologik fondlar, tabiatdan foydalanish qo'mitalari MTT larga maydonni ko'kalamzorlashtirish, atrof-muhitni yaxshilashga yordam beradi.

8. Amaliy. MTT larda ekologik ta'lim tizimini rivojlantirishda ko'plab jamoat tashkilotlari manfaatdordir, chunki MTT orqali ular tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan turli aksiyalarga nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalari, pedagoglarni ham jalb etishlari mumkin.

9. Reklamali. MTT ishlarini matbuot, televideniyada yoritish, avvalo, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikning rivojlanishiga, moliyaviy ko'mak olishga, jamoa mehnatini baholashga yordam beradi, ota-onalar, ma'muriy ishchilar e'tiborini ekologik ta'lim muammolariga jalb qiladi.

# Adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni O‘RQ-595-son, 16.12. 2019-y.
2. “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori № 434, 27.05. 2019-y.
3. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4312-son, 08.05.2019-y.
4. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirining buyrug‘i. Ro‘yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.
5. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M., “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun Davlat o‘quv dasturi, to‘ldirilgan ikkinchi nashr, 3.2. bob, Toshkent-2021.
6. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Nazarova V.A., Mikaylova U.T., Abdunazarova N. F., Zakirov A. A., Isxakova M. R., Umirzakova N. R. “Oila va mahalla bilan hamkorlik” Uslubiy qo‘llanmasi, T - 2020
7. Kiryanova R. A. Maktabgacha ta’lim muassasasida mavzuni rivojlantiruvchi muhitni qurish tamoyillari. – M.: Detstvo-Press, 2010.
8. Solomennikova O.A. Bolalar bog‘chasida ekologik ta’lim.
9. Metodik tavsiyalar dasturi. – M.: Mozayka – Sintez, 2015 yil.
10. Goncharova E. V. G 65 Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash nazariyasi va usullari: oliy pedagogik o‘quv yurtlari talabalari uchun ma’ruzalar kursi. – Nijnevartovsk: Nijnevart. ijtim. universitet. nashriyoti, 2008. - 326 b.
11. Grosheva I.V., Ten Ye.G., Xaziyeva L.Z. “Bolani muvozanatli velosipedda haydashni qanday o‘rgatish kerak” Metodik qo‘llanma. Toshkent 2022y.



